Рис. 5. Распределение площадей пор (а) и тепловая карта распределения пор (б) NiO

Наноструктура полученного NiO также подтверждена проведением анализа пористости на основе СЭМ-микрофотографии, результаты которого представлены на рис.5. Из данных рис.5а следует, что основная часть пор – мелкие мезо- и макропоры с площадью до 1 мкм², что указывает на высокую удельную поверхность. Присутствует несколько крупных межаггратных пор (>100 мкм²), вероятно, образованных между агломератами. В тепловой карте распределения пор NiO видны яркие зоны (жёлто-красные) – области с высокой концентрацией пор, чаще всего между агломератами, тёмные зоны – области с низкой пористостью или плотно упакованными частицами. В общем на изображении наблюдается неравномерное распределение пор, что типично для агрегированных наноматериалов.

Закключение и рекомендации. Таким образом, проведенные анализы свидетельствуют о том, что, NiO, полученный из отработанного промышленного катализатора процесса метанирования TO-2, обладает явной нанокристаллической структурой. Данный материал состоит из агломератов нано- и микроразмерного диапазона, содержащих между собой соразмерные поры и пустоты. Следует отметить, что такая морфология говорит о высокой удельной поверхности и потенциальной возможности использования в катализе, сенсорах, суперконденсаторах и других целях.

ЛИТЕРАТУРА

1. Nazemi, M.; Rashchi, F. Recovery of nickel from spent NiO/Al₂O₃ catalyst through sulfuric acid leaching, precipitation and solvent extraction. *Waste Management & Research*, 2012, 30(5), 492–497.
2. N.M Al-Mansi, N.M Abdel Monem. Recovery of nickel oxide from spent catalyst. *Waste Management*, 2002, 22, 85–90.
3. Koteswara R. Vuyyuru, Kamal K. Pant, Venkatesan V. Krishnan, and Krishna D. P. Nigam. Recovery of Nickel from Spent Industrial Catalysts Using Chelating Agents. *Ind. Eng. Chem. Res.* 2010, 49, 2014–2024.
4. P.K. Parhi et al. A kinetic study on hydrochloric acid leaching of nickel from Ni–Al₂O₃ spent catalyst. *Journal of Industrial and Engineering Chemistry* 19 (2013) 589–594.
5. P.T.H. Pham et al. A comprehensive review of catalyst deactivation and regeneration in heavy oil hydroprocessing. *Fuel Processing Technology* 267 (2025) 108170.
6. Sahu K. K., Agarwal A., Pandey B. D. (2005). Nickel recovery from spent nickel catalyst. *Waste Management & Research*, 23(2), 148–154.
7. Ibraheem F. H., Mahmoud H. E., Saleh D. I., et al. (2025). Extraction of Nickel Oxide from Spent Catalyst for Environmentally Safe Disposal. *ARO-The Scientific Journal of Koya University*, 13(24).
8. Дадаходжаев А.Т., Маматалиев Н.Н. Способы извлечения никеля из отходов производств и его применение // *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* 2019. № 4 (61). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/7217>.
9. Сотиболдиев Б.С., Гулямов Б.Б., Рахмонов Ж.А., Каттаев Н.Т., Боймирзаев А.С., Акбаров Х.И. Синтез и характеристика гидрофобного кремнезема // *Universum: химия и биология*, 2023, 10(112). DOI - 10.32743/UniChem.2023.112.10.16060.
10. Ж.К. Маматов, О.Н. Рузимурадов, Н.Т. Каттаев, Х.И. Акбаров. Изучение капиллярно-пористой структуры гибридных ПАН-кремнеземных композиций // *Узб. хим. журн.*, 2020. – № 3. – С. 16-22.



UO'K: 546, 541.39, 547

Guloy ALIYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dots.v.b., PhD

Email: alievaguloy@gmail.com

Dilnoza RAXMONOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti umumiy va noorganik kimyo kafedrası mudiri v.b., k.f.d., dots.

Shaxnoza KADIROVA,

O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti dekani, k.f.d., prof.

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, k.f.n., M.R. Ibragimova taqrizi asosida

STUDY OF COMPLEX COMPOUNDS OF SOME 3d-METALS BASED ON 2-(1-BENZOTRIASOLYL) ETHANAMINE

Annotation

The work synthesized new complex compounds of Co(II), Ni(II), Cu(II) and Zn salts based on 2-(1-benzotriazolil) ethanamine and studied their composition, structure, and properties using physicochemical methods such as scanning electron microscopy with energy-dispersive analysis (SEM-EDX), thermal analysis, and IR spectroscopy. It has been shown that the metal atom in the 2-(1-benzotriazolil) ethanamine molecule is bidentally coordinated through the nitrogen atoms in the triazole ring and amino group, and also monodentately coordinated through the oxygen atoms of water molecules.

Key words: Co(II), Ni(II), Cu(II) and Zn salts, ligand, 2-(1-benzotriazolil) ethanamine, monoethanolamine, complex compound, IR spectroscopy, thermal analysis, SEM-EDX.

ИЗУЧЕНИЕ КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ НЕКОТОРЫХ 3d-МЕТАЛЛОВ НА ОСНОВЕ 2-(1- БЕНЗОТРИАЗОЛИЛ) ЭТАНАМИНА

Аннотация

В работе синтезированы новые комплексные соединения солей Co(II), Ni(II), Cu(II) и Zn на основе 2-(1-бензотриазолил)этанамин и изучены их состав, строение и свойства с помощью физико-химических методов, таких как: сканирующая электронная микроскопия с энергодисперсионным анализом (SEM-EDX), термический анализ и ИК-спектроскопия. Показано, что атом металла в молекуле 2-(1-бензотриазолил)этанамин бидентатно координируется через атомы азота в триазольном кольце и в аминогруппе, а также монодентатно координируется через атомы кислорода молекул воды.

Ключевые слова: Соли Co(II), Ni(II), Cu(II) и Zn, лиганд, 2-(1-бензотриазолил)этанамин, комплексное соединение, ИК-спектроскопия, термический анализ, SEM-EDX.

AYRIM 3d-METALLARINING 2-(1-BENZOTRIAZOLIL) ETANAMIN ASOSIDAGI KOMPLEKS BIRIKMALARI TADQIQOTI

Annotatsiya

Maqolada Co(II), Ni(II) Cu(II) va Zn tuzlarining 2-(1-benzotriazolil) ethanamin asosidagi yangi kompleks birikmalari sintez qilingan va ularning tarkibi, tuzilishi va xossalari fizik-kimyoviy metodlar, jumladan: skanerlovchi elektron mikroskop – energiya dispersion tahlil (SEM-EDX), termik analiz va IQ-spektroskopiyasi yordamida o'rganilgan. Metall atomi 2-(1-benzotriazolil) ethanamin molekulasidagi triazol halqasidagi va aminoguruhdagi azot atomlari orqali bidentat hamda suv molekulasidagi kislorod atomlari orqali monodentat koordinatsiyalanishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Co(II), Ni(II) Cu(II) va Zn tuzlari, ligand, 2-(1-benzotriazolil) ethanamin, kompleks birikma, IQ-spektroskopiya, termik analiz, SEM-EDX.

Kirish. Triazol halqasi o'zida turli xil farmakologik ta'sirlarni namoyon etuvchi strukturaviy fragment hisoblanadi. Metall ionlari bilan kompleks hosil qilish orqali yangi sinergetik ta'sirga ega bo'lgan biologik faol birikmalar olish imkoniyati mavjud. Metall ionlari bilan triazol hosilalarining koordinatsiyasi yangi turdagi tuzilmalarga ega bo'lgan kompleks birikmalar sinteziga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kutilmagan fizik-kimyoviy xossalarga, jumladan, katalitik, magnit yoki optik xususiyatlarga ega bo'lgan materiallar yaratish uchun zamin yaratadi. Ligand tuzilishini o'zgartirish orqali metall ionining koordinatsion qobiliyatini nazorat qilish va shu orqali hosil bo'lgan kompleksning xossalari maqsadli ravishda boshqarish mumkin. Turli funksional guruhlarni kiritish orqali esa, kompleksning eruvchanligi, barqarorligi va biologik nishonga bog'lanishini optimallashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda geterotsiklik birikmalar kimyosi organik kimyoning jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, tarkibida azot atomini tutuvchi geterotsiklik birikmalar samarali dori vositalari sifatida o'z tasdig'ini topgan. Azotli geterotsiklik birikmalar sinfida triazol va uning hosilalari alohida ahamiyat kasb etadi. Adabiyot manbalariga ko'ra, ushbu birikmalar antioksidant, antituberkulyoz, antibakterial, antidepressiya, gerbitsid, fungitsid, ingibitor va boshqa biologik faolliklarni namoyon etadi [1-7].

Mazkur tadqiqotning maqsadi ayrim 3d-oraliq metallarning 2-(1-benzotriazolil)ethanamin (L) asosida yangi metallokompleks birikmalarini sintez qilish, ularning tarkibi va tuzilishini fizik-kimyoviy usullar yordamida o'rganish hamda kompleks hosil bo'lish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.


Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqsadga erishish uchun 3d-metall tuzlarining 2-(1-benzotriazolil)ethanamin bilan kompleks birikmalarini sintez qilish usullari ishlab chiqilgan va sintez amalga oshirilgan. Sintez qilingan birikmalarning tarkibi, tuzilishi IQ-spektroskopiyasi, element va termik analizlar yordamida o'rganilgan.

Kompleks birikmalar sintez qilish uchun metallarning kristallogidrat ko'rinishidagi tuzlaridan: Co(II), Ni(II) va Cu(II) va Zn nitrat va xlorid «k.a.t.» markasidan foydalanildi.

Mis (II) xloridning 2-(1-benzotriazolil)ethanamin asosidagi kompleks birikmasining sintezi quyidagi metodika bo'yicha sintez qilindi: mis (II) xloridi (0,001 mol) eritmasi 15 ml etanolga eritilib, uning ustiga M:L 1:2 molyar nisbatda (0,002 mol) ligand 2-(1-benzotriazolil)ethanaminning 20 ml etanolidagi eritmasi tomchilatib qo'shildi. Aralashma 1.5 soat davomida qaynatilib, issiq holda filtrlandi va kristallanish uchun olib qo'yildi. Besh kundan keyin yashil rangdagi mayda kristallar tushdi, so'ngra bir necha marta etanol bilan yuvildi. Mahsulotning unumi 65 % ni va T_{suyuq} 261-262°C ni tashkil etdi.


Cu(II), Zn(II), Ni(II) va Co(II) xloridli, nitratli, atsetatli tuzlari L bilan kompleks birikmalari shu tarzda sintez qilindi.

Sintez qilingan komplekslardagi elementlarning miqdorlari (uglerod, azot, kislorod, oltingugurt va metall atomlari) SEM-EDX metodi yordamida analiz qilindi. Komplekslarning mikrostrukturalari va EDX diagrammalari 1 (a, b) rasmlarda keltirildi.



Tahlil va natijalar. Kompleks birikmalar tarkibida metall atomini ligand bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning tarkibi va tuzilishini o'rganish bir qancha tadqiqotlarni talab etadi. Ishda 2-(1-benzotriazolil)ethanaminning Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn metallari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining IQ-spektrlari o'rganildi. Metall tuzlari va L bilan etanolli eritmasida M:L 1:2 nisbatda $[\text{ML}_2(\text{H}_2\text{O})_2]\text{X}_2$ tarkibga ega bo'lgan kompleks birikmalar sintez qilindi. L - 2-(1-benzotriazolil)ethanamin; M – o'rniaga Co(II), Ni(II) va Cu(II); X - o'rniaga CH_3COOH , NO_3 , Cl.

3-4 rasmlarda 2-(1-benzotriazolil)ethanamin va ular asosida sintez qilingan kompleks birikmaning IQ-spektri natijalari keltirilgan.



4-rasm. $[\text{CoL}_2(\text{H}_2\text{O})_2](\text{CH}_3\text{COO})_2$ kompleksining IQ- spektri

2-(1-benzotriazolil)ethanaminning IQ-spektri tahlil qilinganda, 2906-3062 cm^{-1} sohada uzun to'liqinli turli intensivdagi chiziqlar benzol halqasidagi C-H guruhining valent tebranishlari borligi aniqlandi. Benzol halqasidagi C-H guruhining deformatsion tebranishlari 1259 cm^{-1} sohada hamda 963 cm^{-1} sohada kuzatiladi. 2-(1-benzotriazolil)ethanaminning benzol halqasidagi C=C guruhi 1455 cm^{-1} sohada valent tebranish kuzatiladi. 2-(1-benzotriazolil)ethanaminning triazol halqasidagi N-N guruhining xarakterli valent tebranish yutilish chiziqlari 1076 cm^{-1} sohada kuzatiladi. 1483 cm^{-1} sohada ligandning triazol

halqasidagi N=N guruhi valent assimetrik hamda 1329 cm^{-1} sohada valent simmetrik tebranishlarni namoyon qiladi. 2-(1-benzotriazolil)ethanaminning benzol halqadagi C-N guruhi $1124\text{--}1208\text{ cm}^{-1}$ sohada valent tebranishlarni kuzatish mumkin.

Metall tuzlarining ligand bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining IQ- spektrlari solishtirilganda ayrim spektrlarda yutilish chiziqlari qisqarishi va yoyilishi kuzatildi. 2-(1-benzotriazolil)ethanamin va uning Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn tuzlari bilan kompleks birikmalarining IQ-spektrlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, $552\text{--}639\text{ cm}^{-1}$ sohalarida IQ-spektrlarda O-M bog'iga tegishli bo'lgan va ligand spektrlarida mavjud bo'lmagan yutilish chiziqlarining kuzatilishi markaziy atom suv molekulasidagi kislorod atomi bilan koordinatsion bog' orqali bog'lanishidan dalolat beradi [8].

[CoL₂(H₂O)₂](CH₃COO)₂ kompleksining IQ-spektrida 2901 cm^{-1} sohada benzol halqasidagi C-H bog'ining valent tebranishlari kuzatiladi. Bundan tashqari, 3409 cm^{-1} keng sohada suv molekulasiga tegishli bo'lgan valent tebranish chastotalari aniqlanadi. Aminoguruhning valent tebranishi ham 3219 cm^{-1} sohada namoyon bo'ladi. Ligandning spektrida kuzatilmagan M-O va M-N bog'larining valent tebranishlarining mos ravishda 632 va 462 cm^{-1} chastotalarda [8] paydo bo'lishi 2-(1-benzotriazolil)ethanamin ligandining benzotriazol halqasidagi azot atomi hamda aminoguruhdagi azot atomi orqali bidentat koordinatsiyasi natijasida barqaror metalloxelatli kompleks hosil qilganligini tasdiqlaydi.

[NiL₂(H₂O)₂](NO₃)₂ tarkibli kompleksning IQ-spektri tahlil qilinganda 2901 cm^{-1} sohada benzol halqasiga tegishli C-H guruhining valent tebranishlari namoyon bo'ladi. Shuningdek, 3335 cm^{-1} keng sohada suv molekulasiga tegishli (OH) valent tebranish chastotalari kuzatiladi. Aminoguruhning 3217 cm^{-1} sohada xarakteristik yutilish chizig'i namoyon bo'ladi. Ligandda uchramagan M-O va M-N bog'larining valent tebranishlari 557 va 433 cm^{-1} sohalarida namoyon bo'lishi 2-(1-benzotriazolil)ethanamin halqasidagi va aminoguruhdagi azot atomlari bilan bidentat holatda koordinatsiyalanganligini ko'rsatadi.


Shunday qilib, IQ-spektroskopik tahlil natijasiga ko'ra komplekslarning IQ-spektrida metall tuzlari 2-(1-benzotriazolil)ethanamin halqasidagi va aminoguruhdagi azot atomlari bilan metall ioni kompleks hosil qilishi aniqlandi. Co(II), Cu(II), Ni(II) metall tuzlarining L asosidagi 1:2 nisbatda M:L kompleks birikma hosil qilib, oktaedr tuzilishli komplekslar hosil bo'lishi xulosa qilindi.

Co(II), Ni(II) Cu(II) va Zn tuzlarining 2-(1-benzotriazolil)ethanamin bilan yangi aralash ligandli komplekslarining termik barqarorligi va tarkibida suv molekullari mavjudligini aniqlash maqsadida termik analiz o'tkazildi.

Termik analiz termoanalitik asbob – derivatografda olib borilib, bir vaqtning o'zida namuna massasining kamayish tezligi, kompleksning parchalanish massasi va termik barqarorligi aniqlanadi. Termik analiz natijasida komplekslarning parchalanishi va suyuqlanishi, ligandlarning koordinatsiyalanish sifati va koordinatsiyalanmasligi, komplekslarning oxirgi mahsulotlari aniqlanadi [9-11].

Termik analiz natijalari: birikmalarni termik parchalanish bilan boruvchi issiqlik effekti tabiati, temperatura effekti intervallari va ularning tabiati, massani mg larda kamayishi 5 (a, b) - rasmlarda keltirilgan.

[NiL₂(H₂O)₂](CH₃COO)₂·H₂O kompleks birikmasining differensial termogravimetrik analiz (DTGA) egri chizig'i tahlili shuni ko'rsatadiki, DTGA egri chizig'ining umumiy parchalanish oralig'i $49,45$ dan $800\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan temperatura intervaliga mos keladi. Kompleksni qizdirish egri chizig'ida ikkita endoeffekt mos ravishda $103,93$ va $395,19\text{ }^{\circ}\text{C}$ da kuzatildi. Birinchi endoeffekt kompleksning tashqi sferasidagi kristallizatsion surning ajralib chiqishiga mos keladi. Shu bilan birga, ichki sferadagi suvning yo'qotilishi $130\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha davom etadi. Keyingi termoeffektlar kompleks tarkibidagi ligand molekulasining bosqichma-bosqich parchalanishi bilan izohlanadi. $297,93\text{--}579,74\text{ }^{\circ}\text{C}$ intervalda termogravimetrik (TG) egri chizig'i bo'yicha eng ko'p massa yo'qotilishi $36,41\%$ ni yoki $2,008\text{ mg}$ ni tashkil etadi. Keyingi 580 va $801\text{ }^{\circ}\text{C}$ oraliqdagi effektlar ligandni parchalanish mahsulotlarining yonishiga mos keladi va massaning $11,532\%$, $0,636\text{ mg}$ yo'qotilishi kuzatiladi. Termoliz mahsuloti sifatida nikel(II) oksidi qoladi.




5-rasm. [NiL₂(H₂O)₂](CH₃COO)₂·H₂O (a) va [NiL₂(H₂O)₂]Cl₂·H₂O (b) komplekslarining derivatogrammasi

Komplekslarning derivatografik tahlili natijasida namunaning massasi, komplekslarning parchalanish massasi va komplekslarning termik barqarorligi harorat ortgani sari o'zgarib borishi aniqlandi. Shunday qilib, derivatografik tahlil natijasiga ko'ra, kompleks birikmalarining parchalanishi natijasida, dastlab tashqi sferadagi suv, keyin ichki sferadagi suv molekullari, keyingi bosqichlarda esa organik qismlarning parchalanishlari kuzatildi. Termoliz mahsulotlari sifatida esa metall oksidlari qolganligi xulosa qilindi.

Xulosa va takliflar. Sintez qilingan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqotlar bilan o'rganilganda kompleks birikmalar tarkibida metall tabiatining ta'siri kuzatilmadi. Sintez qilingan kompleks birikmalar tarkibida metall atomlari ikkita 2-(1-benzotriazolil) ethanamin bidentat va ikkita suv molekulasini monodentat koordinatsiyalanib, barqaror metalloxelat hosil qilganligi ko'rsatildi. Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn tuzlari asosida olingan kompleks birikmalar tarkibida ichki sferada kristallizatsion suv molekulasini joylashganligi kuzatildi. Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn tuzlari asosida olingan kompleks birikmalar tarkibida 2-(1-benzotriazolil)ethanamin bidentat va ikkita suv molekulasini monodentat koordinatsiyalanganligi ko'rsatildi.

Fizik - kimyoviy tadqiqotlar asosida kompleks birikmaning tuzilishi metall – ligand 1:2 nisbatda birikkanligi xulosa qilindi va sintez qilingan kompleks birikmalarining tuzilishi quyidagicha tavsiya qilindi:



Bu yerda, M - o'rnida Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn

ADABIYOTLAR

1. Hanif M., Chohan Z.H. Design, spectral characterization and biological studies of transition metal(II) complexes with triazole Schiff bases *Spectrochim // Acta A Mol. Biomol. Spectrosc.* – 2013. – V.104. – P.468-476.
2. Narsimha S., Satheesh K.N., Kumara S.B. Vasudeva R. N., Althaf S.K., Hussain M., Srinivasa R. Indole-2-carboxylic acid derived mono and bis 1,4-disubstituted 1,2,3-triazoles: Synthesis, characterization and evaluation of anticancer, antibacterial, and DNA-cleavage activities // *Bioorganic & Medicinal Chemistry Letters.* – 2016. – №26(6). – P 1639-1644.
3. Zhang S., Xu Z., Gao C., Ren Q., Chang L., Lv Z., Feng L. Triazole derivatives and their anti-tubercular activity // *European Journal of Medicinal Chemistry.* – 2017. – V. 138. – P. 501-513.
4. Ali A., Al-Hassani R., Hussain D., Jabir M. Anti-Proliferative Activity and Tubulin Targeting of Novel Micro and Nanoparticles Complexes of 4-Amino-3-Thion-1, 2, 4-Triazole Derivatives // *Nano Biomedicine and Engineering.* – 2020. – V.12(1). – P.75-89.
5. Chelamalla R., Akena V., Manda S. Synthesis of N'-arylidene-2-(5-aryl-1H-1, 2, 4-triazol-3-ylthio) acetohydrazides as antidepressants // *Med Chem Res.* – 2017. – V.26(7). – P.1359-1366.
6. Krzysztof S., Jarosław S., Anna K., Ewa K. Syntheses of Novel 4-Substituted N-(5-amino-1H-1,2,4-triazol-3-yl)pyridine-3-sulfonamide Derivatives with Potential Antifungal Activity // *Molecules.* – 2017. – V.22(11). – P. 1926-1945.
7. Narsimha S., Satheesh K.N., Kumara S.B. Vasudeva R. N., Althaf S.K., Hussain M., Srinivasa R. Indole-2-carboxylic acid derived mono and bis 1,4-disubstituted 1,2,3-triazoles: Synthesis, characterization and evaluation of anticancer, antibacterial, and DNA-cleavage activities. // *Bioorganic & Medicinal Chemistry Letters.* – 2016. – №26(6). – P.1639-1644.
8. Накамото К. ИК спектры неорганических и координационных соединений. – М.: Мир. – 1996. – 206 с.
9. Топор Н.Д., Огородова Л.П., Мельчакова Л.В. Термический анализ минералов и неорганических соединений. Москва: Изд-во МГУ, 1987. – 190 с.
10. Шаталова Т.Б., Шляхтин О.А., Веряева Е. Методы термического анализа. – Москва: 2011. – 72 с.
11. Кукушкин Ю.Н., Ходжаев О.Ф., Буданов В.Ф., Парпиев Н.А. Термолиз координационных соединений. Ташкент: Наука, 1986. –198 с.



UDK: 661.728.7, 661.728.8

Diloram ALIQULOVA,
Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: aliqulovadiloram74@gmail.com
Sayyora DURMANOVA,
Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi
Hakim BURIEV,
Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi
Nurmamat BOBOMURODOV,
Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti o'qituvchisi
Maxliyo ABDULLAEVA,
Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti tayanch doktoranti

Termiz davlat universiteti professori Sh.Qosimov taqrizi asosida

ION SUYUQLIGI MUHITIDA SHOLI POYASIDAN MONOSAXARIDLAR OLISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Sholi poyasi odatda dalalarni tozalash maqsadida yoqib yo'boriladi va ekologiyaga jiddiy zarar etkaziladi. Mazkur ishda shu masalalarni hal qilish uchun tadqiqotchilar sanoat uchun ahamiyati kam bo'lgan sholi poyasidan qimmatli monosaxaridlar ajratib olish texnologiyasini keltirishgan. Sholi poyasi Surxondaryo viloyatining sholi etishtiradigan dalalaridan olingan. Ion suyuqligi sifatida dimetilsulfoksid karbamid ishlatilgan.

Kalit so'zlar: triftoirsirka kislota, eritma, gidroliz, arabinoza, ksiloza, glyukoza, mannoza, galaktoza, tabiiy polimer, sholi poyasi, dimetilsulfoksid, karbamid.

TECHNOLOGY FOR EXTRACTION OF MONOSACCHARIDES FROM RICE STEM IN AN IONIC LIQUID ENVIRONMENT

Annotation

Rice stalks are usually burned to clear fields, causing serious damage to the environment. In this work, to solve these problems, researchers have proposed a technology for extracting valuable monosaccharides from rice stalks, which are of little industrial importance. Rice stalks were obtained from rice fields in Surkhandarya region. Dimethyl sulfoxide urea was used as the ionic liquid.

Key words: Trifluoroacetic acid, solution, hydrolysis, arabinose, xylose, glucose, mannose, galactose, natural polymer, rice stalk, dimethylsulfoxide, urea.

ТЕХНОЛОГИЯ ИЗВЛЕЧЕНИЯ МОНОСАХАРИДОВ ИЗ СТЕБЛЯ РИСА В СРЕДЕ ИОННОЙ ЖИДКОСТИ

Аннотация

Для очистки полей стебли риса обычно сжигают, что наносит серьезный экологический ущерб. В данной работе для решения этих проблем исследователи внедрили технологию извлечения ценных моносахаридов из стеблей риса, которые не имеют большого промышленного значения. Стебли риса были взяты с рисовых полей Сурхандарьинской области. В качестве ионной жидкости использовали диметилсульфоксид, мочевины.

Ключевые слова: трифторуксусная кислота, раствор, гидролиз, арабиноза, ксилоза, глюкоза, манноза, галактоза, природный полимер, стебель риса, диметилсульфоксид мочевины.

Kirish. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida kimyo va biokimyo sanoatni rivojlantirishda mahalliy xom-ashyolardan foydalanish ayniqsa selluloza tarkibidagi bir nechta quyimolekular moddalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida ekologik jihatdan toza holda ajratib olish dolzarb vazifalardan biridir. Selluloza tarkibidagi quyimolekular moddalarni fraksiyalarga ajratish erituvchilarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy texnologiyalarda selluloza massasini atmosfera bosimi va past haroratlarda ishlov berish orqali yuqori samaradorlikga erishish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Sholi poyasidan turli miqdordagi birikmalarni ajratib olish hisobiga sanoatda uning o'rini oshirish mumkin. Ion suyuqligi yordamida qamish, payraha va kanaf hamda boshqa o'simliklar poyasidan birikmalarni ajratib olish imkoniyati mavjudligi aniqlangan [1]. Sholi poyasi tarkibidagi sellulozaning erish jarayoni molekular vodorod bog'larini buzilishi bilan boradi. Lignin selluyulozali xom ashyosiga IS (ion suyuqligi) sharoitida ishlov berish ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, sanoat miqyosida qo'llash istiqbolli ahamiyatga ega [2]. Buni amalga oshirish uchun IS sifatida dimetilsulfoksid karbamid qo'llanildi. Dimetilsulfoksid karbamid muhim bioparchalovchi erituvchi bo'lib boshqa vakillariga qaraganda zararli tomoni kamroq. Kuchli erituvchi sifatida sellulozani fraksiyalarga ajratishda yuqori samara berishi isbotlangan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Sholi poyasi Surxondaryo viloyatining sholi etishtiradigan dalalaridan olindi. Ion suyuqligi sifatida dimetilsulfoksid karbamid ishlatildi. Ultratovush bilan ishlov berish haroratlar intervali 80-140°C bo'lganida va 5 dan 20 daqiqagacha ish chastotasi 45 kGs va quvvati 10, 30 va 50 Vt bo'lgan ultratovushli dispergator UZDN-2T yordamida amalga oshirilgan.

Sholi poyasi ion suyuqligida 5, 10, 15 daqiqa davomida 80, 110, 140°C haroratda 10, 30, 50 Vt ultratovushli nurlanishida uch xil sharoitda ishlov berildi. Hosil qilingan tabiiy polimerlar trifloruksus kislota yordamida gidroliz qilindi [4].

Tahlil va natijalar. Olingan natijalarga qaraganda, ultratovushdan foydalanish mahsulot unumining ortishiga yordam beradi, hamda ishlov berish muddatini qisqartiradi. Sholi poyasini 100 °C da 15 daqiqa davomida 10 Vt quvvatda ultratovush bilan ishlov berilganida mahsulot chiqishi 52,6% ga erishildi, oddiy sharoitda 60 daqiqa davomida ishlov berilganida 43,1% ni tashkil qildi.

Ultratovush quvvatning 50 Vt ga oshirilsa bilan mahsulot unumi 63,1% gacha ko'tariladi. Ultratovush quvvatini 50 vt ga ortishi 15 daqiqa ichida gemitsellyuloza 6 % ga, lignin 10 % ga oshishi isbotlandi. Ultratovush bilan ishlov berishda lignin va gemitsellyuloza o'rtasidagi o'zaro bog'larlarining samarali uzilishiga bog'liq bo'ladi. Oddiy sharoitda ya'ni ultratovushsiz sholi poyasiga ishlov berish 7 soat ko'proq vaqt talab qilinadi. Demak ion suyuqligida sholi poyasini eritish uchun ultratovushdan foydalanish vaqtni 5-6 soatgacha tejash imkoniyatini beradi. Sholi poyasiga oddiy sharoitda 100°C da 1 soat davomida ishlov berishsa, 5,9 % atrofida lignin fraktsiyaga ajraladi, agarda 10 Vt quvvatga ega ultratovushdan foydalanilsa 15 daqiqada 10% gacha oshadi.


Trifloruksus kislota eritmasi bilan gidrolizlanishi mumkin bo'lgan tabiiy polimerlarning ulushi texnik selluloza (TS) fraksiyasi tarkibidagi massaning taxminan 64% ni tashkil qiladi. Lignin va gemitsellyulozadan ajralish natijasida TC fraktsiyasida gidrolizlanadigan polisaxaridlarning ulushi issiqlik bilan ishlov berishdan keyin va vodorod tarmog'i ulanishlarining mustahkamligi zaiflashishi tufayli ortadi. Natijada, polisaxaridlar miqdori kamayganiga qaramay, fraksiyaning kislotali gidrolizlanishidan keyin monosaxaridlarning ajralishi ortadi (1-jadval).

1-jadval.

Texnik selluloza (TS) fraksiyalarining gidrolizatlaridagi monosaxaridlar miqdori

Harorat va vaqt, °C/s	Tarkib, % og'irlik.					Jami, % og'irlik.
	Arabinoza	Ksiloza	Mannoza	Galaktoza	Glyukoza	
110/1	5,02	26,77	0,04	0,60	12,89	46,02
120/1	5,96	25,02	0,05	1,04	17,86	50,21
140/1	5,00	23,98	0,30	1,49	20,10	51,02
145/1	6,00	23,05	0,02	1,60	24,99	54,86
140/2	6,5	25,59	0,40	2,51	28,91	64,21

Monosaxaridlarning chiqarilishining ko'payishi texnik selluloza gidrolizi tufayli yuzaga keladi, bu gidrolizatlar tarkibidagi glyukoza ulushini 110 ° C (1 soat) da 12,89 % dan 145 ° C da 24,99 % gacha oshirishni ta'minlaydi. Gemitsellyuloza texnik tsellyulozaga qaraganda trifloroatsetik kislota bilan oson gidrolizlanadi. 2-jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rinish turibdiki, GS fraksiyalarini gidrolizlash jarayonida olingan monosaxaridlarning umumiy unumi 73 dan 82% gacha o'zgarib turadi.



1-rasm. TS gidrolizlanishida monosaxaridlarning miqdori

Tadqiq qilinayotgan haroratlar oralig'ida monosaxaridlarning umumiy miqdorida ksiloza va glyukoza miqdori yo'qori ekanligini ko'arabinoza 69,8 va ksiloza 51,8 % gacha kamayganligi ko'rinish mumkin.

Gidrolizning monosaxaridlari tarkibida glyukoza, ksiloza va arabinozaning nisbatan yuqori miqdori qayd etilgan, fraksiyada gemitsellyuloza (GS)lar mavjudligidan dalolat beradi.

2-jadval.

Gemitsellyuloza (GS) fraksiyasi tarkibidan ajartib olingan monosaxaridlar miqdori

Harorat va vaqt, °C/s	Tarkib, % og'irlik.	Jami, % og'irlik.

	Arabinoza	Ksiloza	Mannoza	Galaktoza	Glyukoza	
100/1	5,98	66,11	0,21	2,10	4,70	77,98
120/1	6,02	63,19	0,21	1,31	5,99	77,57
140/1	6,59	57,49	0,20	2,31	7,81	73,31
150/1	7,31	54,01	0,30	3,02	12,01	75,75
140/2	7,02	67,02	0,34	2,59	5,61	82,00

Monosaxaridlarning etakchi tarkibiy qismlaridan biri ksiloza bo'lib, bu bizga gemitsellyuloza fraktsiyalarida ko'p miqdorda ksilan borligini taxmin qilish imkonini beradi. Qayta ishlash haroratining oshishi bilan ksiloza miqdorining pasayishi furan hosilalari va kimyoviy jarayonlarning boshqa bir qator inhibitörlerinin shakllanishi bilan ikkilamchi o'zgarishlar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Arabinoz miqdori harorat va ishlov berish muddatiga bog'liq emas va 5,9 dan 7,2% gacha. Shunga o'xshash miqdor glyukoza tarkibida mavjud. Juda oz miqdorda galaktoza va mannoz ham aniqlangan. GS fraksiyalarining gidrolizi paytida monosaxaridlarning maksimal rentabelligi guruch poyalarini dimetil sulfoksid muhitida 140 ° C da 2 soat davomida davolashdan keyin olingan va fraksiyaga nisbatan 81,2% ni tashkil etgan. Ksiloza va arabinoza GS fraksiyasida ikkinchisi asosiy monosaxaridlardir, chunki gidrolizat fraksiyasidagi glyukoza miqdori 5% dan oshmaydi. GS fraksiyasi tarkibida massaning 80% dan ko'prog'ini trifloroksis kislota eritmasi bilan gidrolizlanib arabinoza, ksiloza, glyukoza, mannoza va galaktoza hosil qiladigan tabiiy polimerlar tashkil qiladi.

3-jadval.

Guruch poyalarini ultratovushli termik ishlov berishdan keyin ajratilgan mahsulotlarning tarkibi.

Fraksiya	Fraksiyalarning chiqishi, %.	Monosaxaridlar, % og'irlikda.				
		Arabinoza	Ksiloza	Mannoza	Galaktoza	Glyukoza
Fraksiya TS	63.6	5,90	27,30	0,44	2,09	24,10
Fraksiya GS	20.7	7,10	67,80	0,19	1,65	4,80

Jadvalda berilgan ma'lumotlardan ko'rinish turidagi sholi poyasidan olingan polisaxaridlardan TS fraksiyasi 63,6% ni, GS fraksiyasi esa 20,7% ni tashkil qilgan. Polisaxaridlarning monosaxaridlarga parchalanish foizidan ko'rish mumkinki monosaxaridlarning yetakchi komponentlaridan biri ksiloza hisoblanib (27,30 va 67,80 %), bu gemitsellyuloza fraksiyalari tarkibidagi ksilanning ko'p miqdorda ekanligini taxmin qilishga imkon beradi.

Arabinozaning miqdori harorat va ishlov berish davomiyligiga bog'liq emas va 5,9 dan 7,2 % gacha oraliqda bo'ladi. Shunga o'xshash miqdor glyukozada uchraydi. Juda ham kam miqdorda galaktoza va mannoza ham aniqlangan.

Xulosalar. Tadqiqot natijasida ultratovush quvvati 50 Vt da 15 daqiqa davomida 100°C da ishlov berilganda texnik selluloza, gemitsellyuloza va lignindan 71,2% gacha tozalangandi. Shu bilan birga fraksiyaning unumdorligi 47,5% ni tashkil etdi. Bunda shu narsa ma'lum bo'ldiki, dastlabki sholi poyasi tarkibidagi selluloza miqdori ham 47,5% atrofida tashkil qilgan bo'lsa sholi poyasi tarkibidagi birikmalar ion suyuqligi yordamida ultratovush bilan ishlov berilganda 90% dan yuqori darajada mahsulot ajratib olingan.

ADABIYOTLAR

- Smuga-Kogut M, Walendzik B, Lewicka-Rataj K, Kogut T, Bychto L, Jachimowicz P, Cydzik-Kwiatkowska A. Application of Proton Ionic Liquid in the Process of Obtaining Bioethanol from Hemp Stalks. *Energies*. 2024; 17(4):972.
- Mohammed, A. A. B. A., Omran, A. A. B., Hasan, Z., Ilyas, R. A., & Sapuan, S. M. (2021). Wheat Biocomposite Extraction, Structure, Properties and Characterization: A Review. *Polymers*, 13(21), 3624.
- Wawer, Jaroslav, Jakub Karczewski, Robert Aranowski, Rafał Piątek, Danuta Augustin-Nowacka, and Piotr Bruździak. "Influence of Urea and Dimethyl Sulfoxide on K-Peptide Fibrillation". *International journal of molecular sciences*, vol. 23, 2022, p. 3027.
- Аликулова Д.А., Урозов М.К., Курбанова Р.И. Термическая обработка рисовой соломы в ионной жидкой среде на основе хлорида 1-бутил-3-метилимидазола. *Универсальный журнал «научные исследования»*. Серия Том 1 Выпуск. 1.02.2023. 299-290.
- Hakimov M., Siddiqov G., Rahmonberdieva R., Siddiqova A. *Scutellaria cordifrons* o'simligi yer ustki qismining polisaxaridlari. *NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ* 2018 yil 2-son 1-qism.



UDK: 577.1(616.83)

Sanobar AMANBAYEVA,
Qo'qon universiteti Andijon filiali tayanch doktoranti
E-mail: kuafbiochemistry@gmail.com
Muhammadjon MUSTAFAKULOV,
Biofizika va biokimyo instituti katta ilmiy xodimi, PhD

Andijon davlat universiteti professori D.To'ychiyeva taqrizi asosida

AMMONIA TRANSPORT IN ORGANISMS AND ITS INDICATORS IN NEURODEGENERATIVE DISEASES

Annotation

In this study, ammonia levels were investigated in rats with artificially induced Alzheimer's disease. The results showed a significant increase in ammonia concentration in the brain and blood of diseased animals. This indicates that impaired ammonia metabolism may influence the development of Alzheimer's.

Key words: Alzheimer, ammonia, hippocampus, brain cortex, ammonia metabolism.

ТРАНСПОРТ АММИАКА В ОРГАНИЗМАХ И ЕГО ПОКАЗАТЕЛИ ПРИ НЕЙРОДЕГЕНЕРАТИВНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ

Аннотация

В данном исследовании изучался уровень аммиака у крыс с искусственно индуцированной болезнью Альцгеймера. Результаты показали значительное повышение концентрации аммиака в головном мозге и крови больных животных. Это свидетельствует о том, что нарушение метаболизма аммиака может влиять на развитие болезни Альцгеймера.

Ключевые слова: Альцгеймер, аммиак, гиппокамп, кора головного мозга, метаболизм аммиака.

ORGANIZMLARDA AMMIK TRANSPORTI VA UNING NEURODEGENERATIV KASALLIKLARDAGI KO'RSATKICHLARI

Annotatsiya

Ushbu ishda kalamushlarda sun'iy ravishda hosil qilingan Altsgeymer kasalligida ammiak darajasi o'rganildi. Natijalar kasal hayvonlarning miya va qonida ammiak miqdori sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Bu ammiak almashinuvining buzilishi Altsgeymer rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Altsgeymer, ammiak, gippokamp, bosh miya korteksi, ammiak metabolizmi.


Kirish. Altsgeymer kasalligi (AK) progressiv neurodegenerativ kasallik bo'lib, kognitiv funksiyalarning asta-sekin yo'qolishiga olib keladi. Ushbu kasallikning patogenezi murakkab va to'liq o'rganilmagan. So'nggi tadqiqotlar ammiak (NH_3) metabolizmining buzilishi AK rivojlanishida muhim rol o'ynashi mumkinligini ko'rsatmoqda [16]. Ushbu tadqiqotda AK modelidagi hayvonlar qonida NH_3 miqdori o'rganildi. Tadqiqot 67 ta hayvonda o'tkazildi va ularning qonidagi NH_3 miqdori o'Ichandi. Olingan natijalar zamonaviy adabiyotlar bilan solishtirildi. NH_3 va neyrotoksiklik: So'nggi tadqiqotlar NH_3 ning neyronlarga toksik ta'sirini tasdiqlaydi. NH_3 oksidlovchi stressni kuchaytiradi, mitoxondrial disfunktsiyani keltirib chiqaradi va neyronlarning sinaptik funksiyasini buzadi [14]. AK patogenezida NH_3 roli: Tadqiqotlar NH_3 beta-amiloid to'planishini kuchaytirishi va tau oqsilining giperfosforillanishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu esa AKning asosiy patologik belgilaridir. NH_3 va kognitiv buzilishlar: Klinik tadqiqotlar NH_3 darajasining oshishi kognitiv buzilishlar bilan bog'liqligini ko'rsatdi [17]. NH_3 ni kamaytirish strategiyalari: So'nggi tadqiqotlar NH_3 ni kamaytirishga qaratilgan terapevtik strategiyalarni o'rganmoqda. Ammiak NH_3 darajasini kamaytirishga yordam berishi mumkin bo'lgan dori preparatlar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda [18].

Mavzuning dolzarbligi va tadqiqot maqsadi. Eksperimental Altsgeymer modeli hayvonlar qoni va bosh miyaning turli qismlariga ammiakning ta'sirini o'rganish. Organizmlarda ammiak transporti va uning neurodegenerativ kasalliklardagi ko'rsatkichlari nihoyatda dolzarb mavzu hisoblanadi. Ammiak metabolizmining buzilishi turli neurodegenerativ kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, shu sababli ushbu mavzu biologiya, tibbiyot va nevrologiya sohalarida katta qiziqish uyg'otadi. Ammiakning neyronlarga ta'sirini tushunish va uning transport mexanizmlarini o'rganish neurodegenerativ kasalliklarni davolashning yangi usullarini ishlab chiqishga yordam beradi. Ammiakning to'qimalardan jigarga va buyraklarga transport shakllari glutamin va alanin hisoblanadi, kamroq miqdorda asparagin va glutamat, shuningdek, qonda oz miqdorda erkin shaklda ammiak mavjud. Glutamin va alanin eng ko'p uchraydigan transport shakllari bo'lib, ular qondagi barcha aminokislotalarning 50% gacha qismini tashkil qiladi. Glutaminning asosiy qismi mushaklar va nerv to'qimalaridan keladi, alanin esa mushaklar va ichak devoridan amin azotini olib yuradi [11, 12, 13]. Ammiakning transport shakllari bilan bog'liq reaksiyalar asosan ayrim to'qima va organlarga bog'liq. Ammiakni transport qilish uchun maqsadli organlar jigar, buyraklar va ichakdir. Jigarda boshqa muhim metabolik jarayonlar bilan bir qatorda, asparagin va glutamin mos ravishda asparaginaza va glutaminaza fermentlari ta'sirida deaminatsiyalanadi, hosil bo'lgan ammiak siydik sintezida ishlatiladi. Alanin α -ketoglutarat bilan transaminlanish reaksiyalariga kirishadi. Glutamin kislota oksidlovchi dezaminlanish uchraydi. Organizmda aminokislotalarning katabolizmi va ovqatdan oqsillarni parchalovchi ichak bakteriyalarining faolligi natijasida hosil bo'lgan ammiak jigar gepatotsitlari tomonidan karbamidga aylanadi va zaharililigini yo'qotadi. Sog'lom odamda qondagi ammiak konsentratsiyasi past bo'ladi va odatda 50 $\mu\text{mol/l}$ (85

mkg/dl) dan past bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ortiqcha ammiak markaziy asab tizimiga toksik ta'sir ko'rsatishi mumkin va unga hamroh bo'lgan klinik ko'rinish odatda nevrologik xususiyatga ega. Ammiak darajasining oshishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: (I) tug'ma metabolik kasalliklar: yoki (II) boshqa kasalliklar. Qondagi ammiakning ko'tarilgan darajasi Reye sindromi, virusli gepatit yoki sirroz bilan bog'liq og'ir jigar yetishmovchiligida ham kuzatilishi mumkin. Ammiak darajasi ortishi, ya'ni giperammoniyemiya - yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ammiak darajasi 100 mkmol/l dan va kattalarda 50 mkmol/l dan yuqori bo'lgan holat [3]. Giperammoniyemiya sindromining dastlabki ko'rinishlari uchdan bir hollarda erta yangi tug'ilgan davrga to'g'ri keladi. Giperrammoniyemiya – sindromi yangi tug'ilgan davrida ko'pincha markaziy asab tizimining (MAT) turli darajadagi depressiyasi, hatto komagacha (75%), tutqanoq sindromi (55%) va qusish (40%) shaklida namoyon bo'ladi. Organizmda noto'g'ri ishlayotgan katabolizm jarayonlari natijasida hosil bo'lgan ortiqcha ammiak miqdori jiddiy biokimyoviy muammo hisoblanadi. Bu ammiakning toksikligi va birinchi navbatda, markaziy asab tizimiga (MAT) ta'siri bilan bog'liq [1, 2]. Bu holat turli patologiyalarga hamroh bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda, bu irsiy moddalar almashinuvi kasalliklari (IMAK) bo'lib, ular har xil yoshda namoyon bo'lishi mumkin, ammo eng og'ir oqibatlar yangi tug'ilgan davrida namoyon bo'ladigan kasalliklarda kuzatiladi. Demak bundan, ammiak miqdorining balandligi birinchi turi genetik omillarga bog'liq ekanini xulosa qilish mumkin. Ikkilamchi giperammoniyemiya jigarining shikastlanishi yoki valproat kislotasi preparatlari kabi dorilarni qabul qilish bilan bog'liq [5]. Qondagi ammiak konsentratsiyasining ko'payishi miyadagi ammiak darajasining oshishiga olib keladi [6], bu esa oxir – oqibat eritrositlarning shishishi, gemato – ensefalik to'siqning o'tkazuvchanligining oshishi, serebral metabolizm va neyrotransmissiyaning o'zgarishi, shuningdek, miya shishishiga sabab bo'ladi [7, 8]. Ammiak, shuningdek, eritrositlarda kaliyning buferlanishini buzadi. Natijada hujayradan tashqari kaliy konsentratsiyasining oshishi va neyronal Na⁺; K⁺; Cl⁻ kotransporterning giperfaollashuvi kortikal ingibitor neyron mediator o'tkazuvni yomonlashtiradi va tutqanoqlarga olib keladigan nevrologik disfunktsiyani keltirib chiqaradi [8, 9]. Bosh miyani yuqori ammiak darajasidan himoya qiluvchi to'siq eritrositlardagi glutaminsintaza faolligidir. Biroq, bu detoksikasiya tizimining cheklanishi eritrositlarda glutamin to'planishi natijasida yuzaga keladigan osmotik stressdir (ammiak–glutamin–miya shishi gipotezasi) [10].

Material va metodlar. Tadqiqotlar O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimy o'z MU instituti Metabolomika laboratoriyasida oq kalamushlarda olib borildi. Tajribalarda jami 24 ta 324±16 g kalamushlardan foydalanildi. Tadqiqotlar sanitariya qoidalari va laboratoriya hayvonlariga insoniy munosabatda bo'lish standartlari va Helsinki Deklaratsiyasi (Butun Jahon Tibbiyot Assotsiatsiyasi, Edinburg, 2000 y.), Xalqaro tibbiy ilmiy jamiyatlar kengashi (CIOMS; the council for international organizations of medical sciences) va eksperimental hayvonlarni saqlash va ularda tadqiqotlar olib borishda xalqaro «Guide for the Care and Use of Laboratory Animals», qoidalarga muvofiq amalga oshirildi. Tadqiqot hayvonlarida Alsgeymer kasalligi modelini chaqirish uchun neyrotoksin streptozotsindan foydalanildi. Tajriba uchun ajratilgan kalamushlar guruhlariga ajratildi: I guruh – nazorat (n=11), II guruh – tajriba (Alsgeymer, n=15), III guruh – tajriba (Alsgeymer+ Kversetin n=15) (Kv), IV guruh – tajriba (Alsgeymer+ X-2 C.M.K (1:9), n=14), V guruh- tajriba (Alsgeymer+X-2 C.M.K (1:5), n=17) guruhlariga bo'lindi. Alsgeymer kasalligining modelini chaqirish uchun streptozotsin 3 mg/kg miqdorda burun orqali yuborilgandan keyin 14 kun o'tib, III guruhdagi kalamushlarga 14 kun mobaynida bir haftadan so'ng, X-2 C.M.K (1:5) (50 mg/kg), IV guruhdagilarga X-2 C.M.K (1:9) (40 mg/kg) og'iz bo'shlig'i orqali 7 kun davomida peroral yuborildi. Qon plazmasi va to'qima gomogenatidagi ammiak darajasini aniqlash uchun 2 xil usul mavjud bular, bevosita va bilvosita. Ammiakni bilvosita usul bilan aniqlashda birinchi izolyatsiya, masalan, ishqor qo'shib yoki ishqor bilan kationitdan foydalanib, so'ngra uning tarkibini aniqlash. Ammiak konsentratsiyani aniqlash uchun reaktiv Infinity™ Blood Ammiak to'g'ridan – to'g'ri fermentativ reagentidan foydalanildi.

Quyidagi reaksiyalar ketma – ketligiga asoslangan usul:



Biz o'z tadqiqotlarimizda Alsgeymer kasali modelini laborotriya sharoitida tayyorlab bu kasallikda, model hayvon qonidagi, miyaning gippokamp va korteks qismlaridagi ammiak miqdorini aniqladik.

Olingan ma'lumotlar o'rtacha qiymat ± standart og'ish ko'rinishida taqdim etildi. Statistik tahlil dasturi, GraphPad Prism yordamida amalga oshirildi. Guruhlarni taqqoslash uchun statistik mezon, Student T – kriteriyasi ishlatildi. Farqlar p<0,05 da statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili: AK modeli: (Modda, masalan, beta-amiloid 1-42) dan foydalanish hayvonlarda AK modelini chaqirish uchun keng tarqalgan usuldir, chunki u AKda kuzatilgan asosiy patologik jarayonlarni taqlid qiladi. NH₃ ni aniqlash [23] orqali aniqlandi. Fermentativ usul biologik namunalarda NH₃ darajasini aniqlash uchun yuqori sezgir va o'ziga xos usuldir. Statistik tahlil: Student t – kriteriyasi ikki guruhni taqqoslash uchun mos usuldir.

1-jadval.

Ekspereimental Alsegeymer modeli hayvonlar qonidagi NH₃ (ammiak) miqdori (mmol/l).

Intakt	Alsgeymer	Alsgeymer +Kv	Alsgeymer + X-2 (1:5)	Alsgeymer + X-2 (1:9)
68,4±3,28	109,60±5,21	100,3±3,59*	92,7±5,48**	95,5±4,07**

Izoh: *-p<0.05; **-p<0.01. nazorat guruhiga nisbatan ishonchlilik darajasi.

Ushbu tadqiqotda olingan natijalar AK modelidagi hayvonlar qonida NH₃ miqdori oshganini ko'rsatdi. Bu natijalar zamonaviy adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan mos keladi va NH₃ AK patogenezida muhim rol o'ynashi mumkinligini tasdiqlaydi. Biz tadqiqotimizda AK modelidagi hayvonlar bosh miyasining gippokamp qismida NH₃ miqdori o'rgandik. Tadqiqot 56 ta hayvonda o'tkazildi va ularning gippokampidagi NH₃ miqdori o'lchandi. Olingan natijalar zamonaviy adabiyotlar bilan solishtirildi. Gippokampdagi NH₃ va neyrotoksiklik: Gippokamp NH₃ ning neyrotoksik ta'siriga ayniqsa zaifdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gippokampda NH₃ miqdorining oshishi sinaptik plastiklikni buzadi va neyronlarning o'limiga olib keladi [19-20]. NH₃ va kognitiv buzilishlar: Klinik tadqiqotlar NH₃ miqdorining oshishi kognitiv buzilishlar, ayniqsa xotira va fazoviy orientatsiya buzilishlari bilan bog'liqligini ko'rsatdi, bu funksiyalar gippokamp bilan chambarchas bog'liqdir [17]. NH₃ ni kamaytirish strategiyalari: NH₃ miqdorini kamaytirishga qaratilgan terapevtik yondashuvlar, masalan, laktuloza va rifaksimn kabi dorilarni qo'llash AKdagi kognitiv buzilishlarni yumshatish uchun o'rganilmoqda. [18]. Eksperiment modeli tayyor bo'lgandan keyin hayvonlar [anesteziya usuli] bilan anesteziya qilindi. Bosh miya olib tashlandi va gippokamp qismi ajratib olindi. Gippokamp namunalari saqlash usuli, -4°C da saqlandi. Gippokamp namunalari gomogenizatsiya usuli yordamida gomogenizatsiya qilindi. NH₃ darajasi aniqlash usuli, fermentativ kolorimetrik usul yordamida aniqlandi. O'lchovlar spektrofotometrda aniqlandi. Olingan

ma'lumotlar statistik tahlil dasturi, GraphPad Prism yordamida tahlil qilindi. Guruxlar o'rtasidagi farqlar [statistik mezon, Student t – testi] yordamida aniqlandi. $p < 0,05$ qiymati statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi.

2-jadval.

Eksperimental Alsegeymer modeli hayvonlar bosh miyasining gippokamp qismida NH_3 (ammiyak) miqdori mkmol/l.

Intakt	Alsegeymer	Alsegeymer +KV	Alsegeymer + X-2 (1:5)	Alsegeymer + X-2 (1:9)
22,5±1,02	39,11±0,88	31,52±1,18**	33,60±1,09***	35,82±1,08**

Izoh: *- $p < 0,05$; **- $p < 0,01$. nazorat guruhiga nisbatan ishonchlilik darajasi.

Ushbu tadqiqotda AK modeli hayvonlar bosh miyasining gippokamp qismida NH_3 miqdori oshganligi aniqlandi. Ushbu natijalar zamonaviy adabiyotlar ma'lumotlari bilan mos keladi va AK patogenezida NH_3 ning mumkin bo'lgan rolini tasdiqlaydi. Olib borilgan ushbu tadqiqotda AK modelidagi hayvonlar bosh miyasining korteks qismida NH_3 miqdori o'rganildi. Tadqiqot 67 ta hayvonda o'tkazildi va ularning korteksidagi NH_3 miqdori o'lgandi. Olingan natijalar zamonaviy adabiyotlar bilan solishtirildi. Korteksdagi NH_3 va neyrotoksiklik: Bosh miya korteksi yuqori kognitiv funksiyalarda muhim rol o'ynaydi va NH_3 ning neyrotoksik ta'siriga ayniqsa zaifdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korteksdagi NH_3 miqdorining oshishi sinaptik uzatishni buzadi va neyronlarning o'limiga olib keladi [21, 22]. Tadqiqotlar korteksdagi NH_3 beta – amiloid to'planishini kuchaytirishi va tau oqsilining giperfosforillanishiga olib kelishi mumkinligini aniqladi, bu esa AKning asosiy patologik belgilaridan biridir Klinik tadqiqotlar NH_3 miqdorining oshishi kognitiv buzilishlar, ayniqsa ijro etuvchi funksiyalar va diqqat buzilishlari bilan bog'liqligini ko'rsatdi, bu funksiyalar bosh miya korteksi bilan chambarchas bog'liqdir. NH_3 miqdorini kamaytirishga qaratilgan terapevtik yondashuvlar, masalan, laktuloza va rifaksiminn kabi dorilarni qo'llash AKdagi kognitiv buzilishlarni yumshatish uchun o'rganilmoqda [18].

Korteks namunalari olish: Model chaqirilgandan keyin 3 hafta o'tgach, hayvonlar anesteziya usuli, droperidol bilan anesteziya qilindi. Bosh miya tezda olib tashlandi va korteksning, frontal korteks qismi ajratib olindi. Korteks namunalari suyuq azotda tez muzlatish usulida saqlash orqali saqlandi. Korteks namunalari gomogenizatsiya buferi va usuli, tris-HCl buferida ultratovushli gomogenizatsiya yordamida gomogenizatsiya qilindi. Ammiak darajasi, fermentativ kolorimetrik to'plam yordamida aniqlandi. O'lchovlar spektrofotometri yordamida amalga oshirildi. Har bir namunadagi oqsil miqdori Bradford oqsil tahlili yordamida aniqlandi va natijalar oqsil miqdoriga normallashtirildi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi. Guruxlar o'rtasidagi farqlar Mann – Whitney U testi yordamida aniqlandi. $p < 0,05$ qiymati statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi.

3-jadval.

Eksperimental Alsegeymer modeli hayvonlar bosh miyasining korteks qismida NH_3 miqdori (mkmol/l)

Intakt	Alsegeymer	Alsegeymer +KV	Alsegeymer + X-2 (1:5)	Alsegeymer + X-2 (1:9)
20,1±0,90	36,51±0,95	29,95±0,98	32,76±1,01	30,08±0,87

Izoh: *- $p < 0,05$; **- $p < 0,01$. nazorat guruhiga nisbatan ishonchlilik darajasi.

Ushbu tadqiqotda AK modeli hayvonlar bosh miyasining korteks qismida NH_3 miqdori oshganligi aniqlandi. Ushbu natijalar zamonaviy adabiyotlar ma'lumotlari bilan mos keladi va AK patogenezida NH_3 ning mumkin bo'lgan rolini tasdiqlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot AK modelidagi hayvonlar qonida NH_3 miqdori oshganini ko'rsatdi. Ushbu natijalar NH_3 AK patogenezida ishtirok etishi mumkinligini ko'rsatadi. Bundan tashqari o'rganilgana tadqiqotda AK modeli hayvonlar bosh miyasining gippokamp qismida NH_3 miqdori oshganligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar AK patogenezida NH_3 ning mumkin bo'lgan rolini ko'rsatadi. NH_3 miqdorini kamaytirishga qaratilgan keyingi tadqiqotlar AKni davolash uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin. Kelgusida NH_3 ni kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar AKni davolash uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin. Ushbu tadqiqot AK modeli hayvonlar bosh miyasining korteks qismida NH_3 miqdori oshganligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar AK patogenezida NH_3 ning mumkin bo'lgan rolini ko'rsatadi. NH_3 miqdorini kamaytirishga qaratilgan keyingi tadqiqotlar AKni davolash uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Nelson D.L. Cox M.M. Lehninger principles of biochemistry. 7th Edition. United States: W.H. Freeman and Co; 2017.
- Brossier D., Goyer I., Ziani L., Marquis C., Mitchell G., Ozanne B., Jouvett P. Influence of implementing a protocol for an intravenously administered ammonia scavenger on the management of acute hyperammonemia in a pediatric intensive care unit. J Inherit Metab Dis 2019; 42(1): 77–85, <https://doi.org/10.1002/jimd.12029>.
- Häberle J. Clinical and biochemical aspects of primary and secondary hyperammonemic disorders. Arch Biochem Biophys 2013; 536(2): 101–108, <https://doi.org/10.1016/j.abb.2013.04.009>.
Ведущий специалист Министерства высшего образования, науки и инновации РУз
Салихжан МАУЛЯНОВ,
Доцент Национального университета Узбекистана

По рецензии д.х.н., профессора Б.Бабаева

ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА, СТРУКТУРА И КОМПЛЕКСООБРАЗОВАНИЕ ПЕКТИНОВЫХ ВЕЩЕСТВ С МЕТАЛЛАМИ

Аннотация

В данной работе исследованы физико-химические свойства пектиновых веществ (ПВ) и их комплексов с калием и магнием (ПВ-К, ПВ-Mg, ПВ-К-Mg). Проведен структурный и составной анализ с использованием инфракрасной (ИК) спектроскопии с Фурье-преобразованием (Фурье-ИК), ядерного магнитного резонанса (ЯМР), элементного анализа, сканирующей электронной микроскопии (СЭМ), газовой (ГХ) и высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ). Определены степень этерификации, молекулярная масса и вязкость растворов.

Ключевые слова: пектин, пектиновые вещества, калиевые и магниевые комплексы, молекулярная масса, спектроскопия, газовый и высокоэффективная жидкостная хроматография.

PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES, STRUCTURE AND COMPLEX FORMATION OF PECTIN SUBSTANCES WITH METALS

Annotation

This study investigates the physicochemical properties of pectic substances (PS) and their complexes with potassium and magnesium (PS-K, PS-Mg, PS-K-Mg). Structural and compositional analysis was carried out using Fourier-transform infrared (FTIR) spectroscopy, nuclear magnetic resonance (NMR), elemental analysis, scanning electron microscopy (SEM), gas chromatography (GC), and high-performance liquid chromatography (HPLC). The degree of esterification, molecular weight, and solution viscosity were determined.

Key words: pectin, pectic substances, potassium and magnesium complexes, molecular weight, spectroscopy, gas and high-performance liquid chromatography.

PEKTIN MODDALARNING METALLAR BILAN KOMPLEKS HOSIL QILISHI, FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI VA TUZILISHI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda pektin moddalari (PM) va ularning kaliy hamda magniy bilan hosil qilgan komplekslari (PM-K, PM-Mg, PM-K-Mg) ning fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi. Tuzilishi va tarkibi Fourier-transform infraqizil (FTIR) spektroskopiya, yadro magnit rezonansi (NMR), elementar tahlil, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), gaz xromatografiyasi (GC) va yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) yordamida tahlil qilindi. Esterifikatsiya darajasi, molekulyar massa va eritmalar yopishqoligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: pektin, pektin moddalar, kaliyli va magniyli komplekslar, molekulyar massa, spektroskopiya, gazli va yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi.

Пектины – это сложные полисахариды растительного происхождения [1-2], обладающие высокой биологической активностью и способностью к комплексообразованию с катионами металлов. Их структура и функциональные свойства зависят от степени этерификации, молекулярной массы и взаимодействия с различными элементами. Изучение этих параметров имеет важное значение для расширения областей применения пектинов в таких отраслях, как пищевая промышленность, фармацевтика и биотехнологии [3-5].

Способность пектинов взаимодействовать с ионами металлов существенно влияет на их функциональные характеристики, включая растворимость, способность к гелеобразованию и устойчивость в различных средах. Катионы калия (K^+) и магния (Mg^{2+}) играют ключевую роль в модификации физико-химических свойств пектинов, что открывает перспективы их применения в биомедицине и пищевых технологиях. Настоящее исследование направлено на изучение структурных изменений и комплексообразования пектинов с этими металлами с применением современных методов анализа.

Современные исследования показывают, что пектины обладают высокой аффинностью к ионам металлов благодаря наличию в их структуре карбоксильных и гидроксильных групп. Исследование Cohen et al. [6]

продемонстрировало, что катионы металлов изменяют пространственную организацию пектиновых цепей, влияя на их растворимость и вязкость. Работа Perkin-Elmer Inc. [7] подтвердила значительные сдвиги в ИК-спектрах пектинов при их взаимодействии с калием и магнием, что свидетельствует о формировании координационных связей.

По данным Agilent Technologies [8], металлосодержащие комплексы пектинов характеризуются сниженной молекулярной массой, что сказывается на их реологических свойствах. Другие исследования [9-10] подчеркивают практическое применение пектин-металлокомплексов в стабилизации пищевых продуктов и очистке сточных вод. Эти данные подчеркивают важность дальнейшего изучения взаимодействий пектинов с металлами для расширения их функционального потенциала.

В качестве исследуемого материала использовали очищенные пектины растительного происхождения. Комплексы пектинов металлами K, Mg (ПВ-K, ПВ-Mg, ПВ-K-Mg) получали путем инкубации пектинов в растворах KCl и $MgCl_2$ при контролируемом pH.

Экспериментальная часть: Для получения калия, используемого в синтезе калиевой соли пектина, готовили насыщенный раствор K_2CO_3 и его фильтровали. Затем раствор выпаривали до уменьшения его объема. После охлаждения до комнатной температуры в системе образуются кристаллы соли, которые фильтровали и высушивали при комнатной температуре.

Получение калиевой соли пектина

Точно взвешенный пектин, взятый на аналитических весах, тщательно растворяли в дистиллированной воде. Затем в раствор добавляли NaOH, после полного растворения щелочи в раствор вводили CH_3COOH и тщательно перемешивали смесь. К полученному гомогенному раствору добавляли предварительно растворенный в дистиллированной воде K_2CO_3 , после чего смесь нагревали на водяной бане в течение 15-20 минут. Затем раствор оставляли при комнатной температуре и помещали в холодильник на 12-14 часов для осаждения кристаллов соли. Образовавшийся осадок отделяли путем фильтрации, после чего промывали последовательно 80%-ным и 96%-ным этиловым спиртом. Полученную соль высушивали в термостате при температуре около 60°C.

Получение калийной соли цитрусового пектина

В колбу объемом 2 л вносили 3 г цитрусового пектина, увлажняли его этиловым спиртом, затем добавляли 300 мл дистиллированной воды и перемешивали на мешалке до получения гомогенного раствора. К 1% раствору пектина добавляли 0,5 г 10% NaOH и продолжали перемешивание в течение 30 минут. Далее pH среды доводили до 4–5 с помощью уксусной кислоты, после чего добавляли 1 г 10% раствора KI и нагревали смесь до 60–70 °C в течение 30–40 минут, затем охлаждали. Образовавшийся осадок фильтровали и высушивали в этиловом спирте. Выход продукта составлял 83%.

Получение магниевой соли цитрусового пектина

В колбу объемом 2 л добавляли цитрусовый пектин, увлажняли его этиловым спиртом, затем заливали дистиллированной водой и перемешивали на мешалке до получения гомогенного раствора. К 1% раствору пектина добавляли 10% NaOH и продолжали перемешивание в течение 30 минут. Затем pH среды доводили до 4–5 с помощью уксусной кислоты, после чего добавляли 10% раствор сульфата магния и нагревали смесь до 60–70 °C в течение 30–40 минут, затем охлаждали. Образовавшийся осадок фильтровали и высушивали в этиловом спирте. Выход продукта составлял 80%.

Получение калий-магниевой соли цитрусового пектина

В колбу объемом 2 л добавляли 3 г цитрусового пектина, увлажняли его этиловым спиртом, затем заливали 300 мл дистиллированной воды и перемешивали на мешалке до получения гомогенного раствора. К 1% раствору пектина добавляли 0,5 г 10% NaOH и продолжали перемешивание в течение 30 минут. Затем pH среды доводили до 4–5 с помощью уксусной кислоты, после чего добавляли 1,5 г 10% раствора калимагнезии и нагревали смесь до 60–70 °C в течение 30–40 минут, затем охлаждали. Образовавшийся осадок фильтровали и высушивали в этиловом спирте. Выход продукта составлял 81%.

Анализ полученных веществ. Степень этерификации пектиновых веществ устанавливали титриметрическим методом. Содержание урсонных кислот определяли с помощью фотоэлектроколориметрии, используя цветную реакцию с карбазолом.

Газохроматографический анализ гидролизатов выполняли с использованием хроматографа GC Plus 2010. Экспериментальные параметры включали: температуру инжектора 250°C, общий поток газа 60 мл/мин, скорость потока через колонку 0,89 мл/мин. В качестве газа-носителя применяли азот. Используемая колонка - Rxi-624SI MS, длиной 30 см, с толщиной пленки 1,40 мкм и внутренним диаметром 0,25 мм. Температура колонки составляла 230°C, а детектора - 250°C.

ИК-спектры исследуемых образцов регистрировали методом Фурье-спектроскопии на приборе Perkin-Elmer, модель 2000, используя прессованные таблетки на основе KBr.

Газохроматографический анализ с масс-спектрометрическим детектированием (ГХ/МС) метилированных производных проводили с использованием хромато-масс-спектрометра Agilent 5975C inert MSD/7890A GC. Разделение компонентов осуществляли на кварцевой капиллярной колонке Agilent HP-INNOWax (30 м × 250 мкм × 0,25 мкм) при следующем температурном режиме: изотермическая выдержка при 100°C в течение 2 минут, затем нагрев со скоростью 4°C/мин до 220°C (выдержка 5 минут), далее нагрев со скоростью 15°C/мин до 250°C (выдержка 15 минут).

Объем инъецируемого образца составлял 1,0 мкл, скорость потока подвижной фазы (гелий) — 1,1 мл/мин. Температура инжектора поддерживалась на уровне 250°C. Электронно-ионизационные масс-спектры (EI-MS) регистрировали в диапазоне m/z 10–550 а.е.м. Идентификацию компонентов проводили путем сравнения их масс-спектров с данными из электронных библиотек W9N11.L.

Определение молекулярной массы пектиновых соединений осуществляли методом ВЭЖХ (высокоэффективной эксклюзионной жидкостной хроматографии) с использованием дифференциального рефрактометрического детектора. Температуру детектора и колонной системы поддерживали на уровне 25°C.

Элюирование проводили в 0,1 н. водном растворе нитрата натрия со скоростью 0,8 мл/мин. Вводимый объем проб составлял 20 мкл при концентрации 1–4 мг/мл. Разделение осуществляли на колонке PL Aquagel OH Mixed (США) длиной 300 мм и внутренним диаметром 8 мм с применением системы Agilent 1260 Infinity.

Ядерно-магнитный резонанс ^1H и ^{13}C применяли для исследования спектральных характеристик образцов. Спектры регистрировали на спектрометрах Unity plus 400 и 600 при рабочей частоте 100 МГц. В качестве растворителя использовали смесь D_2O и ацетона (100 мг вещества на 3 cm^3), а химические сдвиги определяли относительно ацетона, который служил внутренним стандартом.

Элементный анализ проводили методом масс-спектрометрии с индуктивно-связанной плазмой (ИСП-МС) на приборе Nex ION 2000 (Perkin Elmer). Дополнительно морфологические и структурные особенности изучали с применением сканирующей электронной микроскопии (СЭМ) на электронном микроскопе EVOMA10.

Для получения ацетатов альдонитрилов сухой остаток гидролизата растворяли в 2 мл пиридина, затем вводили 100 мг хлоргидрата гидроксиламина и нагревали реакционную смесь при 90°C в течение 1 часа. После охлаждения добавляли 2 мл уксусного ангидрида и повторно нагревали при 90°C в течение 1 часа. Далее в смесь вводили 30 мл воды, тщательно перемешивали и проводили экстракцию хлороформом в два этапа. Объединенные хлороформные экстракты сушили безводным сульфатом натрия (Na_2SO_4), затем упаривали и анализировали с использованием методов газовой хроматографии (ГХ) и газохромато-масс-спектрометрии (ГХ-МС).

Полный кислотный гидролиз высоковетвистых полисахаридов (ВРПС) осуществляли в 1 н серной кислоте (H_2SO_4), а гидролиз пектиновых веществ (ПВ) и гидроксиметилцеллюлозы (ГМЦ) – в 2 н H_2SO_4 . Реакции проводили при температуре 100°C в течение 6 и 24 часов соответственно. Полученные гидролизаты нейтрализовали карбонатом бария, деионизировали с применением катионита КУ-2 (H^+) затем упаривали до сиропообразного состояния и подвергали хроматографическому анализу.

Для количественного определения свободных карбоксильных групп (Кс) в пектиновых веществах 0,1 г очищенного от белка образца предварительно увлажняли 96% этиловым спиртом, затем растворяли в 100 мл дистиллированной воды. Полученный раствор нагревали до 40°C и выдерживали в течение 2 часов. После этого проводили титрование раствора 0,1 н NaOH до появления устойчивого слабозеленого окрашивания в присутствии фенолфталеина в качестве индикатора.

Количество свободных карбоксильных групп рассчитывали по следующей формуле:

$$K_c = \frac{a}{P} * 0,45 \%$$

Степень этерификации пектиновых веществ рассчитывали, исходя из количества свободных карбоксильных групп. Для этого навеску очищенного от белков образца (0,1 г) предварительно увлажняли 96% этанолом, после чего растворяли в 100 мл дистиллированной воды. Полученный раствор нагревали до 40°C и выдерживали в течение 2 часов. Далее титрование проводили 0,1 н раствором NaOH до появления слабо-розового окрашивания при использовании фенолфталеина в качестве индикатора.

Количество 0,1 н NaOH, израсходованное на титрование-0,4 мл

$$K_c = \frac{a \times 0,45}{P} = \frac{0,4 \times 0,45}{0,1} = 1,8\%$$

Количество метоксилированных карбоксильных групп (Кэ) определяли следующим образом: после проведения титрования для расчета количества свободных карбоксильных групп (Кс) в реакционную смесь добавляли 10 мл 0,1 н раствора гидроксида натрия и выдерживали в течение 2 часов для полного омыления метоксильных групп. Затем в раствор вводили 10 мл 0,1 н соляной кислоты и тщательно перемешивали. Избыточное количество HCl титровали 0,1 н раствором NaOH, используя фенолфталеин в качестве индикатора.

$$K_{\text{э}} = \frac{B}{P} * 0,45\%$$

В- количество 0,1н NaOH, использованного для второго титрования-4,1 мл.

$$K_{\text{э}} = \frac{4,1}{0,1} \times 0,45 = 18,45$$

Общее содержание карбоксильных групп (Ко) рассчитывали как сумму свободных (Кс) и метоксилированных (Кэ) карбоксильных групп. Формула для расчета имеет следующий вид:

$$K_o = K_c + K_{\text{э}} = 1,8 + 18,45 = 20,25\%$$

Степень этерификации (λ) рассчитывали по формуле, выражающей отношение количества этерифицированных карбоксильных групп (Кэ) к общему числу карбоксильных групп (Ко), представленное в процентном соотношении:

$$\lambda = \frac{K_{\text{э}}}{K_o} * 100\% = \frac{18,45}{20,25} * 100 = 91\%$$

Относительная вязкость растворов полисахаридов ($\eta_{\text{отн}}$) определялась как отношение времени истечения раствора полисахарида (t_1) к времени истечения чистого растворителя (t_0):

$$\eta_{\text{отн}} = \frac{t_1}{t_0}$$

Измерения проводили с использованием вискозиметра Оствальда ($d = 0,73$ мм) при температуре 20–22°C. Полисахариды предварительно растворяли в воде или слабых растворах щелочей. Каждое измерение выполняли трижды, после чего рассчитывали среднее значение вязкости, что позволяло получить воспроизводимые и точные результаты.

Анализ метиловых эфиров жирных кислот методом газовой хроматографии проводили на приборе Agilent 6890 N, оснащенный пламенно-ионизационным детектором. Разделение компонентов осуществляли на капиллярной колонке длиной 30 м и внутренним диаметром 0,25 мм, с неподвижной фазой HP-5. В качестве газа-носителя использовали гелий. Температурный режим хроматографирования программировали в диапазоне от 60°C до 270°C. Выделение жирных кислот (ЖК), их последующее превращение в метиловые эфиры для газовой хроматографии (ГХ), а также анализ метиловых эфиров ЖК методами тонкослойной хроматографии (ТСХ) на неполярных и полярных носителях (НЛ и ПЛ) осуществляли по аналогичной методике, описанной в данной работе.

Для проведения колоночной хроматографии полярных липидов (ПЛ) использовали силикагель для колоночной хроматографии производства компании Tianjin Sinomed Pharmaceutical Co. Ltd. (Китай). Хроматографирование осуществляли в колонке диаметром 2 см с высотой слоя сорбента 25 см. В качестве элюента для неполярных липидов (НЛ) применяли хлороформ, а для гликолипидов (ГЛ) – ацетон.

Для анализа ВЭЖХ ФТК-производных аминокислот проводили синтез фенилтиокарбамоильных (ФТК) производных свободных аминокислот по методике, предложенной Steven A. и Cohen Daviel. К 1 мл исследуемого раствора добавляли точно отмеренный объем (1 мл) 20%-ного трихлоруксусной кислоты (ТХУК). Спустя 10 минут образовавшийся осадок отделяли путем центрифугирования при 8000 об/мин в течение 15 минут. После этого надосадочную жидкость аккуратно отделяли и подвергали лиофильному высушиванию.

Для идентификации ФТК-производных аминокислот использовали жидкостный хроматограф Agilent Technologies 1200 с колонкой Discovery HS C18 (75×4,6 мм). В качестве подвижной фазы применяли два раствора: А – 0,14М ацетат натрия с добавлением 0,05% триэтиламина (pH 6,4), В – ацетонитрил. Скорость потока поддерживали на уровне 1,2 мл/мин, детектирование осуществляли при длине волны 269 нм. Градиентное элюирование проводили по следующей схеме: увеличение содержания компонента В от 1% до 6% в интервале 0–2,5 мин; от 6% до 30% в диапазоне 2,51–40 мин; затем повышение до 60% в течение 40,1–45 мин; стабилизация на уровне 60% в интервале 45,1–50 мин и возврат к 0% в промежутке 50,1–55 мин.

Таким образом, проведенные исследования подтвердили, что ионы калия и магния существенно изменяют структурные и физико-химические свойства пектинов. Комплексообразование приводит к уменьшению молекулярной массы и вязкости, что может найти применение в пищевой промышленности, фармацевтике и биомедицине.

ЛИТЕРАТУРА

1. Оводов Ю.С. Современные представления о пектиновых веществах (обзор) // Биоорган. химия, 2009, №3, с.293-310
2. Борисова И. Лекарственные свойства сельскохозяйственных растений // Под ред. М. Минск: Урожай, 1974, с. 336
3. Mohnen D. Pectin structure and biosynthesis // Carbohydrate Research. - 2008. - Vol. 344, No. 14. - P. 1879–1892. Ropartz D., Ralet M.-
4. Донченко Л.В. Технология пектина и пектинопродуктов. - М.: Дели, 2000. - 256 с.
5. Маликова М.Х., Ахмедова Х.Х., Рахманбердиева Р.К., Жауынбасева К.С. Пектиновые вещества *Ferula kuhistanica* и *F. tenuisecta* // Химия природных соединений, 2018, №1, с. 13-15
6. Cohen, S., Daniel, D. (2020). *Pectin Chemistry and Applications*. Springer.
7. Perkin-Elmer Inc. (2021). *Fourier Transform Infrared Spectroscopy*.
8. Agilent Technologies. (2022). *Advanced Chromatography Techniques*.
9. Mohnen, D. (2019). Pectin structure and biosynthesis. *Annual Review of Plant Biology*, 70, 699-736.
10. Willats, W. G., et al. (2020). The role of pectins in cell adhesion and signaling. *Trends in Plant Science*, 25(2), 92-107.



UDK: 547.42.284.312.362.384.398.538.662.

Odiljon ZIYADULLAYEV,

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi birinchi o'rinbosari, kimyo fanlari doktori, professor

E-mail: bulak2000@yandex.ru

Go'zal OTAMUXAMEDOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, kimyo fanlari doktori

Saida ABDURAXMANOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Farrux QO'SHBAQOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'zMU professori, k.f.d. D.Gafurova taqrizi asosida

ENANTIOSELECTIVE ALKYNYLATION OF SOME HETEROCYCLIC KETONES USING THE 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(OⁱPr)₄/Et₂Zn CATALYTIC SYSTEM

Annotation

A method of synthesizing acetylene alcohols based on acetylene and ketones containing heterocyclic substituents was developed using the catalytic system of 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(OⁱPr)₄/Et₂Zn in this work. Based on the influence of the nature of the radicals in the molecule of ketones on the yield of the product, the series of production of acetylene alcohols has been determined. The most alternative conditions for the used complex catalytic system were found and reaction mechanisms were proposed. The structure, purity and composition of the synthesized compounds have been proven using modern physico-chemical research methods.

Key words: Acetylene, heterocyclic ketones, terminal acetylene alcohols, nucleophilic coupling, catalytic system, reaction mechanism, product yield.

ЭНАНТИОСЕЛЕКТИВНОЕ АЛКИНИЛИРОВАНИЕ НЕКОТОРЫХ ГЕТЕРОЦИКЛИЧЕСКИХ КЕТОНОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КАТАЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(OⁱPr)₄/Et₂Zn

Аннотация

В данной работе разработан метод синтеза ацетиленовых спиртов на основе ацетилена и кетонов, содержащих гетероциклические заместители, с использованием каталитической системы 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(OⁱPr)₄/Et₂Zn. На основании влияния природы радикалов в молекуле кетона на выход продукта определен ряд получения ацетиленовых спиртов. Найден наиболее альтернативные условия и предложены механизмы реакции для используемой комплексной каталитической системы. Строение, чистота и состав синтезированных соединений доказаны современными физико-химическими методами исследования.

Ключевые слова: Ацетилен, гетероциклические кетоны, терминальные ацетиленовые спирты, нуклеофильное присоединение, каталитической системы, механизм реакции, выход продукта.

AYRIM GEТЕРОЦИКЛИК KETONLARNI 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(OⁱPr)₄/Et₂Zn KATALITIK SISTEMASI YORDAMIDA ENANTIOSELEKTIV ALKINILLASH

Annotatsiya

Ushbu ishda 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(OⁱPr)₄/Et₂Zn katalitik sistemasi yordamida atsetilen va molekulasida geterotsiklik o'rinbosarlar saqlagan ketonlar asosida atsetilen spirtlari sintez qilish usuli ishlab chiqilgan. Ketonlar molekulasidagi radikallar tabiatining mahsulot unumiga ta'siri asosida atsetilen spirtlarining hosil bo'lish samadorlik qatori aniqlangan. Qo'llanilgan kompleks katalitik sistema uchun eng muqobil sharoit topilgan va reaksiya mexanizmlari taklif etilgan. Sintez qilingan birikmalarning tuzilishi, tozaligi va tarkibi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida isbotlangan.

Kalit so'zlar: Atsetilen, geterotsiklik ketonlar, terminal atsetilen spirtlari, nukleofil birikish, katalitik sistema, reaksiya mexanizmi, mahsulot unumi.

Kirish. Bugungi kunda jahonda atsetilen uglevodorodlari asosida organik moddalar sintez qilishda yangi katalitik sistemalarni qo'llash natijasida sanoatning turli sohalar uchun zarur bo'lgan kimyoviy preparatlarni ishlab chiqarish yildan yilga ortib bormoqda [1-4]. Mamlakatimizda jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan, sifatli va biologik faolligi yuqori bo'lgan yangi turdagi kimyoviy moddalar (mahsulotlar) sintez qilishda mahalliy xom-ashyo va chiqindilardan keng foydalanish, mahalliyashtirish dasturlari orqali ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, import o'rnini bosuvchi milliy materiallarni ishlab chiqarishni joriy etish, ularning maqsadli va samarali qo'llanilish sohalarini aniqlash ustida keng doirada ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahonda dunyo olimlari tomonidan turli xil kompleks katalitik sistemalar yordamida molekulasida karbonil guruhi saqlagan organik moddalar bilan atsetilen va uning gomologlari o'zaro nukleofil birikish reaksiyasi asosida biologik faol atsetilen spirtlari sintez qilinmoqda [6-7]. Tabiati turlicha bo'lgan alifatik, siklik va aromatik aldegidlarni Lyu'is kislotasi Zn(ODf)₂, trietilamin va faolligi yuqori bo'lgan aminospirti (1S,2S)-3-(uchlamchibutildimetilsilliloksi)2-N-N-


dimetilamino-1-(para-nitrofenil)propanol-1 asosida tayyorlangan katalitik sistemaning toluol yoki tetragidrofuranidagi eritmasi ishtirokida 25 °C haroratda, 12 soat davomida juda yumshoq sharoitda alkinillash reaksiyalar bo'yicha atsetilen spirtlari sintez qilingan [8]. Siklik, geterotsiklik va aromatik aldegidlarni triftoformilsulfonat, rux bromid va trietilamindan tayyorlangan katalitik komponentlarning dietilefir, dixlormetan, tetragidrofuran, atsetonitril yoki toluoldagi eritmaları yordamida fenilatsetilen bilan reaksiyalari o'rganilgan. [9-11]. Ilk bor katalizator sifatida fosfin asosidagi ligandlar va mis tuzlaridan tayyorlangan katalitik sistemalarda tetragidrofuran eritmasida propargil borolonlarning benzaldegid va uning hosilalari bilan nukleofil birikish reaksiyalari asosida atsetilen spirtlari 90% dan yuqori unum bilan sintez qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra tanlangan ligandlar orasida selektivligi quyidagi qator (+)-*i*-Pr-DUPHOS < (R,R) NORPHOS < (S)-BINAP < (+)-DUANPHOS < BIBOP bo'yicha ortib borishi isbotlangan. XANTPOS ligand sifatida foydalanilganda esa jarayon bormagan va kutilgan mahsulot sintez qilinmagan [12-14].

Tadqiqot metodologiyasi. Reaksiya qaytarma sovuqkich, tomizgich voronka, termometr, aralashtirgich bilan jihozlangan shaffof shishali, hajmi 2000 ml bo'lgan to'rt og'izli reaktorda o'rnatilgan sistemada amalga oshiriladi. Dastlab xona haroratida 3,3'-difenilbinaftolat dilitiy (3,3'-Ph₂BINOL-2Li) (127 mg, 0,2 mmol)ning 1 ml tetragidrofuran (TGF) dagi eritmasiga titan tetraizopropiloksid (Ti(OⁱPr)₄) (426 ml, 1,5 mmol) qo'shiladi va 15 minut davomida aralashtirgich yordamida katalitik sistema tayyorlanadi. Reaktorga atsetilen va dietilruxning (Et₂Zn (2 M)) toluol (PhMe) dagi eritmasi 15 minut davomida ohistalik bilan qo'shib, -10 °C haroratda to'xtovsiz bir maromda aralashtiriladi. Reaktorga tomizgichli voronka yordamida metilfurilketon (110 mg, 1 mmol) -10 °C haroratda 15 minut davomida uzluksiz ravishda aralashtirib turgan holatda qo'shiladi. Reaktordagi harorat suyuq azot yordamida nazorat qilinadi, substrat, reagent, katalizator va erituvchidan iborat komponentlar reaktorga to'liq berilgandan so'ng aralashma davriy ravishda -10 °C haroratda bir maromda 90 minut davomida aralashtirib turiladi. So'ng organik va anorganik qatlam suv bilan gidroliz (3×100 ml) qilinadi va organik qatlam ajratib olinadi, suvli qatlim etilatsetat (2×5 ml) bilan 3 marta ekstraksiya qilinadi. Organik qatlam Na₂SO₄ bilan quritiladi. Erituvchi TGF oddiy sharoitda haydab olinadi va qolgan mahsulotni silikagel 60 kolonkali xromatografiyada 20% li etilatsetat-geksan elyuent bilan tozalandi. Natijada 80% unum bilan 2-(furanil-2)butin-3-ol-2 sintezi (**1**) (163 mg, R_f (etilatsetat-metanol-benzol 2:1:3) = 0,54) amalga oshirildi [15].


Ushbu usul bo'yicha geterotsiklik ketonlar- metiltiyenilketon, metilpiridinilketon va metil-2-xlortiyenilketonlarning atsetilen ishtirokida enantiosektiv alkinillash reaksiyalari olib borildi va mos ravishdagi terminal atsetilen spirtlari jumladan, 169 mg 2-(tiofenil-2)butin-3-ol-2 (**2**), R_f (etilatsetat-metanol-benzol 2:1:3) = 0,51 (mahsulot unumi 74%); 174 mg 2-(piridinil-4)butin-3-ol-2 (**3**), R_f (etilatsetat-metanol-benzol 2:1:3) = 0,53 (mahsulot unumi 79%), 198 mg 2-(5-xlortiofenil-2)butin-3-ol-2 (**4**), R_f (etilatsetat-metanol-benzol 2:1:3) = 0,49 (mahsulot unumi 71%) sintez qilindi.

Tahlil va natijalar. Ushbu ishda ilk bor 3,3'-difenilbinaftolat dilitiy, titan tetraizopropiloksid va dietilrux asosida tayyorlangan katalitik sistemada molekulasida geterotsiklik o'rinsosarlar saqlagan metilfuranilketon, metiltiofenilketon, metilpiridinilketon va metil-2-xlortiofenilketonlarning atsetilen yordamida etinillash reaksiyalari natijasida mos ravishdagi terminal atsetilen spirtlari (1-4) sintezi amalga oshirildi [16].

Adabiyot manbalari asosida tanlangan ketonlarni atsetilen ishtirokida alkinillash reaksiyasi umumiy sxemasi quyidagicha taklif qilindi [17]:



Reaksiya mexanizmi: Jarayonda dastlab tetragidrofuran eritmasida yuqori termik chidamli katalizator -Ti(OⁱPr)₄ va uning faolligini kuchaytiruvchi komponent- 3,3'-Ph₂BINOL-2Li ta'sirlashib uzoq vaqt faolligini saqlab turuvchi, stabil katalitik komponentni hosil qilinadi. Bunda Ti(OⁱPr)₄ tarkibidagi 2 molekula izopropiloksid radikali 3,3'-Ph₂-BINOL-2Li molekulasi tarkibidagi 2 molekula litiy atomi bilan tasirlashib, 2 molekula litiy izopropiloksidni hamda 3,3'-Ph₂BINOL va Ti(OⁱPr)₂ dan iborat katalitik faol kompleks sistemani hosil qiladi. Dietilrux ta'sirida dastlab atsetilen molekulasida π-kompleks hosil bo'ladi, tetragidrofuran dietilrux molekulasi karbkationni solvatlab, etil karbanioni atsetilenning sp gibridlangan uglerod va harakatchan vodorod bilan hosil qilgan σ bog'ning oson uzilishiga natijada sistemada etan hosil bo'lishiga zamin yaratadi. Rux etilat kabkationi deprotonlangan atsetilen anioni bilan ta'sirlashib atsetilenidni hosil qiladi va 3,3'-Ph₂BINOL va Ti(OⁱPr)₂ dan iborat kompleks tuz molekulasi ta'sirida tanlangan elektofil substrat- keton molekulasidagi elektron zichligi tanqis bo'lgan karbonil guruhi uglerodiga nukleofil hujum qilib murakkab modifikatsiyali komponentni hosil qiladi. Bunda kompleks tarkibidagi ruxning elektron zichligi, elektromanfiyligi yuqori bo'lgan kislorod tomonga siljigani sababli, sistemada nukleofil reagent (atsetilen anioni) miqdorini oshiradi. Natijada reaksiyaning borishi tezlashadi. Oxirgi bosqichda substrat tarkibidagi karbonil guruhining π bog'i uzilib, sp² gibridlangan uglerod sp³ gibridlanishga o'tadi va yangi C-C bog' hosil bo'lishi hisobiga dastlab oraliq faol birikma atsetilen spirtining ruxetilli alkogolyati, so'ngra gidrolizlanish natijasida mos ravishdagi atsetilen spirti hosil bo'ladi. Bunda oraliq komponent miqdori qancha ko'p miqdorda hosil bo'lishi, mahsulot hosil bo'lish samaradorligining shuncha ortishiga xizmat qilishi aniqlandi.



Tadqiqot davomida atsetilen spirtlari unumiga va jarayon selektivligiga ta'sir qiluvchi katalizator, reagent va substratlarning tabiati va miqdori, harorat va reaksiya davomiyligi ta'siri tizimli ravishda tadqiq qilindi. Olingan natijalar asosida 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(O'Pr)₄/Et₂Zn katalitik sistemasida atsetilen spirtlari sintez qilish reaksiyalarining eng muqobil sharoiti topildi. Unga ko'ra atsetilenning geterotsiklik ketonlar bilan nukleofil birikish reaksiyalari TGF eritmasida, 120 minut davomida, -10 °C haroratda, boshlang'ich moddalar (atsetilen:keton) 1,5:1 mol nisbatda hamda 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(O'Pr)₄/Et₂Zn komponentlari mol miqdorlari 0,2:1,5:1,2 mol nisbatda olib borilganda atsetilen spirtlari unumi eng yuqori chiqishi aniqlandi.

Sintez qilingan atsetilen spirtlarining tuzilishi ¹H-YAMR va ¹³C-YAMR spektroskopiya usullarida tahlil qilindi:

1– ¹H YaMR: δ 7.34-7.33 (m, 1H, 5'-H), 6.37-6.35 (m, 1H, 3'-H), 6.28-6.27 (m, 1H, 4'-H), 3.54 (s, 1H, OH), 2.58 (s, 1H, 4-H), 1.80 (m, 3H, CH₃). ¹³C YaMR: δ 157.3, 142.5, 110.5, 106.0, 85.5, 72.3, 64.7, 28.8.

2– ¹H YaMR: δ 7.15-7.14 (m, 1H, 5'-H), 6.96-6.95 (m, 1H, 4'-H), 6.76-6.75 (m, 1H, 3'-H), 2.33 (s, 1H, OH), 2.27 (s, 1H, 4-H), 1.86 (m, 3H, CH₃). ¹³C YaMR: δ 150.0, 126.7, 125.2, 124.2, 86.7, 72.6, 67.1, 33.2.

3– ¹H YaMR: δ 8.54 (d, 2H, 2'-H, 6'-H), 7.57 (d, 2H, 3'-H, 5'-H), 5.45 (s, 1H, OH), 3.14 (s, 1H, 4-H), 1.69 (s, 3H, CH₃). ¹³C YaMR: δ 155.4, 150.1, 120.5, 88.0, 75.4, 67.7, 33.3.

4– ¹H YaMR: δ 6.87 (dd, 1H, CH), 6.67 (dd, 1H, CH), 5.95 (dd, 1H, CH), 3.57 (s, 1H, C≡CH), 2.17 (s, 1H, OH). ¹³C YaMR: δ 146.9, 130.4, 128.2, 124.5, 83.6, 74.9, 68.7.

Atsetilen spirtlarining tarkibi element analiz usullarida isbotlandi, ularning fizik kattaliklari turli xil zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida aniqlandi, kinetik o'zgarishlari, molekularining fazoviy tuzilishi, molekullarda zaryadlar va elektron zichlikning taqsimlanishi hamda kvant-kimyoviy ko'rsatkichlari zamonaviy dasturlar asosida hisoblandi.

1-Jadval

Sintez qilingan atsetilen spirtlarining ayrim fizik kattaliklari

№	Brutto formulasi	Molekular massasi, g/mol	T _{qayn} , °C	n _D ²⁰	d ₄ ²⁰ g/sm ³	Agregat holati
1	C ₈ H ₈ O ₂	136	215	1,516	1,132	suyuq
2	C ₈ H ₈ OS	152	234	1,583	1,199	suyuq
3	C ₈ H ₈ NO	147	265	1,558	1,126	suyuq
4	C ₈ H ₇ ClOS	186	286	1,596	1,344	suyuq

Suningdek, atsetilen spirtlarining kvant-kimyoviy hisoblashlari HyperChem Activation 7,0 paketi STAT dasturi yordamida aniqlandi. Olingan natijalardan atsetilen spirtlarining kimyoviy xossalari o'rganishda yo'naltiruvchi sifatida foydalanildi.

2-Jadval

Sintez qilingan atsetilen spirtlarining kvant-kimyoviy hisoblashlari

№	Hosil bo'lish issiqlik energiyasi, kkal/mol	Van-der-Vaals energiyasi, kkal/mol	Kulon energiyasi, kkal/mol	Torsion energiyasi, kkal/mol	Valent burchak energiyasi, kkal/mol	Bog' energiyasi, kkal/mol
1	11,0893	0,4461	0,7599	-19854	0,2091	11,6597
2	13,5730	0,0221	2,7430	4,9892	0,4111	5,4077
3	9,2156	6,6156	0,3392	0,8443	0,5073	0,9092
4	9,8259	-0,3239	-0,5341	5,3850	0,0890	5,2100

Xulosa va takliflar. Ilk bor 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(O'Pr)₄/Et₂Zn katalitik sistemada geterotsiklik ketonlarni atsetilen bilan boradigan nukleofil birikish reaksiyasi asosida terminal atsetilen spirtlari sintez qilish usuli ishlab chiqildi, jarayon uchun muqobil sharoit topildi, reaksiya mexanizmi taklif etildi hamda olingan mahsulotlar identifikatsiyalandi.

Reaksiya tezligiga katalizator, erituvchilar va boshlang'ich moddalar miqdori va tabiatining ta'sir etish prinsiplari aniqlandi, reaksiyalar faollanish energiyalari hisoblandi, atsetilen spirtlarini olishning nisbiy samaradorlik qatori ishlab chiqildi. Unga ko'ra metil-2-xlortiofenilketon < metiltiofenilketon < metilpiridinilketon bo'yicha etinillash reaksiyasini samaradorligi oshib borishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

- Gabriele Centi, Gaetano Iaquaniello. Perathoner Chemical engineering role in the use of renewable energy and alternative carbon sources in chemical production // BMC Chemical Engineering, 2019. Volume 5, pp. 202-216.
- Baozhao Lu, Ruifeng Zhang, Congdi Chen, Liming Jin, Jiaqi Xu. Research on promoting the asymmetric reaction of phenylacetylene with aldehydes by chloramphenicol base ligands // Chirality, 2024. Volume 36, Issue 2, e23631.
- Hairui Yuan, Qi Chjou, Jianbo Vang. Transition metal-catalyzed alkynylation reactions via alkynyl carbon-carbon bond cleavage // Organic Chemistry Frontiers, 2023. Volume 10, Issue 8, pp. 2081-2094.
- Horino, Y., Murakami, M., Ishibashi, M., Lee, J.H. Trialkylborane-Mediated Propargylation of Aldehydes Using γ-Stannylated Propargyl Acetates // Organic Letters, 2019. Volume 21, Issue 23, pp. 9564–9568.
- Ibraximov Xamdamjon Saliyyevich. O'zbekistonda sanoat mahsulotlari eksportini diversifikatsiyalash imkoniyatlari / "Iqtisodiyotning ijtimoiy sektorini rivojlantirishning dolzarb masalalari: milliy va horijiy tajriba" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Andijon, 2020. 109-114 b.
- Aboniya R. Insuastu D., Laali K.K. Recent Advances in the Synthesis of Propargyl Derivatives, and Their Application as Synthetic Intermediates and Building Blocks // Molekules, 2023. Volume 28, Issue 8, pp. 3379.

7. Yuan H., Chjou Q. Transition metal-catalyzed-alkynylation reaction via alkynyl carbon-carbon bond cleavage // *Organic Chemistry Frontiers*, 2023. Volume 10, Issue 8, pp. 2081-2094.
8. Zili Chen, Wennan Xiong and Biao Jiang Zn(ODf)₂: Preparation and Application in Asymmetric Alkynylation of Aldehydes // *Chemical Communication*, 2002. Volume 21, Issue 18, pp. 2098-2099.
9. Wade Downey, Brian D. Mahoney. Trimethylsilyl Trifluoromethanesulfonate Accelerated Addition of Catalytically Generated Zinc Acetylides to Aldehydes // *Journal of Organic Chemistry*, 2009. Volume 74, pp. 2904-2906.
10. Wade Downey, Miles W. Johnson, Daniel H. Lawrence. Acetic Acid Aldol Reactions in the Presence of Trimethylsilyl Trifluoromethanesulfonate // *Journal of Organic Chemistry*, 2010. Volume 75, pp. 5351-5354.
11. Wade Downey, Christopher D. Alissa Nizinski. Friedel-Crafts Hydroxyalkylation of Indoles Mediated by Trimethylsilyl Trifluoromethanesulfonate // *Journal of Organic Chemistry*, 2015. Volume 80, pp. 10364-10369.
12. Olga Zatolochnaya, Soniya Rodriguez, Yongda Zhang, Kendrick Lao. Copper-Catalyzed Asymmetric Hydrogenation of 2-Substituted Ketones via Dynamic Kinetic Resolution // *Chemical science*, 2018. Volume 18, pp. 2547-2553.
13. Daniel R. Fandrick, Keith R. Fandrick, Jonathan T. Reeves, Zhulin Tan, Wenjun Tang. Copper Catalyzed Asymmetric Propargylation of Aldehydes // *Journal of the American Chemical Society*, 2010. Volume 132, Issue 22, pp. 7600-7601.
14. Pawel Borowiecki, Maciej Dranka. A Facile Lipase-Catalyzed KR Approach Toward Enantiomerically Enriched Homopropargyl Alcohols // *Bioorganic Chemistry*, 2019. Volume 93, pp. 102-107.
15. O.E.Ziyadullayev, G.Q.Otamuxamedova, L.Q.Ablakulov. 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(OⁱPr)₄/Et₂Zn katalitik sistemasida aromatik atsetilen spirtlari sintezi / "Mineral xomashyolar va texnogen chiqindilarni samarali qayta ishlashning muammolari, istiqbollari va innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjumani, Olmaliq, 2024. 248-250 b.
16. O.E.Ziyadullayev G.Q., Otamuxamedova F.Z, Qo'shboqov, O.E.Boytemirov. Atsetilen spirtlarini 3,3'-Ph₂BINOL-2Li/Ti(OⁱPr)₄/Et₂Zn katalitik sistemasida sintez qilish usuli // Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarnomasi jurnali, 2024. 27-39 b.
17. Toshiro Harada Dinuclear Tricyclic Transition State Model for Carbonyl Addition of Organotitanium Reagents: DFT Study on the Activity and Enantioselectivity of BINOLate Titanium Catalysts // *Journal Organic Chemistry*, 2018. Volume 83, pp. 7825-7835.



UO'K :546, 541.39, 547

Shaxnoza KADIROVA,

O'zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d

E-mail: shakhnoza.chem@gmail.com

Guloy ALIYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti umumiy va noorganik kimyo kafedrası dots.v.b., PhD

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, PhD, M.Ibragimova taqrizi asosida

CRYSTAL STRUCTURE OF TRANS-BIS[2-(1H-BENZOTRIAZOL-1-YL)ACETATO- κ O]BIS(ETHANOLAMINE- κ^2 N,O)COPPER(II)

Annotation

The reaction of 2-(1H-benzotriazol-1-yl)acetic acid (HBTA) and monoethanolamine (MEA) with $\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ resulted in the formation of the title complex $[\text{Cu}(\text{BTA})_2(\text{MEA})_2]$. Its asymmetric unit comprises one BTA anion coordinating to the Cu^{2+} cation through the carboxyl O atom, and one MEA ligand chelating the metal cation by two heteroatoms (O and N). The equatorial Cu-O and Cu-N bond lengths are similar at 2.029 (1) and 1.980 (2) Å, respectively, while the length of the axial Cu-O bond is considerably greater [2.492 (2) Å], as is typical for Jahn–Teller-distorted systems. An intramolecular hydrogen bond is present between the hydroxy group of the MEA ligand and the non-coordinating oxygen atom of the carboxylate group. Intermolecular hydrogen bonds lead to the formation of a three-dimensional supramolecular framework.

Key words: copper(II), crystal structure, benzotriazol, monoethanolamine, hydrogen bonding.

КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ТРАНС-БИС[2-(1H-БЕНЗОТРИАЗОЛ-1-ИЛ)АЦЕТАТО- κ O]БИС(ЭТАНОЛАМИН- κ^2 N,O)МЕДИ(II)

Аннотация

Реакция 2-(1H-бензотриазол-1-ил)уксусной кислоты (HBTA) и моноэтаноламина (MEA) с $\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ привела к образованию целевого комплекса $[\text{Cu}(\text{BTA})_2(\text{MEA})_2]$. Его асимметрическая единица содержит один анион BTA, координирующийся с катионом Cu^{2+} через атом кислорода карбоксильной группы, и один лиганд MEA, хелатирующий катион металла двумя гетероатомами (O и N). Длины экваториальных связей Cu-O и Cu-N близки и составляют 2,029 (1) и 1,980 (2) Å соответственно, в то время как аксиальная связь Cu-O значительно длиннее [2,492 (2) Å], что типично для систем с эффектом Яна-Теллера. Внутримолекулярная водородная связь присутствует между гидроксильной группой лиганда MEA и некоординирующим атомом кислорода карбоксильной группы. Межмолекулярные водородные связи приводят к образованию трехмерной супрамолекулярной структуры.

Ключевые слова: медь (II), структура кристалла, бензотриазол, моноэтаноламин, водородная связь.

TRANS-BIS[2-(1H-BENZOTRIAZOL-1-IL) ASETATO- κ O]BIS (ETANOLAMIN- κ^2 N,O) MIS (II) NING KRISTALL TUZILISHI

Annotation

2-(1H-benzotriazol-1-il)sirka kislotasi (HBTA) va monoetanolamin (MEA) ning $\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ bilan reaksiyasi maqsadli $[\text{Cu}(\text{BTA})_2(\text{MEA})_2]$ kompleksining hosil bo'lishiga olib keldi. Uning asimmetrik birligi karboksil guruhining kislorod atomi orqali Cu^{2+} kationi bilan koordinatsiyalangan bitta BTA anioni va metall kationini ikkita geteroatom (O va N) bilan xelatlovchi bitta MEA ligandini o'z ichiga oladi. Ekvatorial Cu-O va Cu-N bog'larining uzunliklari mos ravishda 2,029 (1) va 1,980 (2) Å ga yaqin, aksial Cu O bog'i esa ancha uzunroq [2,492 (2) Å], bu Yan-Teller effekti bo'lgan sistemalar uchun xosdir. MEA ligandining gidroksil guruhi va karboksil guruhining koordinatsiyalanmagan kislorod atomi o'rtasida ichki molekulyar vodorod bog' mavjud. Molekulalararo vodorod bog'lar uch o'lchamli supramolekulyar strukturani hosil qiladi.

Kalit so'zlar: mis(II), kristall tuzilishi, benzotriazol, monoetanolamin, vodorod bog'lanish.

Kirish. So'nggi yillarda koordinatsion kimyo sohasida besh a'zoli geterosikllarga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Bunga sabab, bu turdagi ligandlarning metall ionlari bilan turli xil koordinatsion bog'lanishlar hosil qila olish qobiliyatidir. An'anaviy bir xil ligandli komplekslardan farqli ravishda, aralash ligandli komplekslar sintezi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Aralash ligandli komplekslar deganda, bitta markaziy metall atomi bilan kamida ikkita turli xil ligand bog'langan birikmalar tushuniladi. Turli xil ligandlarni bir metall ioniga bog'lash orqali uning koordinatsion sferasini va geometriyasini nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, hosil bo'lgan kompleksning fizik-kimyoviy xossalari (eruvchanligi, barqarorligi, reaksiyaga kirishuvchanligi, magnit va optik xususiyatlari) nozik tarzda boshqarish imkonini beradi.

Biologik sistemalarda metall ionlari ko'pincha bir nechta turli xil biomolekulalar (aminokislotalar, nuklein asoslari, porfirinlar va boshqalar) bilan o'zaro ta'sirlashadi. Aralash ligandli komplekslar bu murakkab o'zaro ta'sirlarni soddalashtirilgan model sistemalarida o'rganish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Masalan, metalloproteinlarning faol markazlaridagi koordinatsion muhitni taqlid qilish mumkin.

Aralash ligandli komplekslar o'ziga xos tuzilish va xossalari tufayli kataliz, molekulyar elektronika va boshqa sohalarida qo'llanilish istiqbollari ega bo'lgan yangi materiallar yaratish uchun asos bo'lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda koordinatsion kimyoda azot donorli ligand sifatida benzotriazol metallorganik karkaslar, ko'p yadroli koordinatsion klasterlar va koordinatsion polimerlar sintezida ideal molekulaga aylandi. 1,2,3-Benzotriazol (Hbta) pirazol, imidazol, 1,2,3-triazol, 1,2,4-triazol va tetrazol kabi yaxshi ma'lum bo'lgan geterosiklik birikmalar bilan bir qatorda azollar sinfiga mansubdir [1]. Azot atomlarining geterosiklik halqadagi joylashuv tartibiga ko'ra 1,2,3-triazol va 1,2,4-triazol izomerlari farqlanadi.

Azollar sinfi, jumladan pirazol, imidazol, triazol va tetrazol kabi boshqa geterosiklik birikmalar ham koordinatsion kimyoda keng qo'llaniladi. Ularning ham azot atomlari orqali metall ionlari bilan bog'lanish qobiliyati mavjud bo'lib, turli xil koordinatsion arxitekturalarni yaratishga imkon beradi. 1,2,3-Triazol va 1,2,4-triazolning azot atomlarining joylashuvdagi farq ularning koordinatsion xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi va turli xil metall ionlari bilan har xil turdagi komplekslar hosil qilishiga olib kelishi mumkin [2-7].

Tadqiqot metodologiyasi. Aralash ligandli kompleks birikmalarining sintezi quyidagicha olib borildi. Metall tuzi (0.282 mmol) suvli (2.5 ml) eritmasiga monoetanolin (MEA, 0.034 g, 0.565 mmol) L (0.1 g, 0.565 mmol) ning etanoldagi (5 ml) eritmasi intensiv aralashtirib turilgan holda qo'shildi. Bir haftadan so'ng eritmani xona haroratida sekin bug'latish yo'li bilan ko'k rangli kristall olindi.

Cu(II), Zn(II), Ni(II) va Co(II) tuzlari BTA bilan kompleks birikmalari analogik tarzda sintez qilindi.

Tahlil va natijalar. 2-(1H-Benzotriazol-1-il)sirka kislotasi (BTA) va monoetanolin (MEA) $\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ bilan reaksiyasi natijasida $[\text{Cu}(\text{BTA})_2(\text{MEA})_2]$ kompleks birikmasi sintezi amalga oshirildi. Uning asimmetrik birligida bitta BTA anioni Cu^{2+} kationiga karboksil O atomi bilan koordinatsiyalangan, bitta MEA ligandi metall kationiga ikkita geteroatom (O va N) bilan xelat tarzda bog'langan. Ekvatorial Cu-O va Cu-N bog' uzunliklari mos ravishda 2.029 (1) va 1.980 (2) Å, aksial Cu-O bog' uzunliklari esa sezilarli darajada uzaygan [2.492 (2) Å], bu Jahn-Teller-effekti bilan tushuntiriladi. MEA ligandi gidroksil guruhi va karboksil guruhning koordinatsiyada qatnashmagan O atomi orasida ichkimolekulyar vodorod bog'lari yuzaga kelgan. Molekulararo vodorod bog'lari MEA ligandi amino guruhi karboksil guruhi orasida vujudga kelib, sakkiz a'zoli halqa hosil qilgan $\text{R}^2_2(8)$. Molekular triazol halqasi va MEAning metilen guruhlar orasidagi C-H... π bog'lari orqali o'zaro bog'lanib, uch o'lchamli supramolekulyar karkasni hosil qilgan.


Cu^{2+} kationlari simmetriya markazida joylashgan. Uning ko'pyoqli koordinatsiyasi birmuncha qiyshaygan bo'lib, bunga N2O4 hosil qilgan oktaedr sababdir. Ushbu oktaedr benzotriazol anionidagi karboksil guruhning o'zaro simmetrik joylashgan ikkita kislorod atomi (O2), MEA ligandlarining ekvatorial tekislikdagi ikkita azot atomlari (N4) va aksial holatdagi MEA ligandlarining xuddi shunday tizimdagi ikkita kislorod atomlari (O3) hisobiga shakllangan. Cu-O(2) va Cu-N(4) bog' uzunliklari mos ravishda 2.029 (1) va 1.980 (2) Å. Aksial Cu-O(3) bog' uzunligi esa 2.492 (2) Å.

MEA ligand neytral tabiatli bo'lib, bidentant N va O-donor atomlari orqali koordinatsiyaga uchraydi va CuNC_2O besh a'zoli tvist konformatsiyadagi xelat halqasini hosil qiladi; O3-C10-C9-N4 torsion burchak 60.3 (3). Benzotriazolning tekis halqa tizimi (N1-N3/C1-C6: chetlanish = 0.0064 Å) metil guruhi C7 atomi bilan koplanar [tekislikdan chetlanish 0.158 (2) Å], karboksil guruh esa bu tekislikka nisbatan deyarli to'g'ri holatda joylashgan [88.0 (2)]. Karboksil guruhning C8-O(1,2) masofasi orasidagi farq ($B = 0.036$ Å²)ni tashkil etadi va monodentant koordinatsiyaga uchraganligini bildiradi, uzun C-O masofa koordinatsiyada O2 atomini ham qamrab oladi.


Molekulyar struktura MEA ligandining OH guruhi va koordinatsiyalanmagan karboksilning O atomi orasidagi ichkimolekulyar O3-H3...O1 vodorod bog' hisobiga barqarorlashadi (1-jadval).

Kristall strukturada (I) molekular aminoguruh va karboksil- gidroksil O atom akseptorlarining zanjir hosil qilib [010] parallel holda C7-H7A...O1ⁱⁱⁱ, N4-H4A...O2ⁱⁱ va N4-H4B...O3ⁱⁱ vodorod bog'lari yordamida bog'langan (1-jadval, 2-rasm). Aralash zanjirlar C9-H9A...N3^{iv} vodorod bog'lari orqali qavatlar hosil qilib (101)ga parallel joylashgan (2-rasm). Triazol halqasi C-H qo'shimcha bog'lari va MEAning metilen guruhlar orasidagi o'zaro ta'sir uch o'lchamli supramolekulyar qurshovni shakllantirgan. Ichkimolekulyar vodorod bog'lari uzlukli chiziqlar shaklida ko'rsatilgan (1-rasm). Ellipsoidlarning siljishi 25% ehtimollik bilan tasvirlangan. Cu-O3 bog' uzunligi 2.492 (2) Å, Yan-Teller chetlanishi tipida tasvirlangan.

$[\text{Cu}(\text{BTA})_2(\text{MEA})_2]$ kompleksining molekulyar va kristall tuzilishi 1,2-rasmda keltirilgan.



1-rasm. $[\text{Cu}(\text{BTA})_2(\text{MEA})_2]$ kompleksning tuzilishi



2-rasm. Kompleksning kristallda b o'q bo'ylab taxlanishi

O va N atomlariga bog'langan vodorod atomlarining holatlari esa Fur'ye farqiga kўra joylashtirildi va masofani yumshoq chegaralash usulida gidroksil guruh uchun 0,82 Å, birlamchi amin guruh uchun 0,95 Å tarzida aniqlashtirildi. 2-Jadvalda $[\text{Cu}(\text{BTA})_2(\text{MEA})_2]$ ning asosiy kristallografik ma'lumotlari keltirildi.

1-Jadval

Molekulararo vodorod bog'lari (Å)

D - H...A	D - H	H...A	D...A	D - H...A
-----------	-------	-------	-------	-----------

O3-H3...O1 ⁱ	0.80(1)	1.86(1)	2.634 (2)	163(3)
N4-H4A...O2 ⁱⁱ	0.89(1)	2.41(2)	3.046 (2)	129(2)
N4-H4B...O3 ⁱⁱⁱ	0.89(1)	2.12(1)	2.973 (2)	161(2)
C7-H7B...O1 ⁱⁱⁱ	0.97	2.53	3.449 (3)	158
C9-H9A...N3 ^{iv}	0/97	2.58	3/345(3)	136

2-Jadval

[Cu(BTA)₂(MEA)₂] ning asosiy kristallografik ma'lumotlar


Parametr	Qiymatlar	Parametr	Qiymatlar
Formula	[Cu(C ₈ H ₆ N ₃ O ₂) ₂ (C ₂ H ₇ NO) ₂]	Kristall o'lchami, mm	0.36x0.22x0.12
Molekulyar massa	538.03	T, °K	293
Singoniya	Monoklin	θ, °	0.63
Fazoviy guruh	P-1	Interval h,k,l	-9: 9; -15: 15; -17: 18
a, Å	12.42(5)	Refleks	8833
b, Å	4.84(9)	Sindirish ko'rsatkichi	2444
c, Å	20.69(5)	R _{int}	0.036
β	105.823(3)	F ² > 2σ (F ²) kriteriy	2444
V, Å ³	1199.80(5)	parametr	173
Z	2	R _{int}	0.031
D _x , g/cm ³	1.514	R ₁ , wR ₂ (I > 2σ (I))	0.033, 0.096, 1.06
μ(CuKα), mm ⁻¹	1.75	Δρ _{min/max} , eÅ ⁻³	0.24, -0.31

Xulosa va takliflar. 2-(1H-Benzotriazol-1-il)-sirka kislota (BTA) ning kimyoviy faolligini va koordinatsion hosil bo'lish ehtimolini oshirish maqsadida qo'shimcha ligand monoetanolamin ishtirokida olib borildi. Aralash ligandli kompleks birikmalarning tuzilishi, xossasi va tarkibi fizik-kimyoviy tadqiqotlar natijasida tahlil qilindi.

Xulosa va takliflar. Ilk bor Jizzax viloyatida yetishtirilayotgan *Crocus sativus* L. o'simligi gultojibarglarining uchuvchan komponentlar tarkibi GX-MS usulida tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, *Crocus sativus* L. o'simligi gultojibargining yangi yig'ilgan hamda quritilgan xom ashyolari efir moyining uchuvchan komponentlar tarkibi sifat va miqdor jihatdan sezilarli farq qilish, asosan miqdor jihatdan farq qilish aniqlandi. Quritilgan gultojibargdan olingan efir moyi tarkibida gultumshuqcha (za'faron ziravori) tarkibidagi asosiy ta'sir qiluvchi, biologik faol birikmalari hisoblangan qutbsiz shafanal, 4-oksoizoforon hamda 4-metilen izoforon komponentlari mavjudligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Нишанбаев С.З., Бобакулов Х.М., Охундедаев Б.С., Тухтаев Б.Ё. / Ўзбекистон флорасида интродукция қилинган *Crocus sativus* ўсимлигининг кимёвий таҳлили // «Agro Inform», 2021, Maxsus son, №2, 44-46 betlar.
2. Нишанбаев С.З., Бобакулов Х.М., Охундедаев Б.С., Тухтаев Б.Ё., Шамьянов И.Д. / Компоненты цветков и рыльцев *Crocus sativus*, интродуцированного в Узбекистане // *Universum: Химия и биология: электронный научный журнал*, 2019, №7 (61), с. 8-14.
3. Wu Y., Gong Y., Sun J., Zhang Y., Luo Z., Nishanbaev S.Z., Usmanov D., Song X., Zou L., Benito M.J. / Bioactive Components and Biological Activities of *Crocus sativus* L. Byproducts: A Comprehensive Review // *J. Agric. Food Chem.*, 2023, Vol. 71, P. 19189-19206, DOI:10.1021/acs.jafc.3c04494.
4. Gohari A.R., Saeidnia S., Mahmoodabadi M.K. / An overview on saffron, phytochemicals, and medicinal properties // *Pharmac. Rev.*, 2019, Vol. 7 (13), P. 61-66, DOI: 10.4103/0973-7847.112850.
5. Kosar M., Demirci B., Goger F., Kara I., Baser K.H.C. / Volatile composition, antioxidant activity, and antioxidant components in saffron cultivated in Turkey // *Int. J. of Food Properties.*, 2017, Vol. 20 (1), P. 746-754. DOI:10.1080/10942912.2017.1311341.
6. Saadat S., Ghasemi Z., Memarzia A., Behrouz S., Aslani M.R., Boskabady M.H. / An overview of pharmacological effects of *Crocus sativus* and its constituents // *Iranian Journal of Basic Medical Sciences*, 2024, Vol. 27, P. 391-417. DOI:10.22038/IJBMS.2023.73410.15950.
7. Ali Esmail Al-Snafi / The pharmacology of *Crocus sativus* // *Journal of Pharmacy*, 2016, Vol. 6 (6), P. 8-38.

8. Bagur M.J., Alonso Salinas G.L., Jiminez-Monreal A.M., Chaouqi S., Llorens S., Tomi M.M., Alonso G.L. / Saffron: An Old Medicinal Plant and a Potential Novel Functional Food // *Molecules*, 2018, 23, P. 30-41. DOI:10.3390/molecules23010030.
9. Khadfy Z., Atifi H., Mamouni R., Jadouali S.M., Chartier A., Nehme R., Karra Y., Tahiri A. / Nutraceutical and cosmetic applications of bioactive compounds of Saffron (*Crocus sativus* L.) stigmas and its by-products // *South African Journal of Botany*, 2023, Vol. 163, P. 250-261, DOI:10.1016/j.sajb.2023.10.058.
10. Khan A., Muhamad N.A., Ismail H., Nasir A., Khalil A.A.K., Anwar Y., Khan Z., Ali A., Taha R.M., Al-Shara B., Latif S., Mirza B., Jalil Fadladdin Y.A., Abu Zeid I.M., Al-Thobaiti S.A. / Potential Nutraceutical Benefits of In Vivo Grown Saffron (*Crocus sativus* L.) As Analgesic, Anti-inflammatory, Anticoagulant, and Antidepressant in Mice // *Plants*, 2020, Vol. 9, P. 1414-1431. DOI:10.3390/plants9111414.
11. Ruggieri F., Maggi M. A., Rossi M., Consonni R. / Comprehensive Extraction and Chemical Characterization of Bioactive Compounds in Tepals of *Crocus sativus* L. // *Molecules*, 2023, **Vol.** 28, P. 5976-5996. DOI:10.3390/molecules28165976.
12. Qadir M.M., Nissar J., Dar A. H., Ganaie T. A., Bashir M. / Insights into phytochemistry and bioactive potential of saffron (*Crocus sativus* L.) petal // *Future Postharvest and Food*, 2024, **Vol.** 1 (3), P. 300-316. DOI:10.1002/fpf2.12025.
13. Narbutaeva D.A., Makhmudova Sh.R., Keneshov B., Okhundedaev B.S., Nishanbaev S.Z. / Biologically active compounds of bioresidues of *Crocus sativus* flower // *E3S Web of Conferences*, 2024, Vol. 537, 050. DOI:10.1051/e3sconf/202453705013.
14. Okhundedaev B.S., Bobakulov Kh.M., Makhmudova Sh.R., Nishanbaev S.Z., Sasmakov S.A., Constituent composition of essential oil from *Senecio subdentatus* growing in Uzbekistan // *Chem. Nat. Compd.*, 2023, Vol. 59 (5). Pp. 992-995. DOI:10.1007/s10600-023-04176-4.



UDK: 536. 66.088.912.538.931

Namunaxon NABIYEVA,

TIAME Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

E-mail: namunaxonnabiyeva09@gmail.com

Davronjon ABDUVOKHIDOV,

TIAME Milliy tadqiqot universiteti Fizika va kimyo kafedrası, Stajyor-o'qituvchi

E-mail: davronjonabduvokhidov@gmail.com

Tohir AKRAMOV,

O'zbekiston Milliy universiteti Nazariy fizika kafedrası

Maksudbek YUSUPOV,

TIAME Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, laboratoriya mudiri

Jamoliddin RAZZOKOV,

TIAME Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, direktor

F.-m.f.d., k.i.x U.Xalilov taqrizi asosida

STUDY OF THE MECHANISM OF DEGRADATION OF DISPERSE RED 1 USING COLD ATMOSPHERIC PLASMA BASED ON DFTB+ SIMULATIONS

Annotation

In this study, the effectiveness of cold atmospheric plasma (CAP) technology in wastewater treatment was studied. CAP is known as an effective and promising method for decomposing organic pollutants. Here we investigate the mechanism of decomposition of the disperse red 1 dye contaminant under CAP conditions was studied using density functional hard binding (DFTB+) simulations using oxygen radicals. The article provides a detailed description of the simulation methodology and parameters, and analyzes the process of paint degradation under the influence of CAP. The research results are important for illuminating interactions at the molecular level and the main mechanisms of the process. The results presented in this article demonstrate the effectiveness of DFTB+ simulations in the development of optimized systems for sustainable wastewater treatment and the development of advanced decomposition strategies of CAP technology.

Key words: Cold Atmospheric Plasma, wastewater treatment, organic pollutants, degradation, Disperse Red 1 dye, oxygen radicals, DFTB+ simulations.

ИЗУЧЕНИЕ МЕХАНИЗМА ДЕГРАДАЦИИ КРАСИТЕЛЯ DISPERSE RED 1 ПОД ДЕЙСТВИЕМ ХОЛОДНОЙ АТМОСФЕРНОЙ ПЛАЗМЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МОДЕЛИРОВАНИЯ DFTB+

Аннотация

В данном исследовании изучалась эффективность технологии холодной атмосферной плазмы (ХАП) при очистке сточных вод. ХАП известен как эффективный и перспективный метод разложения органических загрязнителей. В исследовании изучен механизм деградации красителя Disperse red 1 под действием ХАП, с помощью симуляций плотностно-функциональной теории в приближении сильной связи (DFTB+) с использованием кислородных радикалов. В статье представлено подробное описание методологии и параметров симуляции, а также проанализирован процесс разложения красителя под воздействием ХАП. Результаты исследования имеют важное значение для понимания молекулярных взаимодействий и ключевых механизмов процесса. Результаты исследования демонстрируют эффективность метода DFTB+ для разработки оптимизированных систем устойчивой очистки сточных вод и создания передовых стратегий разложения загрязнителей с использованием технологии ХАП.

Ключевые слова: ХАП, очистка сточных вод, органические загрязнители, разложение, Disperse Red 1, кислородные радикалы, DFTB симуляции.


DISPERSE RED 1 BO'YOG'INING SOVUQ ATMOSFERIK PLAZMA YORDAMIDA PARCHALANISH MEXANIZMINI DFTB+ SIMULYATSIYALARI ASOSIDA TADQIQ QILISH

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda sovuq atmosferik plazmasi (SAP) texnologiyasining chiqindi suvlarni tozalashdagi samaradorligi o'rganildi. SAP organik ifloslantiruvchilarni parchalashda samarali va istiqbolli usul sifatida tanilgan. Tadqiqotda, SAP sharoitida Disperse red 1 bo'yoq ifloslantiruvchisining parchalanish mexanizmi, kislorod radikallari yordamida zichlik funktsional mustahkam bog'lash (DFTB+) simulyatsiyalari yordamida o'rganildi. Maqolada simulyatsiya metodologiyasi va parametrlarining batafsil tavsifi berilgan bo'lib, SAP ta'sirida bo'yoqning degradatsiya jarayoni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari, molekulyar darajadagi o'zaro ta'sirlarni va jarayonning asosiy mexanizmlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada keltirilgan natijalar, chiqindi suvlarni tozalash uchun barqaror optimallashtirilgan tizimlarni ishlab chiqishda va SAP texnologiyasini parchalanish strategiyalarini rivojlantirishda DFTB+ simulyatsiyalarining samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: SAP, chiqindi suvlarni tozalash, organik ifloslantiruvchilar, parchalanish, disperse red 1 organik bo'yoq molekulasini, kislorod radikallari, DFTB+ simulyatsiyasi.

Kirish. Sanoat rivojlanishi bilan chiqindi suvlarning organik bo'yoqlar bilan ifloslanishi muammosi jiddiylashmoqda. Ayniqsa, kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat va tekstil sanoatlarida foydalanilayotgan bo'yoqlar atrof-muhit va inson salomatligi uchun xavfli hisoblanadi [1]. An'anaviy suv tozalash usullari bunday murakkab organik molekulalarni samarali parchalay olmaydi, ba'zida hatto ikkilamchi toksik mahsulotlar hosil qiladi [2]. Shuning uchun ilg'or oksidlanish jarayonlari keng o'rganilmoqda. Shu jarayonlardan biri bo'lgan sovuq atmosferik plazma (SAP) texnologiyasi organik ifloslantiruvchilarni kimyoviy moddalar ishlatmasdan yuqori samaradorlik bilan oksidlab parchalaydi. SAP texnologiyasining asosiy afzalliklari orasida past haroratda ishlashi, issiqlikka sezgir materiallarga zarar yetkazmasligi, yuqori oksidlovchi qobiliyatga ega bo'lgan reaktiv kislorod va azot turlarini hosil qilish imkoniyati hamda kimyoviy reagentlarni talab qilmay ekologik xavfsizligi mavjud. Bu xususiyatlari bilan SAP an'anaviy va boshqa ilg'or oksidlanish texnologiyalariga (masalan, UV/H₂O₂ yoki ozonlash) nisbatan iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlik jihatidan ustunlik qiladi [3, 4]. SAP - bu past haroratlarda ionlashgan gaz bo'lib faol radikallar va ionlar hosil qilib, organik molekulalarni samarali ravishda oksidlab parchalaydigan texnologiyadir. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar SAP texnologiyasining turli xil murakkab organik moddalarni, jumladan antibiotiklar, pestitsidlar va bo'yoqlarni samarali ravishda parchalash olish qobiliyatini ko'rsatdi [5-7]. SAP texnologiyasining turli xil organik ifloslantiruvchilarni samarali tarzda parchalashi aniqlangan. SAP texnologiyasining ekologik tozaligi va iqtisodiy samaradorligini ta'kidlab, uning sanoatda keng qo'llanilishini tavsiya etilmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqotimizda Disperse Red 1 (DR1, 1-rasm) organik bo'yog'ining SAP sharoitida kislorod radikallari ta'sirida parchalanish mexanizmlari reaktiv molekulyar dinamik simulyatsiyalar orqali batafsil o'rganiladi.




1-rasm: Disperse red 1 bo'yog'ining molekulyar tuzilishi

Simulyatsiya parametrlari. Ushbu tadqiqotda DR1 molekulasining SAP yordamida parchalanish mexanizmini aniqlash maqsadida DFTB+ usuli asosida reaktiv molekulyar dinamika (RMD) simulyatsiyalari amalga oshirildi. DFTB usuli - bu zichlik funktsional nazariya (DFT) energiya ifodasining Teylor qatoriga asoslangan soddalashtirilgan yondashuv bo'lib, u an'anaviy reaktiv MD texnikalariga, masalan, ReaxFF-MDga nisbatan kamroq hisoblash resurslarini talab qiladi. Ammo, u sof DFTdan 100 martagacha tezroq ishlaydi [8]. DFTB yuqori aniqlik bilan vodorod bog'lanish energiyalari, protonning tortishish qobiliyatlari va vodorod uzatilish to'siqlarini ifodalab beradi [9]. Bu usul rezonans tuzilmalarni yaxshi tasvirlaydi, bu esa ReaxFF-MDda yo'q xususiyat bo'lib, molekulyar murakkab jarayonlarni o'rganishda DFTBni qimmatli vosita sifatida ko'rsatadi [10]. Simulyatsiyalardagi atomlararo o'zaro ta'sirlarni xarakterlash uchun maxsus "3ob-3-1" parametrlar to'plami ishlatildi [11]. Bu parametrlar organik va biologik molekulalarga mos keladi. Model sifatida DR1 tuzilmasidan foydalanildi. Ushbu tuzilma 41 atomni o'z ichiga oladi (1-rasm). DR1 a'zo bo'yoqlardan biri bo'lib, uning tuzilmasida nitrobenzol 4-pozitsiyada fenil guruh bilan almashtirilgan.

Simulyatsiyalar 100 pikosoniyalik (ps) vaqt oralig'ida amalga oshirilib, har bir vaqt oralig'i 0.5 femtosoniy (fs) tashkil etdi va umumiy hisobda 2×10^5 ta qadam bajarildi. Vaqtni integratsiyasi uchun Velocity-Verlet algoritmi qo'llanildi. Barcha hisob-kitoblar DFTB+ dasturi yordamida amalga oshirildi.

Natijalar va muhokama. Plazmada hosil bo'ladigan reaktiv kislorod turlari, xususan, kislorod atomini DR1 molekulasiga ketma-ket kiritib, uning ta'siri batafsil o'rganildi. Molekuladagi barcha mumkin bo'lgan bog'lanishlarning uzilishi va yangi bog'lanishlarning shakllanish jarayonlarini aniqlash maqsadida 100 ta DFTB-MD simulyatsiyasi bajarildi va olingan natijalar maqola sifatida chop etilgan [12]. Model sifatida olingan DR1 molekulasi 41 atomdan iborat bo'lib, simulyatsiyalar uchun molekula $30 \times 30 \times 30$ Å hajmdagi kubik simulyatsiya qutisining markaziga joylashtirildi. Molekulaning geometrik tuzilishi Konjugat Gradient algoritmidan foydalanib optimallashtirildi. Keyingi bosqichda tizim 103 pikosoniy (ps) vaqt davomida temperaturasi bosqichma-bosqich ko'tarib borildi va muvozanatga keltirildi. Bunda harorat $T=300$ K ga yetgunga qadar Berendsen termostati qo'llanildi. Simulyatsiya har bir bosqichida vaqt qadam o'lchovi $\Delta t=0.5$ fsni tashkil etdi. Kislorod atomi DR1 molekulasidan kamida 5 Å masofada tasodifiy tarzda kiritildi. Bu uzoq masofadan ta'sirlarning oldini olish maqsadida amalga oshirildi. 100 ta DFTB-MD simulyatsiyasi natijalaridan eng ko'p kuzatilgan N-O bog'lanishli birikmasi tanlab olindi va simulyatsiya yana kislorod kiritilish bilan davom ettirildi hamda molekulaning yakuniy parchalanish bosqichigacha bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilindi. Ushbu simulyatsiyalar DR1 molekulasiga kislorod atomlarining ta'sirini samarali tarzda ko'rsatdi va tajriba natijalari bilan sifat jihatidan mos keluvchi natijalarni taqdim etdi DR1 kimyoviy jihatdan (E) 2-(etil(4-(4-nitrofenil)diazenil)fenil)amino)etanol bo'lib, uning rangi uchun asosiy omil sifatida xromofor azo guruhi ($-N=N-$) mavjud (1-rasmga qarang). Shuningdek, molekuladagi naftolenol va boshqa aromatik tuzilmalar ham umumiy rang hosil bo'lishiga hissa qo'shadi [13]. Uzaytirilgan konjugatsiyalangan sistema tufayli molekula ko'rinadigan yorug'likni yuta oladi va DR1 ga xos bo'lgan qizil rangni beradi. Simulyatsiyaning asosiy maqsadi ushbu sintetik bo'yoqning oksidlanish jarayonini va molekulyar mexanizmlarini batafsil tushunishdan iborat. Simulyatsiya natijalari shuni ko'rsatadiki, DR1 molekulasi oksidlanish jarayonida dastlab muayyan pozitsiyalardan vodorod atomlarining ajralib chiqishi orqali reaksiyani boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, kislorod atomining ta'siri ostida molekula tarkibidan bir yoki ikki vodorod atomining ajralishi kuzatiladi. Ushbu dastlabki bosqich molekula ichidagi mavjud kimyoviy bog'larning uzilishi yoki yangi bog'lanishlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Jarayonning yakuniy bosqichida esa bo'yoq molekulasining asosiy rang beruvchi qismi bo'lgan xromofor guruhining to'liq parchalanishi kuzatiladi (2-rasm). Bu esa molekulaning strukturaviy barqarorligini yo'qotib, uning to'liq degradatsiyasiga sabab bo'ladi.



2- rasm: DR1 bo'yog'ining kislorod radikallari yordamida parchalanish bosqichlari

DR1 molekulasida azobirikma ($-N=N-$) guruhiga ega bo'lib, nitro ($-NO_2$) va boshqa elektron tortuvchi guruhlarni o'z ichiga oladi. Kislorod radikallari ta'sirida molekula bir necha bosqichli parchalanish reaksiyalariga uchraydi. Dastlab, kislorod radikal elektron zichligi yuqori bo'lgan benzol yadrosiga hujum qilib, aromatik halqa ustidagi π -elektronlar taqsimotini buzadi. Natijada halqaning bir qismi oksidlanadi va oksidlovchi radikal ($\bullet O$) halqaning orto yoki para holatlarida joylashadi. Bu jarayonda ikki elektron ajralib chiqib, kislorod bilan bog'lanadi va $C=O$ (karbonil) guruhi hosil bo'ladi. Aromatik halqa yana ketma-ket kislorod radikallari hujumiga uchraydi. Keyingi bosqichda yana bir kislorod atomi bog'lanib, ehtimoliy diol ($-OH$, $-OH$) yoki karboksil ($-COOH$) guruhiga aylanish ehtimoli yuzaga keladi. Elektron zichligining notekis taqsimlanishi sababli halqa tarkibidagi bog'lar uzilib ketadi, biroq azoguruh ($-N=N-$) hali saqlanib qoladi. Natijada yangi karboksil yoki geminal diol strukturalar hosil bo'ladi va aromatiklik deyarli yo'qoladi. Oksidlovchi hujumning kuchayishi natijasida aromatik halqa butunlay ochiladi va buziladi. Bu bosqichda azo bog'i qisqaradi yoki butunlay uziladi. Molekuladan suv (H_2O), azot oksidlari (NO_2), karbon oksidlari (CO) va $C_6H_4NO_3$ kabi gazlar ajraladi. Bundan tashqari, molekuladan $C_2H_4O_2$ (etikka o'xshash kislotasi yoki fragmenti) ham ajralishi mumkin. Oqibatda kislorodga boy fragmentlar hosil bo'lib, ko'plab kichik organik va noorganik molekulalar paydo bo'ladi. Keyingi bosqichda molekulyar qismlar qisqarib, boshlang'ich molekula yarim ochilgan va kislorod atomlariga boy bo'lib qoladi. Plazma radikallari ta'sirida azo bog'i uzilib, karboksil ($-COOH$) yoki karbonil ($-C=O$) guruhlardan vodorod atomi ajraladi. Shu bilan birga, azo bog'i ($-N=N-$) qisqarib, molekula kichik fragmentlarga parchalanadi. Natijada kichik keton va karboksil guruhlari hamda oksidlangan fragmentlar hosil bo'ladi. Oxirgi bosqichlarda molekulada qolgan aromatiklik butunlay yo'qoladi. Plazma radikallari yordamida $-OH$ va $-O$ guruhlari ta'sirida geminal diollar hosil bo'lib, keto-enol tautomeriyasi yuz beradi. Oksidlanish davom etib, $C-H$ bog'lari uziladi va natijada suv (H_2O) hamda karbonmonoksid (CO) kabi moddalar ajraladi. Yakunida keton va di-keton strukturalar hosil bo'ladi.

Eng yakuniy bosqichda azo guruhlari parchalanib, $N=N$ bog'i radikal ta'sirida uziladi va NO yoki NO_2 ajraladi. Uglerod zanjiri qisqarib, molekulada keton va karboksil guruhlari qoladi. Oxirgi oksidlanish jarayonlari natijasida suv (H_2O), karbon monoksid (CO) va karbon dioksid (CO_2) kabi oddiy gazlar hosil bo'ladi. Qolgan molekulyar qismlar esa keton ($C=O$) va nitril ($C\equiv N$) shaklida bo'lib, plazma ta'sirida molekulaning deyarli to'liq parchalanishiga olib keladi. Yakuniy natijada CO_2 , NO_x va suv hosil bo'ladi, bu esa DR1 ning to'liq parchalanishini tasdiqlaydi (1- jadval).

1-jadval: Disperse Red 1 bo'yog'ining bosqichma-bosqich plazma oksidlanishi va parchalanish mahsulotlari

Bosqich	Asosiy jarayon	Mahsulot
a $\rightarrow$ b	Radikal hujum, karbonil hosil bo'lishi	Keton ($C=O$)
b $\rightarrow$ c	Halqani kuchli oksidlash	Diol / Karboksil
c $\rightarrow$ d	Halqaning ochilishi, gaz ajralishi	CO , NO_2 , H_2O , $C_6H_4O_2$
d $\rightarrow$ e	Azo bog'i va aromatik qoldiqlarning parchalanishi	Kichik karbonil
e $\rightarrow$ f	Geminal diollar va keto-enol	Diketon, keton
f $\rightarrow$ g	Azo guruh parchalanishi, NO ajralishi	Keton, NO
g $\rightarrow$ h	Yakuniy oksidlanish, mineralizatsiya	CO_2 , H_2O , keton, nitril

Xulosa. Ushbu tadqiqotda DR1 bo'yog' molekulasining SAP bilan ishlov berish sharoitida kislorod radikallari yordamida parchalanish mexanizmlari atomistik simulyatsiyalar yordamida chuqur tahlil qilindi. DFTB+ metodologiyasi asosida olib borilgan molekulyar dinamik simulyatsiyalar DR1 molekulasining parchalanishi bir necha asosiy bosqichlarda kechishi aniqlangan: dastlab vodorod atomlarining ajralishi, aromatik halqaning ochilishi va karbonil hamda karboksil guruhlari hosil bo'lishi, so'ng azo ($-N=N-$) bog'ining uzilishi, va nihoyat kichik organik va noorganik fragmentlarga parchalanish. Azo va aromatik guruhlarning buzilishi natijasida molekula o'zining rang beruvchi (xromofor) xususiyatini yo'qotadi, bu esa bo'yog'ning to'liq degradatsiyasi va suvdan yo'qolishini anglatadi. Shuningdek, SAP natijasida hosil bo'ladigan kislorod radikallari (O) DR1 molekulasining eng zaif bog'lanish joylariga hujum qilib, tez va samarali oksidlanish jarayonini ta'minlaydi. Olingan natijalar, ayniqsa, azo guruhlari va aromatik halqalarning bosqichma-bosqich parchalanishini ko'rsatib, SAP texnologiyasining yuqori oksidlovchi qobiliyatini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari, SAP texnologiyasining chiqindi suvdagi murakkab organik bo'yog'larni samarali va ekologik xavfsiz usulda parchalay olishini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. DFTB+ simulyatsiyalari yordamida aniqlangan molekulyar darajadagi mexanizmlar, sanoat miqyosida SAP asosidagi tozalash texnologiyalarini ishlab chiqish va optimallashtirish uchun muhim ma'lumotlar beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv kelajakda boshqa murakkab organik ifloslantiruvchilarni ham SAP yordamida zararsizlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Gururani, P., et al., *Cold plasma technology: advanced and sustainable approach for wastewater treatment*. Environmental Science and Pollution Research, 2021: p. 1-21.
- Bashir, I., et al., *Concerns and threats of contamination on aquatic ecosystems*. Bioremediation and biotechnology: sustainable approaches to pollution degradation, 2020: p. 1-26.
- Barjasteh, A., et al., *Recent progress in applications of non-thermal plasma for water purification, bio-sterilization, and decontamination*. applied sciences, 2021. 11(8): p. 3372.

4. Deng, Y. and R. Zhao, *Advanced oxidation processes (AOPs) in wastewater treatment*. Current pollution reports, 2015. **1**(3): p. 167-176.
5. Murugesan, P., J. Moses, and C. Anandharamakrishnan, *Water decontamination using non-thermal plasma: Concepts, applications, and prospects*. Journal of Environmental Chemical Engineering, 2020. **8**(5): p. 104377.
6. Singh Saharan, B., A. Grewal, and P. Kumar, *Biotechnological production of polyhydroxyalkanoates: a review on trends and latest developments*. Chinese Journal of Biology, 2014. **2014**(1): p. 802984.
7. Diamond, J., J. Profili, and A. Hamdan, *Characterization of various air plasma discharge modes in contact with water and their effect on the degradation of reactive dyes*. Plasma Chemistry and Plasma Processing, 2019. **39**: p. 1483-1498.
8. Aradi, B., B. Hourahine, and T. Frauenheim, *DFTB+, a sparse matrix-based implementation of the DFTB method*. The Journal of Physical Chemistry A, 2007. **111**(26): p. 5678-5684.
9. Qian, H.-J., et al., *Reactive molecular dynamics simulation of fullerene combustion synthesis: ReaxFF vs DFTB potentials*. Journal of chemical theory and computation, 2011. **7**(7): p. 2040-2048.
10. Gaus, M., A. Goez, and M. Elstner, *Parametrization and benchmark of DFTB3 for organic molecules*. Journal of Chemical Theory and Computation, 2013. **9**(1): p. 338-354.
11. Kubillus, M., et al., *Parameterization of the DFTB3 method for Br, Ca, Cl, F, I, K, and Na in organic and biological systems*. Journal of chemical theory and computation, 2015. **11**(1): p. 332-342.
12. Nabiyeva, N., et al., *Preliminary study on degradation mechanisms of plasma-treated DR1 by atomistic simulations*. Plasma Science and Technology, 2024.
13. da Silva Leite, L., et al., *Monitoring ecotoxicity of disperse red 1 dye during photo-Fenton degradation*. Chemosphere, 2016. **148**: p. 511-517.



UDK:547.233.3

Go'zal RASULOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
Baxtiyor BO'RIXONOV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD
Tursunali XOLIQOV,
O'zMU organik kimyo kafedrası mudiri, k.f.d., professor
E-mail: borixonov90@mail.ru

REACTIONS OF PYRIDINE-BASED QUATERNARY AMMONIUM SALTS WITH CHITOSAN AND THEIR BIOLOGICAL ACTIVITY

Annotation

Reactions of some esters of pyridine with monochloroacetic acid were carried out. As a result of the reactions, the quaternary ammonium salt of pyridine was obtained. Alternative reaction conditions were studied, and the efficiency of the obtained salts was calculated. It is known that chitosan has high biological activity, but its insolubility in water limits its application areas. Therefore, the synthesis of a quaternary ammonium salt based on chitosan is considered an important reaction. The quaternary ammonium salt of chitosan was synthesized based on pyridine's quaternary ammonium salt. It was found that the positively charged compound of chitosan has antibacterial properties. The synthesized compounds were analyzed using physicochemical methods, including IR and NMR spectroscopy. The results indicated that the quaternary ammonium salt of chitosan was successfully formed.

Key words: Pyridine, chitosan, esters of monochloroacetic acid, DMFA, ethanol, acetone, temperature, IR, NMR.

РЕАКЦИИ ЧЕТВЕРТИЧНЫХ АММОНИЕВЫХ СОЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПИРИДИНА С ХИТОЗАН И ИХ БИОЛОГИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ

Аннотация

Были проведены реакции некоторых эфиров пиридина с монохлористой серной кислотой. В результате проведенных реакций был получен четвертичный аммониевый соль пиридина. Изучены альтернативные условия реакции, а также рассчитана эффективность полученных солей. Известно, что хитозан обладает высокой биологической активностью, однако его нерастворимость в воде ограничивает области его применения. Поэтому синтез четвертичной аммониевой соли на основе хитозана является важной реакцией. Четвертичная аммониевая соль пиридина была использована для синтеза четвертичной аммониевой соли хитозана. Установлено, что положительно заряженные соединения хитозана обладают антибактериальной активностью. Синтезированные соединения были проанализированы с использованием физико-химических методов, ИК и ЯМР спектроскопии. Результаты показали, что было получено четвертичное аммониевое соединение хитозана.

Ключевые слова: Пиридин, хитозан, эфиры монохлористой серной кислоты, DMFA, этанол, ацетон, температура, ИК, ЯМР.

PIRIDIN ASOSIDA OLINGA TO'RTLAMCHI AMMONIY TUZLARINI XITOZAN BILAN REAKSIYALARI VA ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGI


Annotatsiya

Piridin bilan monoxlorsirka kislotasining ba'zi efilrlari bilan reaksiyalari olib borildi. Olib borilgan reaksiyalar natijasida piridin bilan to'rtlamchi ammoniy tuzi olindi. Reaksiyalarning muqobil sharoitlari o'rganildi hamda hosil bo'lgan tuzlarning unumi hisoblab topildi. Xitozanni biologik faolligini yuqori ekanligi ma'lum, lekin suvda erimasligi uni qo'llanilish sohasini bir muncha chegaralaydi. Shuning uchun xitozan asosida to'rtlamchi ammoniy tuzini olish muhim reaksiyalardan hisoblanadi. Piridin bilan to'rtlamchi ammoniy tuzi bilan xitozan asosida xitozanning to'rtlamchi ammoniy tuzi sintez qilindi. Xitozanning musbat zaryadlangan birikmasi antibakterial xossaga ekanligi aniqlandi. Sintezi qilingan birikmalar fizik kimyoviy usullar IQ va PMR spektroskopik usullarda tahlil qilindi. Natijalarni shuni ko'rsatdiki, xitozanning to'rtlamchi ammoniy tuzi hosil bo'lgan ekanligini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Piridin, xitozan, monoxlorsirka kislotasining efilrlari, DMFA, etanol, aseton, harora, IQ, PMR.

Kirish. Xitozan funksional xossasini guruhlarini o'zgartirish orqali keng spektrli antibakterial faollikka, biokompatibillikka va biologik parchalanishga ega bo'lib, uni tibbiyot, qishloq xo'jaligi, kosmetika, to'qimachilik va oziq-ovqat qadoqlash kabi turli sohalarda ishlatiladigan birikmalarni olish mumkin [1-7]. Shunga qaramay, xitozanning cheklangan suvda eruvchanligi va past antibakterial faolligi uning keng qo'llanilishini cheklaydi. Xitozan molekular tuzilmasiga azotli geterotsikllar, alkil uzun zanjirlar, to'rtlamchi ammoniy tuzlarini va boshqalarni kiritish antibakterial faolligini samarali ravishda oshirishi mumkin [8-9]. To'rtlamchi ammoniy tuziga o'tkazilgan xitozan kuchaytirilgan musbat zaryad bilan, uning antibakterial faolligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Xitozanni to'rtlamchi ammoniy tuzi olishning eng keng tarqalgan usuli, xitozan molekulyar tuzilishdagi amin guruhlarini to'rtlamchi ammiak tuzlari strukturalariga ega kichik molekulyalar bilan bog' hosil qila oladi. Xitozanni bevosita to'rtlamchi ammoniy tuziga o'tkazishning ikki asosiy usuli mavjud, Shiff asosining reaksiyasini alkilgaloginid bilan reaksiyasi orqali to'rtlamchi ammoniy holatiga o'tkazish mumkin [10].


O'simliklarga zarar yetkazuvchi qo'ziqorinlar butun dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligida katta yo'qotishlariga sabab bo'ladi, chunki ular hosilning mahsuldorligi va sifatiga ta'sir qiladi. An'anaviy kimyoviy qo'ziqorinlarga qarshi preparatlar samarali bo'lsada, ular atrof-muhitning zaharlanishi, patogenlarga qarshilik va organizmlariga salbiy ta'sirlar bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, alternativ, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan qo'ziqorinlarga qarshi vositalarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Xitozan o'zining ko'p funktsionalligi va zaharsizligi kabi noyob biokimyoviy xususiyatlari tufayli ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda [11-12]. Shu xulosalardan kelib chiqib Xitozan asosida to'rtlamchi ammoniy tuzlari sintez qilindi.



Xitozan hosilalarining sintetik yo'li quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi

Tadqiqotning obekti va metodologiyasi. Sintez qilingan birikmalarning xususiy fizik-kimyoviy kattaliklarini aniqlashda zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan foydalindi. Bunda birikmalarning IQ spektrlari Perkin-Elmer firmasining IQ-Fure Cistema 2000 spektrometrida KBr li tabletkalarda YaMR 1H, 13C - spektrlari ishchi chastotasi 400 MGs bo'lgan Unity-400+ va ishchi chastotasi 600 MGs bo'lgan Jeol-600 uskunalarda (ichki standart GMDs, δ -shkalasi) deyterillangan CD3COOD, DMSO eritmalarida olindi. Sintez qilingan birikmalarning suyuqlanish harorati «MEL-TEMP» (AQSh) uskunalarida aniqlandi. Birikmalarni sintez qilishda termik va mexanik mustahkam shaffof kvarts shishali (BorSilicatum 3.3 markali) kolba va stakanlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokamasi. Piridinining monoxlorsirka kislotasining pentil-, izo-pentil-, geksil-, efirlari bilan reaksiyalari, ularning optimal sharoitlarini tanlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar keltirilgan. Piridinining monoxlorsirka kislotasining efirlari bilan reaksiyasi quyidagi sxema asosida boradi:



R – C₅H₁₁, izo-C₅H₁₁, C₆H₁₃.

Buning uchun piridin va monoxlorsirka kislotasining efirlari etil spirtida eritilib 1:2 mol nisbatda aralashtiriladi. Shundan so'ng idish sovutilganda mahsulot unumining yuqori emasligi aniqlandi. Reaksiyalar 30-40, 50-60, 70-80 °C temperatura oralqlarida o'tkazilib, barcha tajribalarda 50-60°C temperatura oralig'ida mahsulotlar yuqori unumda chiqishi aniqlandi. Shu sababli keyingi barcha tajribalar 50-60°C da 2-4 soat davomida qizdirish bilan olib borilgan. So'ngra olingan tuzlar bir sutka davomida vakuumda quritildi.

Piridin bilan monoxlorsirka kislotasining efirlarini reaksiyalari natijalaridan kelib chiqib reaksiyaning optimal sharoitlari o'rganildi. Reaksiya unumiga erituvchlar, reaksiyaning vaqti, reaksiyaning harorati ham reagentlarning mol nisbatlarining ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.


1.1-Jadval

Piridin va monoxlorsirka kislotasi efirlari orasidagi reaksiyalarning optimal sharoitda borishi

No	Uchlamchi amin	MXSK efirlari	Erituvchi	Reaksiya vaqti	Harorat, C°	Reagentlar-ning mol nisbatlari	Unumi
2	Piridin	pentil	Etanol	3	60	1:2	84
3		Izo-pentil	Etanol	3	60	1:2	84
4		geksil	Etanol	3	60	1:2	80

Olingan tuzlarni tozalash maqsadida ular etil spirtiga solindi, faollantirilgan ko'mir qo'shib qizdirildi va issiq holda filtrlandi, so'ngra spirtidan qayta kristallandi. Natijada oq rangli tuzlar hosil bo'ladi. [13-17]

Olingan to'rtlamchi ammoniy tuzini xitozan bilan reaksiyalari olib borildi. Xitozanning to'rtlamchi ammoniy tuzini sintez qilish orqali suvda eruvchan birikmasi olindi bu esa xitozanni biologik faoligini oshirish bilan bir vaqtda uning qo'llanilish sohasini ham kengaytiradi.



R – C₅H₁₁, izo-C₅H₁₁, C₆H₁₃.

Reaksiyani olib borish uchun optimal sharoitlari o'rganildi. Erituvchilardan DMFA bilan reaksiya olib borilib reaksiya vaqti xar-xil intervallarda olib borildi shu vaqtlardan 3 soat davom etgan reaksiyada mahsulot unumi yuqori bo'ldi. Hosil bo'lgan to'rtlamchi ammoniy tuzini unumiga reaksiya haroratini ta'siri o'rganilganda 40-50 °C da olib borilgan reaksiyada to'rtlamchi ammoniy tuzini unumi yuqori bo'ldi.

Biologik faolligi. (Antifungal assay) Zamburug'lar o'sishini ingibirlash xossasi- Bu test zamburug'larning o'sishiga ta'sir etuvchi aktiv moddalarni aniqlash va ularning samaradorligini baholashga yordam beradi. Antifungal testning umumiy jarayoni quyidagicha bo'lishi mumkin:

Xitozanning to'rtlamchi ammoniy tuzini, anionik deionizatsiyalangan suvda 5 mg/mL konsentratsiyasida eritilgan. Har bir namunani eritmasi kartoshka dekstrozasiga bilan aralashtirilgan va tegishli ravishda 0,1, 0,5 va 1,0 mg/ml konsentratsiyalarda tayyorlab olindi. 120 °C da sterilizatsiya qilindi. plastinkada (6,5 sm diametr) soviganidan so'ng, zamburug' metsileysi disk (5 mm) test plastinkasiga o'tkazilib, 27 °C da inkubatsiya qilingan. Nihoyat, zamburug' metsileysi nazorat plastinkasining chetlariga


yetganida (namunasiz plastinka) test plastinkasidagi o'sish zonasining diametri (D_a) va nazorat plastinkasidagi o'sish zonasining diametri (D_b) o'lchandi. Inkubatsiya indeks quyidagi formulaga asosan hisoblangan:

$$(\%) = \left(1 - \frac{D_a - 5}{D_b - 5}\right) \times 100$$

Bu yerda D_a - test plastinkasidagi o'sish zonasining diametri, D_b esa nazorat plastinkasidagi o'sish zonasining diametridir. Bu formula o'sish zonasining nazorat plastinkasidagi diametri (D_b) va test plastinkasidagi o'sish zonasining diametri (D_a) o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Bu indeks zamburug'larning o'sishi necha foizga kamayganini ko'rsatadi va antifungal faoliyatning samaradorligini baholashda yordam beradi.

Tadqiqot ishining natijalari. IK-spektr SPECORD-75IR va Avator 360 spektrofotometrlarida KBr tabletkalarida olindi.

Xitozan va Xitozanning piridinni to'rtlamchi ammoniy tuzi bilan xosil qilgan to'rtlamchi ammoniy tuzini xitozanning hosilalari IQ-spektri ko'rsatilgan **1-rasm**. Xitozanning N-H valent bog'lari va O-H guruhiga mos bo'lgan chastotalar tebranishlari 3200–3500 cm^{-1} diapazonidagi keng cho'qqi bilan xarakterlanadi. Xitozanning 2878 cm^{-1} , 1600 cm^{-1} , 1156 cm^{-1} va 1078 cm^{-1} da kuzatilgan yutilish chastotalari C-H xos tebranishi amid bog', C-O-C bog' uchun xos bo'lgan tebranishi va ikkilamchi gidroksil guruhi uchun C-O valent tebranishlarga tegishli. Aromatik halqadagi C-H ning tekislikdan tashqari deformatsion tebranishlar 650 cm^{-1} dan 900 cm^{-1} gacha bo'lgan diapazonda qayd etilgan. Xitozan bilan to'rtlamchi ammoniy tuzi hosil bo'lganligini ifodalovchi, 1467 cm^{-1} , 1467 cm^{-1} , 1464 cm^{-1} va 1471 cm^{-1} da paydo bo'lgan yangi cho'qqilar -N^+ ning cho'zilish tebranishlarini bildiradi. Bu, xitozan hosilalarining muvaffaqiyatli sintezi amalga oshganligini bildiradi.




1-rasm. Xitozan va Xitozanni to'rtlamchi ammoniy tuzning IQ-spektri.

^1H YaMR - spektrlari ishchi chastotasi 400 MGs bo'lgan Unity-400+ va ishchi chastotasi 600 MGs bo'lgan Jeol-600 uskunalarida (ichki standart GMDs, δ -shkalasi) deuterillangan CD_3COOD , DMSO eritmalarida olindi 2-rasm.

Xitozan: ^1H NMR (500 MHz, D_2O): δ 3.75–3.58 (m, 4H, $\text{H}_3\text{--H}_6$), δ 3.02 (s, 1H, H_2);

Xitozanni to'rtlamchi ammoniy tuzi: ^1H NMR (500 MHz, D_2O): δ 8.68 (s, 1H, He), δ 8.40 (m, 2H, H_c), δ 8.06 (s, 1H, H_b), δ 7.81 (s, 1H, H_d), δ 4.31 (s, 1H, H_n), δ 4.06 (s, 1H, H_a), δ 3.85–3.69 (m, 4H, $\text{H}_3\text{--H}_6$), δ 3.24 (s, 9H, H_o), δ 2.85 (s, 1H, H_2), δ 2.66 (s, 6H, H_m).



Xulosa. Piridin asosida to'rtlamchi ammoniy tuzini sintez qilib olinganda suvda eriydan tuz hosil bo'ldi. Xitozan biologik faol modda ekanligini inobatga olib uning biologik faolligini oshirish uchun to'rtlamchi ammoniy tuzi bilan sintezlari olib borildi. Natija xitozanning suvda eriydigan birikmasi olindi. Xitozanning manfiy zaryadlari antibakterial xossasini oshiradi va shundan kelib chiqib biologik faolligi ham keskin o'zgarishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR

1. A. Anitha, S. Sowmya, P.T.S. Kumar, S. Deepthi, K.P. Chennazhi, H. Ehrlich, M. Tsurkan, R. Jayakumar, Prog. Polym. Sci. 39 (2014) 1644–1667.
2. H.S. Adhikari, A. Garai, M. Thapa, R. Adhikari, P.N. Yadav, J. Macromol. Sci., Part A 59 (2022) 211–227.
3. Y. Chen, Y. Liu, Q. Dong, C. Xu, S. Deng, Y. Kang, M. Fan, L. Li, Int. J. Biol. Macromol. 235 (2023) 123716.
4. H.S. Adhikari, A. Garai, P.N. Yadav, Carbohydr. Res. 526 (2023) 108796.
5. W. Lai, L. Wang, Y. Pang, M. Xin, M. Li, L. Shi, Y. Mao, Food Chem. 455 (2024) 139908.
6. A. Nwabike Amitaye, E.E. Elemike, H.B. Akpeji, E. Amitaye, I. Hossain, J.I. Mbonu, A.E. Aziza, J. Environ. Chem. Eng. 12 (2024) 113208.
7. H.S. Adhikari, A. Garai, C. Khanal, P.N. Yadav, Carbohydrate Polymer Technologies and Applications 7 (2024) 100469.
8. S. Omid, A. Kakanejadifard, Carbohydr. Polym. 208 (2019) 477–485.
9. J. Liu, H. Chen, Y. Lv, H. Wu, L.j. Yang, J. Zhang, J. Huang, W. Wang, J. Agric. Food Chem. 72 (2024) 11185–11194.
10. M.E.I. Badawy, J. Appl. Polym. Sci. 117 (2010) 960–969.
11. K. Xing, X. Zhu, X. Peng, S. Qin, Agron. Sustain. Dev. 35 (2015) 569–588.
12. X. Yuan, J. Zheng, S. Jiao, G. Cheng, C. Feng, Y. Du, H. Liu, Carbohydr. Polym. 220 (2019) 60–70.
13. Borikhonov Bakhtiyor., Berdimurodov Elyor., Kholikov Tursunali., Nik W. B. Wan., Katin, Konstantin P., DEMİR Muslim., Sapaev Frunza., Turayev Sherzod., Jurakulova Nigora., Eliboev Ilyos. Development of new sustainable pyridinium ionic liquids: From reactivity studies to mechanism-based activity predictions. *Journal of Molecular Modeling* Том 30, Выпуск 11 November 2024 Номер статьи 359. doi 10.1007/s00894-024-06157-y.

13. Abdullayev Bakhodir., Rakhimov Murodullo., Borikhonov, Bakhtiyor., Dustov Aziz., Samadiy Murodjon. Study of the mutual influence of components in the system potassium sulfate-lithium sulfate-water. AIP Conference ProceedingsТом 3184, Выпуск 114 June 2024 Номер статьи 020012.
14. Elyor Berdimurodov., Khasan Berdimuradov., Ashish Kumar., Ilyos Eliboev., Nodira Eshmamatova., Bakhtiyor Borikhonov., Sardorbek Otajonov. Chapter 16 - Catalysis and electrocatalysis application of nanofibers and their composites. Polymeric Nanofibers and their. Composites Recent Advances and Applications. Woodhead Publishing in Materials 2025, Pages 405-421.
15. Khasan Berdimuradov., Elyor Berdimurodov., Brahim El Ibrahimi., Burak Tuzun., Hicham Es-Soufi., Sadhucharan Mallick., Bakhtiyor Borikhonov. Utilization of Encapsulated Corrosion Inhibitors in the Biomedical Industry. *Encapsulated Corrosion Inhibitors for Eco-Benign Smart Coatings*. 2024. Pages19.
16. Elyor Berdimurodov., Khasan Berdimuradov., Ilyos Eliboev., Bakhtiyor Borikhonov., Abduvali Kholikov., Khamdam Akbarov., Sidikov Abdualol. Inorganic Compounds as Scale Inhibitors. *Industrial Scale Inhibition: Principles, Design, and Applications*. First published: 21 June 2024 <https://doi.org/10.1002/9781394191208.ch14>



УДК: 547.972:582.734.4

Бобур РАХМОНОВ,
Базовый докторант Национального университета Узбекистана
Рахмат ЭСАНОВ,
Старший научный сотрудник, к.х.н., PhD ИБОХ при АН РУз
Малохат РАХМАТОВА,
Старший научный сотрудник, к.х.н., PhD ИХРВ при АН РУз
Алимжан МАТЧАНОВ,
Ведущий научный сотрудник, д.х.н., проф. ИБОХ при АН РУз

На основе отзыва проф. ИБОХ АН РУз, D.Sc. Абдулладжанова Н.Г.

ФЛАВОНОИДНЫЙ СОСТАВ *PYRUS PYRASTER* ИЗ ЮГО-ВОСТОЧНОЙ ЧАСТИ БАХМАЛЬСКОГО РАЙОНА ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В данной статье представлены результаты исследования флавоноидного состава экстрактов плодов дикорастущей груши (*Pyrus pyraster*), произрастающей в юго-восточной части Бахмальского района Джизакской области Республики Узбекистан. Методом высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) с диодно-матричным детектированием идентифицированы и количественно определены основные флавоноидные соединения: галловая кислота, рутин, изокверцетин и гиперозид. Установлено, что наибольшее содержание флавоноидов наблюдается в водных экстрактах, при этом рутин является доминирующим соединением ($39,06 \pm 0,04$ мг/100 г сухого вещества). Сравнением эффективности экстрагента с использованием различных растворителей (вода, 40% и 70% этанол), показано, что оптимальным условием выделения биологически активных веществ является вода. Результаты исследования свидетельствуют о высоком потенциале плодов растения *Pyrus pyraster* как источника природных антиоксидантов для применения в фармацевтической, пищевой и косметической промышленности. Особое внимание уделено перспективам использования экстрактов в функциональных продуктах питания и нутрицевтики.

Ключевые слова: *Pyrus pyraster*, флавоноиды, экстракция, ВЭЖХ, антиоксидантная активность, рутин, функциональные продукты.

FLAVONOID COMPOSITION OF *PYRUS PYRASTER* FROM THE SOUTH-EASTERN PART OF BAKHMAL DISTRICT, JIZZAKH REGION, REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Аннотация

This article presents the results of a comprehensive study on the flavonoid composition of wild pear (*Pyrus pyraster*) fruits growing in the southeastern part of the Bakhmal district in the Jizzakh region of Uzbekistan. Using high-performance liquid chromatography (HPLC) with diode array detection, the main flavonoid compounds were identified and quantified: gallic acid, rutin, isoquercetin, and hyperoside. It was established that the highest content of flavonoids is observed in aqueous extracts, with rutin being the dominant compound (39.06 ± 0.04 mg/100 g of dry matter). A comparison of extraction efficiency using various solvents (water, 40% and 70% ethanol) was conducted, which enabled the determination of optimal conditions for isolating biologically active substances. The research results demonstrate the high potential of *Pyrus pyraster* as a source of natural antioxidants for applications in pharmaceutical, food, and cosmetic industries. Particular attention was given to the prospects of using these extracts in functional foods and nutraceuticals.

Key words: *Pyrus pyraster*, flavonoids, extraction, HPLC, antioxidant activity, rutin, functional products.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAH VILOYATI BAXMAL TUMANINING JANIBUY-SHARQIY QISMIDAN TERILGAN *PYRUS PYRASTER*NING FLAVONOID TARKIBI

Аннотация

Ushbu ishda O‘zbekiston Respublikasi Jizzah viloyati Baxmal tumanining janubiy-sharqiy qismida o‘tuvchi yovvoyi nok (*Pyrus pyraster*) mevalari ekstraktlarining flavonoid tarkibi natijalari keltirilgan. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) usuli yordamida diod-matritsali deteksiya bilan asosiy flavonoid birikmalar: gall kislotasi, rutin, izokversetin va giperazidlar identifikatsiyalandi va miqdoriy aniqlandi. Flavonoidlarning eng ko‘p miqdori suvli ekstraktlarda aniqlangan bo‘lib, bunda rutin ($39,06 \pm 0,04$ mg/100 g quruq moddaga nisbatan) asosiy birikma sifatida tavsiflandi. Turli erituvchilar (suv, 40% va 70% etanol) ishtirokida ekstragent samaradorligini taqqoslash natijalariga ko‘ra, suv biologik faol moddalarni ajratib olishning optimal sharoiti sifatida baholandi. Tadqiqot natijalari *Pyrus pyraster*ni farmatsevtika, oziq-ovqat va kosmetika sanoatida qo‘llash uchun tabiiy antioksidantlar manbasi sifatida uning mevalari yuqori potentsialga egaligini tasdiqlaydi. Bunda asosiy mezon ekstraktlarni oziq-ovqat va nutritsevtika funksional mahsulotlarida qo‘llash istiqbollari qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Pyrus pyraster*, flavonoidlar, ekstraksiya, YuSSX, antioksidant faollik, rutin, funksional mahsulotlar.

Введение. Растительные флавоноиды обладают высокой биологической активностью, не являются токсичными, аллергенными и пирогенными. Это позволяет широко использовать их в медицинской практике. В области медицины на

основе флавоноидов созданы антиоксидантные, гепатопротекторные, диуретические и нейротропные фитопрепараты, которые изготавливаются из лекарственных растений, содержащих флавоноиды. Флавоноиды обладают широким спектром биологической активности, включая противовоспалительную, противовирусную, противораковую и бактерицидную. На основании вышеизложенной информации целью данного научного исследования является изучение химического состава и биологической активности дикорастущего растения груши *Pyrus Pyraster*. Исследования, проведенные до сих пор, были специально посвящены изучению влияния видов *Pyrus* на контроль диабета и заживление язв, а их плоды богаты клетчаткой и являются низкокалорийным источником микроэлементов, необходимых для здоровья крови, костей и сердечно-сосудистой системы.

Анализ соответствующей литературы. Флавоноиды представляют собой один из наиболее значимых классов вторичных метаболитов растений, обладающих широким спектром биологической активности, включая антиоксидантное, противовоспалительное, антимикробное и противоопухолевое действие [1]. Их способность нейтрализовать свободные радикалы и модулировать клеточные сигнальные пути делает их перспективными для профилактики и лечения таких заболеваний, как диабет, сердечно-сосудистые патологии и нейродегенеративные расстройства [2].

Pyrus pyraster (дикая груша) — малоизученный вид, распространенный в горных районах Центральной Азии. В отличие от культурных сортов груш (*P. communis*, *P. pyrifolia*), химический состав *P. pyraster* остается недостаточно исследованным, особенно в условиях Узбекистана [3]. Предыдущие работы показали, что плоды груш богаты полифенолами, флавоноидами и тритерпенами, однако данные по их количественному содержанию и оптимальным методам экстракции ограничены [4].

На сегодняшний день из плодов *Pyrus Pyraster* выделены полифенолы, флавоноиды, глюкозиды и тритерпены, изучены их физико-химические свойства [5-6]. Кроме того, китайские ученые выделили из кожуры и сока плодов различных сортов груш ряд биологически активных соединений (хлорогеновая кислота, арбутин, урсоловая кислота, олеаноловая кислота, эпикатехин и рутин) и определили их химическую структуру [7].

В работе был проведен качественный и количественный анализ флавоноидов, количественное определение процианидинов в цветках естественно произрастающей *Pyrus communis* и в цветках культурных сортов. Флавоноидные соединения исследованы хроматографическими методами. Образцы флавоноидов обнаружены во всех исследованных растительных материалах. Содержание флавоноидов определяли методами Крист-Мюллера и ВЭЖХ после кислотного гидролиза. Количественное определение процианидинов проводили спектрофотометрическим методом [8].

Из 60%-ных этанольных экстрактов незрелых плодов груши (*Pyrus pyrifolia Nakai*) с использованием колонки ВЭЖХ Amberlite XAD-2 с направленным анализом нейтрализации радикалов DPPH (2,2-дифенил-1-пикрилгидразил) было выделено 14 соединений. На основании анализа МС и ЯМР выделенные соединения были идентифицированы как метиловый эфир 5-О-транс-кофеилхинной кислоты (1), малаксовая кислота (2), метиловый эфир 5-О-транс-п-кумароилхинной кислоты (3), метиловый эфир 5-О-цис-п-кумароилхинной кислоты (4), 5-О-транс-п-кумароилхинной кислоты (5), транс-кумаровая кислота (6), метил-цис-п-кумарат (7), метил-транс-п-кумарат (8), 3,5-О-дикофеилхинная кислота (9), (-)-эпикатехин (10), (S)-(+)-2-цис-абсцизовая кислота (11), изорамнетин 3-О-β-D-галакто-пиранозид (12), Изорамнетин-3-О-β-D-глюкопиранозид (13) и изорамнетин 3-О-α-L-рамнопиранозид (1→6)-О-β-D-глюкопиранозид (14). Восемь соединений (3-5, 7, 8, 11, 12 и 14) были впервые выделены из груши [9].

Поэтому целью данной работы явилось качественного и количественного флавоноидного состава растения *Pyrus pyraster* произрастающей в юго-восточной части Бахмальского района Джиззакской области Узбекистана.

Методология исследования. Для выделения флавоноидов широко используются водные и этанольные экстракты, причем эффективность метода зависит от полярности целевых соединений [10]. Современные методы анализа, такие как ВЭЖХ с масс-спектрометрией (ВЭЖХ-МС), позволяют точно идентифицировать и количественно определять флавоноиды даже в сложных матрицах [11].

Для изучения состава флавоноидов плодов дикой груши – *Pyrus Pyraster*, сушеные плоды экстрагировали водой, 40% и 70% этанолом при 70-75°C в течение 3 часов, при интенсивном перемешивании в соотношении растворитель : растение (90:10). Экстракты отфильтровывали и аликвоту объемом 100 мл разбавляли 9,9 мл системы растворителей ацетонитрил:буфер (ацетат) 70:30 (1 мг/мл). Центрифугировали и фильтровали через мембранный фильтр. Использовали хроматографическую систему *Agilent Technologies 1260*, подвижная фаза – ацетонитрильный буферный раствор (30:70) (изократический режим). pH=2,92, объем ввода – 5 мкл при скорости подвижной фазы 0,75 мл/мин. Колонка – *Eclipse XDB* – C18. 5,0 мкм, 4,6х250 мм. Детектор представляет собой диодно-матричный детектор, и был обнаружен на длинах волн 254 нм, 320 нм и 381 нм. В результате было обнаружено, что плоды содержат флавоноиды, такие как галловая кислота, рутин, изокверцетин и гиперозид.

Среди большого разнообразия природных соединений одним из наиболее распространенных и многочисленных классов с высокой биологической активностью являются фенольные соединения, которые включают флавоноиды. Фенолы демонстрируют сильную защиту от развития и прогрессирования многих хронических патологических состояний, включая рак, диабет, сердечно-сосудистые заболевания и старение. Низкая токсичность и высокая фармакологическая активность фенолов делают их перспективными для профилактики и лечения ряда серьезных заболеваний. Эти природные вещества необходимы организму, поэтому необходим постоянный прием пищи или добавок [12].

Анализ и результаты. Для анализа флавоноидов с помощью ВЭЖХ был выбран объект, произрастающий в предгорных ландшафтах Бахмальском районе Джиззакской области Узбекистан, поскольку это дерево имеет среднюю высоту стебля, количество листьев и размер плодов. В таблице представлено содержание флавоноидов в плодах *Pyrus pyraster*. Эта таблица показывает наличие галловой кислоты, рутина, изокверцетина и гиперозида в плодах *Pyrus pyraster*, тогда как робинин и кверцетин отсутствовали в плодах растения. Концентрация рутина в листьях *Pyrus pyraster* была самой высокой среди всех идентифицированных флавоноидов.




Рис. 1. ВЭЖХ-хроматограмма водного экстракта




Рис. 2. ВЭЖХ-хроматограмма 40% этанольного экстракта




Рис.3. ВЭЖХ-хроматограмма 70% этанольного экстракта

Водный экстракт плодов растения *Pyrus pyrastrer* показал наибольшее содержание всех анализируемых соединений. С увеличением концентрации этанола в экстрагенте содержание флавоноидов уменьшается. Рутин является преобладающим флавоноидом во всех типах экстрактов. Рутин участвует в окислительно-восстановительных процессах, улучшая соединительную ткань и насыщение кислородом. Рутин оптимизирует обмен веществ, отвечает за прочность сосудов, предотвращает преждевременное старение и защищает от аллергических реакций, ингибируя синтез гистамина.

Таблица 1

Количество некоторых идентифицированных флавоноидов в плодах *Pyrus pyrastrer* (мг/100 г воздушно-сухого вещества)

Образец	Экстракт	Галловая кислота	Рутин	Изокверцетин	Гиперазид	Рабинин	Кверцетин
<i>Pyrus pyrastrer</i>	Водный	19.09±0.01909	39.06±0.03906	3.46±0.00346	1.41±0.00141	-	-
	40% EtOH	6.13±0.00613	12.49±0.01249	-	-	-	-
	70% EtOH	2.57±0.00257	4.28±0.00428	3.30±0.00330	-	-	-

Примечание: данные представлены в виде среднего значения и стандартной ошибки (n=3).

Исследования последних лет подтверждают, что плоды груш содержат значительное количество флавоноидов, таких как рутин, кверцетин и изокверцетин, которые обладают выраженной антиоксидантной активностью [13]. Например, в *P. communis* содержание рутина достигает 25 мг/100 г, а в *P. calleryana* — до 45 мг/100 г [14]. Содержание рутина в *P. pyrastrer* выше, чем в *P. communis* [15]. Биологическая активность рутина — антиоксидантное, цитопротекторное, вазопротекторное, нейропротекторное, антиканцерогенное и кардиопротекторное действие [16].

Выводы и предложения. В исследуемом участке находилась самая большая популяция растения *Pyrus pyrastrer*. Этот результат может быть связан с повышенной влажностью в этой высокогорной местности, в том числе большим количеством осадков. Результаты флавоноидного состава *Pyrus pyrastrer* предоставляют информацию о морфобиологических, экологических и ценологических особенностях и структуре ценопопуляций этого вида. Флавоноидный профиль *Pyrus pyrastrer* включает галловую кислоту, рутин, изокверцетин и гиперазид. Было показано, что рутин замедляет процессы старения клеток и повышает эффективность химиотерапии против рака [17]. Гиперазид имеет широкий терапевтический потенциал при лечении диабета, амнезии, рака и т. д. В экспериментах на животных галловая кислота подавляет рост раковых клеток.

Таким образом было изучено качественное и количественное содержание флавоноидного растения *Pyrus pyrastrer* произрастающей в юго-восточной части Бахмальского района Джиззакской области Узбекистана и показано что оно содержит такие флавоноиды как: содержит галловую кислоту, рутин, изокверцетин и гиперазид. В будущем целесообразно производить БАД (биологически активную добавку) из плодов растения в качестве средства против диабета.

ЛИТЕРАТУРА

- Kumar, S., & Pandey, A. K. (2013). Chemistry and biological activities of flavonoids. *Scientific World Journal*, 2013, 162750.
- Li, X., et al. Bioactive compounds in pear cultivars. *Journal of Agricultural and Food Chemistry*, 2014, Vol. 62(3), pp. 658–668.
- Ganeshpurkar, A. Rutin: A therapeutic potential. *Chemico-Biological Interactions*, 2017, Vol. 273, pp. 154–159.
- Kolniak-Ostek, J.; Kłopotowska, D.; Rutkowski, K. P. Comparative study of phenolic compounds in wild and cultivated pears. *Food Chem.* 2020, Vol. 321, 126706.
- M. Braham, R. Ouni. IRESA, Университет Суца Франция; INRA, университет Авиньона и Пэ-Дю-Воклюз, Тунис, 2017.
- J. Kolniak-Ostek, D. Kłopotowska, K.P. Rutkowski. Вроцлавский университет окружающей среды и наук о жизни, Вроцлав, Польша; Научно-исследовательский институт садоводства, Польша, 2020.

7. X. Li, T. Wang, B. Zhou, W. Gao, J. Cao, L. Huang. Тяньцзиньский университет, Тяньцзинь, Китай, 2014.
8. Izabela Rychlińska, Jan Gudej. Qualitative and quantitative chromatographic investigation of flavonoids in *Pyrus communis* L. flowers. *Acta Poloniae Pharmaceutica - Drug Research*. 2003 January, Vol. 60(1), pp. 81-5.
9. Yu Geon Lee, Wol Kim, Jeong-Yong Cho, Tae-Il Jeon. Coumaroyl quinic acid derivatives and flavonoids from immature pear (*Pyrus pyrifolia nakai*) fruit. *Food Sci. Biotechnol.* 2013, Vol. 22(3), pp. 803-810.
10. Chand, P.; Kumar, H.; Jain, R.; Jain, A.; Jain, V. Flavonoids as omnipotent candidates for cancer management. *S. Afr. J. Bot.* 2023, Vol. 158, pp. 334–346.
11. Ganeshpurkar, A.; Saluja, A. K. The pharmacological potential of rutin. *Saudi Pharm. J.* 2017, Vol. 25, pp. 149–164.
12. Chand P., Kumar H., Jain R., Jain A., Jain V. Flavonoids as omnipotent candidates for cancer management. *South African Journal of Botany*. 2023, Vol. 158, pp. 334–346.
13. Rychlińska, I.; Gudej, J. Qualitative and quantitative chromatographic investigation of flavonoids in *Pyrus communis* L. flowers. *Acta Pol. Pharm.* 2003, Vol. 60, pp. 81–85.
14. Lee, Y. G.; Kim, W.; Cho, J.-Y.; Jeon, T.-I. Coumaroyl quinic acid derivatives and flavonoids from immature pear (*Pyrus pyrifolia* Nakai) fruit. *Food Sci. Biotechnol.* 2013, Vol. 22, pp. 803–810.
15. Williams, R. J.; Spencer, J. P. E.; Rice-Evans, C. Flavonoids: Antioxidants or signalling molecules? *Free Radic. Biol. Med.* 2004, Vol. 36, pp. 838–849.
16. Ganeshpurkar, A., & Saluja, A. K. Protective effect of rutin on humoral and cell mediated immunity in rat model. *Chemico-Biological Interactions*, 2017, Vol. 273, pp. 154–159.
17. Bahare Salehi, Alessandro Venditti, Mehdi Sharifi-Rad, Dorota Kregiel. The Therapeutic Potential of Apigenin. *International Journal of Molecular Sciences*. 2019, Vol. 20, pp. 1305.



UDK: 546, 541.39, 547

Dilnoza RAXMONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dots., k.f.d

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, PhD M.Ibragimova taqrizi asosida

THE MOLECULAR AND CRYSTAL STRUCTURES OF 3-(1H-BENZ[d]IMIDAZOL-2-YL)PROPAN-1-OL AND ITS NITRATE SALT

Annotation

3-(1H-benz[d]imidazol-2-yl)propan-1-ol which has potential biological activity, can be used as a ligand for complexation with metals. This compound is an electron donor, due to the lone pair of the nitrogen atom in the imidazole ring. This nitrogen atom also acts as a proton acceptor. In the crystalline phase, the nitrate salt, namely, 3-(1H-benz[d]imidazolium-2-yl)propan-1-ol nitrate, ($C_{10}H_{13}N_2O^+ \cdot NO_3^-$), has been studied. The protonation of the 3-(1H-benz[d]imidazol-2-yl)propan-1-ol unit results in significant delocalization of the electron density within the imidazole ring. The salt formation leads to variations in the intermolecular interactions, which were studied by analysis of the Hirshfeld surfaces and two-dimensional fingerprint plots.

Key words: 3-(1H-benz[d]imidazol-2-yl)propan-1-ol, 3-(1H-benz[d]imidazolium-2-yl)propan-1-ol nitrate, X-ray structural analysis, Hirshfeld surfaces, two-dimensional fingerprint plots.

МОЛЕКУЛЯРНОЕ И КРИСТАЛЛИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ 3-(1H-БЕНЗ[d]ИМИДАЗОЛ-2-ИЛ)ПРОПАН-1-ОЛА И ЕГО НИТРАТНОЙ СОЛИ

Аннотация

Соединение 3-(1H-бенз[d]имидазол-2-ил)пропан-1-ол представляет интерес благодаря своей потенциальной биологической активности и способности выступать в качестве лиганда для металлов. Атом азота в имидазольном кольце проявляет свойства как донора электронов (за счет неподеленной электронной пары), так и акцептора протонов. Исследование нитратной соли этого соединения, 3-(1H-бенз[d]имидазолий-2-ил)пропан-1-ол нитрата ($C_{10}H_{13}N_2O^+ NO_3^-$), показало, что протонирование бензимидазольной части вызывает значительное перераспределение электронной плотности в имидазольном кольце и приводит к изменениям в межмолекулярных взаимодействиях, которые были проанализированы с использованием поверхностей Хиршфельда и двумерных отпечатков пальцев.

Ключевые слова: 3-(1H-бенз[d]имидазол-2-ил)пропан-1-ол, нитрат 3-(1H-бенз[d]имидазолий-2-ил)пропан-1-ола, рентген структурный анализ, поверхностей Хиршфельда.

3-(1H-BENZ[d]IMIDAZOL-2-IL)PROPAN-1-OL VA UNING NITRATLI TUZINING MOLEKULYAR VA KRISTALL TUZILISHI

Annotatsiya

Potensial biologik faollikka ega bo'lgan 3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol metallar bilan kompleks hosil qilish uchun ligand sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu birikma imidazol halqasidagi azot atomining taqsimlanmagan juft tufayli elektron donoridir. Ushbu azot atomi proton akseptori vazifasini ham bajaradi. Nitratlil tuzi, ya'ni 3-(1H-benz[d]imidazolium-2-il)propan-1-ol nitrating kristall tuzilishi, ($C_{10}H_{13}N_2O^+ \cdot NO_3^-$) o'rganilganda 3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol zvenosining protonlanishi natijasida imidazol halqasidagi elektron zichlikning sezilarli delokallanishi sodir bo'ladi. Tuzlarning hosil bo'lishi molekulalararo o'zaro ta'sirlarning o'zgarishiga olib keladi, bu Xirshfeld sirtlari va ikki o'lchovli barmoq izlari grafiklarini tahlil qilish orqali o'rganildi.

Kalit so'zlar: 3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol, 3-(1H-benz[d]imidazolium-2-il)propan-1-ol nitrat, rentgen strukturaviy tahlil, Xirshfeld sirt tahlili.

Kirish. Benzimidazol asosi farmatsevtik kimyoda muhim geterosiklik tuzilma hisoblanadi. Uning hosilalari yuqori biofaollikka ega bo'lib, turli patologiyalarga qarshi farmatsevtik preparatlar yaratish uchun perspektiv manba sanaladi. Benzimidazol asosidagi dori vositalari antibakterial, antifungitsid, antiparazit, antimikrob, yallig'lanishga qarshi va boshqa farmakologik ta'sirlarni ko'rsatadi. Hozirgi kunda klinik amaliyotda keng qo'llaniladigan ko'plab muhim dori vositalari aynan benzimidazol tuzilishiga ega (masalan, omeprazol, albendazol). Antibiotiklarga rezistentlikning kuchayishi, onkologik patologiyalar va virusli infeksiyalarning keng tarqalishi kabi global ahamiyatga molik sog'liqni saqlash muammolarini hal etish maqsadida benzimidazol fragmentini o'z tarkibiga kiritgan yangi avlod farmatsevtik agentlarni funksionallashtirish va sintez qilishga qaratilgan intensiv ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarkibida azot bo'lgan geterotsikllar metall bilan kompleks birikmalar hosil qiluvchi yakka juft donorlar bo'lishi mumkin, bunda halqadagi azot metall atomi bilan bog'lanadi [1]. Siklik azot atomining taqsimlanmagan jufti protonlanib, organik kation hosil qilishi mumkin [2, 3]. Protonlangan kation tutgan birikmalar qarshi ionlar bilan birikish natijasida hosil bo'lishi ko'rsatilgan [4]. Ionli assotsiatlar deb ham ataladigan bunday birikmalar oddiy tuzlar bilan murakkab (koordinatsion) birikmalar orasidagi oraliq birikmalardir.

Maqolada 3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol (L) va uning nitratlil tuzi ($[LH^+][NO_3^-]$) ni molekulay va kristall tuzilishlari hamda Xirshfeld sirt tahlili yordamida molekulalaro ta'sirlashuvlari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqsadga erishish uchun 3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol molekulasini va uni nitratli tuzining sintez qilish usullari ishlab chiqilgan va ularning sintezi amalga oshirilgan. Sintez qilingan birikmalarning tuzilishi rentgen strukturaviy analiz va Xirshfeld sirt tahlili yordamida o'rganilgan.

Kimyoviy birikmalar sintez qilish uchun moddalarning «k.a.t.» markasidan foydalanilgan.

3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol (L) sintezi quyidagi metodika bo'yicha amalga oshirildi. 373 K da 1,2-fenilendiamin (2,16 g, 0,02 mol) xlorid kislotada (25 ml, 4 M) eritildi va eritma ustiga 4-gidroksibutirik kislota (2,82 g, 0,02 mol) qo'shildi. Aralashma 398 K da 6 soat davomida qaytar sovutgichda qizdirildi. Xona haroratigacha sovutilgandan so'ng, aralashma NaOH yordamida neytrallandi (pH 7–9). Mahsulot suvli etanol eritmasida eritildi va tozalash uchun aktivlangan ko'mir bilan qayta ishlandi. Hosil bo'lgan L cho'kmasi filtrlandi va ochiq havoda quritildi. Rentgen nurlari diffraksiyasi tahlili uchun mos bo'lgan och-jigar rangli monokristallar etanol eritmasidan sekin bug'lantirish yo'li bilan qayta kristallandi (Unumi 80%, suyuqlanish harorati 437 K).




[LH⁺]NO₃⁻ tuzining sintezi uchun 3×10^{-3} mol mis(II) nitrat tuzi suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritma suv hammomida qizdirildi va doimiy aralashtirib turilgan holda 6×10^{-3} mol ligandning spirtli to'yingan eritmasi bilan aralashtirildi, natijada eritma yashil rangga ega bo'ldi. Gidroksidlarning cho'kishini oldini olish maqsadida eritmaning pH qiymati nitrat kislotaga qo'shish orqali 5 ga yetkazildi. Reaksiya aralashma 40 daqiqa davomida suv hammomida qizdirgan holatda aralashtirib turildi, so'ngra kristallanishga qo'yildi. Uch kun o'tgach, hosil bo'lgan qaymoq rangli kristallar ajratib olindi, etanol bilan yuvildi va havoda quritildi. Mahsulotning unumi 62% ni tashkil etdi, suyuqlanish harorati esa 371–373 K oralig'ida aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Rentgen strukturaviy tahlil (RSA) [5,6] natijasida 3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol (L) molekulasining tekis tuzilishiga ega ekanligi aniqlandi (1-rasm). Uning benzimidazol fragmentidagi bog' uzunliklari halqa bo'ylab elektron zichligining delokallanishi tufayli tekislangan bo'lib, standart qiymatlarga mos keladi.


3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-olning nitrat kislotaga [LH⁺]NO₃⁻ bilan o'zaro ta'siri natijasida olingan monokristallarning rentgenostrukturaviy tahlili kislotali muhitda ligandning geterotsiklidagi azot atomining protonlanishini ko'rsatadi (2-rasm). Natijada benzimidazoliy kationi hosil bo'ladi. Protonlanish endotsiklik azot atomida sodir bo'ladi, bu esa Pirsonning QYKA (qattiq, yumshoq kislotaga va asos) nazariyasiga ko'ra, gidroksil guruhining kislorod atomiga qaraganda ancha "yumshoq" donor markazdir. Bu esa Pirsonning QYKA nazariyasiga zid keladi, chunki proton (H⁺) "qattiq" kislotalarga tegishli bo'lib, u "qattiq" asoslar bilan afzal bog'lanishi kerak. Protonlanish ligand molekulasining tekis tuzilishini buzilishiga va geterotsikldagi bog' uzunliklarining o'zgarishiga olib keladi. Bundan tashqari, nitrat anionning strukturaga kiritilishi propanol o'rinbosarining stereokimyosiga ta'sir qiladi.

Neytral L molekulasining (1-rasm) molekulyar tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, C7–N1 va C7–N2 bog'lari har xil uzunlikka ega [N1–C7 = 1,322 (4) Å va N2–C7 = 1,352 (4) Å]. Ammo uning protonlangan [LH⁺]NO₃⁻ shaklida ular standart noaniqliklarga ega bo'ladi [N1–C7 = 1,329 (2) Å va N2–C7 = 1,331 (2) Å]. Protonlanish vaqtida elektron zichligining bunday delokallanishi protonlangan L molekulasining tuzilishini quyidagi sxemada ko'rsatilganidek, ikkita rezonans strukturaning superpozitsiyasi sifatida tasvirlash imkonini beradi.



Neytral va protonlangan L molekulari gidroksialkil o'rinbosarining konformatsiyasi bilan farqlanadi. Neytral L molekulasida gidroksialkil o'rinbosar benzimidazol fragmentiga deyarli koplanar (N2–C7–C8–C9 torsion burchagi 15,3 (4)° ni tashkil etadi). Gidroksialkil o'rinbosar to'liq trans-konformatsiyaga ega (mos ravishda C7–C8–C9–C10 va C8–C9–C10–O1 = 179,8 (3)° va 178,7 (3)°) bo'ladi.

Protonlangan L molekulasida esa gidroksialkil o'rinbosar benzimidazol fragmentlariga nisbatan ortogonal burilgan (N2–C7–C8–C9 = 103,1 (2)°) va ap-, -sc konformatsiyaga ega (mos ravishda C7–C8–C9–C10 va C8–C9–C10–O1 = 179,3 (2)° va 62,3 (2)°). Demak, protonlanish natijasida molekulaning geometriyasida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi, xususan, gidroksialkil o'rinbosarining benzimidazol fragmentiga nisbatan torsion burchagi va gidroksialkil guruhining konformatsiyasi o'zgaradi. Bu o'zgarishlar molekulaning boshqa xususiyatlariga, masalan, uning boshqa molekular bilan o'zaro ta'sirlashish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin.



1-Rasm. 3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol molekulasining molekulyar tuzilishi

1-Jadval

Birikmalarning asosiy kristallografik ma'lumotlari

Kimyoviy formulasi	C ₁₀ H ₁₂ H ₂ O (L)	C ₁₀ H ₁₂ N ₂ O ⁺ ·NO ₃ ⁻ ([LH ⁺]NO ₃ ⁻)
M _r (g·mol ⁻¹)	176,22	239,23
Singoniya, fazoviy guruh	Orthorhombic, P2 ₁ 2 ₁ 2 ₁	Monoklinik, P2 ₁ /n
Harorat (K)	293	293
a, b, c (Å)	5,852 (2), 12,437 (3), 12,444 (3)	8,5100 (3), 8,2525 (4), 16,5130 (7)
α, β, γ (°)	90, 90, 90	0, 93,760 (4), 90



V (Å ³)	905,7 (4)	1157,19 (9)
Z	4	4
ρ (g·cm ⁻³)		1,975
Nurlanish turi	CuKα	CuKα
μ (mm ⁻¹)	0,69	0,91
Kristall o'lchami (mm)	0,12 × 0,10 × 0,08	0,12 × 0,10 × 0,08
T _{min} , T _{max}	0,958, 1,000	0,739, 1,000
O'lchangan, mustaqil va kuzatilgan akslanishlar soni [I>2σ(I)]	3945, 1371, 1191	4122, 2345, 1644
R _{int}	0,029	0,021
θ _{max} (°)	62,0	75,8
(sin θ / λ) _{max} (Å ⁻¹)	0,573	0,629
N _{reflections} , N _{parameters}	1371, 166	2345, 167
R[F ² > 2σ(F ²)], wR(F ²), S	0,039, 0,091, 1,06	0,044, 0,128, 1,04
Δρ _{max} , Δρ _{min} (e·Å ⁻³)	0,11, -0,19	0,16, -0,15

2-Jadval

3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol tuzilishidagi vodorod bog'lanishlari geometriyasi

Bog'	Masofa, Å			Burchak
D—H...A	D...A	D...H	H...A	D—H...A, grad
N2—H2N...O1 ⁱ	2,772 (3)	0,84 (3)	1,95 (3)	165 (3)
O1—H1...N1 ⁱⁱ	2,741 (3)	0,85 (4)	1,90 (4)	169 (4)
C3—H3...C3 ⁱⁱⁱ	3,770 (4)	0,97 (4)	2,87 (4)	154 (3)


Simmetriya kodi: (i) x+1/2, -y+1/2, -z+1; (ii) -x+1/2, -y+1, z+1/2; (iii) x+1/2, -y+12, -z

2-Rasm. [LH]⁺NO₃⁻ molekulasining molekulyar tuzilishi (a) va dimeri (b)

3-Rasm. 3-(1H-benz[d]imidazol-2-il)propan-1-ol molekulasining kristall joylashuvi. [100] yo'nalishdagi proyeksiyasi.

L kristallidagi molekullar O—H...N va N—H...O vodorod bog'lari orqali o'zaro bog'langan (2-jadval). N—H...O vodorod bog'lari [100] yo'nalishida cho'zilgan zigzagsimon zanjirlarni hosil qiladi. Ushbu zanjirlar [010] va [001] yo'nalishlarida O—H...N vodorod bog'lari orqali bir-biri bilan bog'lanadi (3-rasm, o'ngda; zanjirlar ko'k rangda ko'rsatilgan). Bundan tashqari, L molekullari orasida kuchsiz C3—H...C3 o'zaro ta'sirlar ham mavjud (1-jadval). Nitratli tuzining kristallida protonlangan L molekullari N—H...O vodorod bog'lari orqali bog'lanib, markazga nisbatan simmetrik dimerlarni hosil qiladi. Ushbu dimerlar [001] yo'nalishida ko'priksimon nitrat anionlari bilan N—H...O, O—H...O va C—H...O vodorod bog'lari orqali o'zaro bog'langan (3-jadval, 4-rasm). LH⁺ molekullarining imidazol halqalari o'rtasida [010] yo'nalishda bosh-dum tipidagi π...π o'zaro ta'sirlar kuzatiladi. Bu o'zaro ta'sirlashuvchi π-sistemalar orasidagi masofa 3,502(2) Å ni tashkil etadi.

Xirshfeld sirt tahlili [7] molekullararo o'zaro ta'sirlarni chuqurroq o'rganish imkonini beruvchi zamonaviy usul hisoblanadi. Bu usul neytral L molekuli va uning protonlangan shaklining turli molekullararo o'zaro ta'sirlarda ishtirok etish qobiliyatini qiyoslash uchun samarali hisoblanadi. L va LH⁺ molekullari uchun Xirshfeld sirtlari d_{norm} bo'yicha xaritalangan standart yuqori sirtini ajrata olish qobiliyati yordamida hisoblab chiqilgan (5-rasm). O'rganilgan ikkala tuzilishda ham donor va akseptor atomlar atrofida kuchli vodorod bog'lanishlari natijasida yorqin qizil dog'lar kuzatiladi. Bu dog'lar mazkur atomlarning molekullararo o'zaro ta'sirlarda faol ishtirok etishidan dalolat beradi. L molekulasining N1 atomida aniqlangan yorqin qizil dog' uning protonlanishga yoki metall ionlari bilan kompleks birikmalar hosil qilishga yuqori moyilligini ko'rsatadi.

4-Rasm. [LH]⁺NO₃⁻ molekulasidagi kristall qadoqlanishi. [010] yo'nalishidagi proyeksiyasi. Vodorod bog'lari havorang chiziqlar bilan ko'rsatilgan.


3-Jadval

[LH]⁺NO₃ molekulasida tuzilishidagi vodorod bog'lanishlari geometriyasi


Bog'	Masofa, Å			Burchak
D-H...A	D...A	D...H	H...A	D-H...A, grad
N2—H2N...O2	2.755 (2)	0.86 (2)	1.90 (2)	173 (2)
N1—H1N...O1i	2.696 (2)	0.91 (2)	1.78 (2)	177 (2)
O1—H1O...O2ii	2.866 (2)	0.90 (3)	2.06 (3)	149 (3)
O1—H1O...O4ii	2.951 (3)	0.90 (3)	2.14 (3)	150 (3)
C5—H5...O4iii	3.251 (3)	0.93	2.43	147

Simmetriya kodi: (i) $x+2, -y+1, -z+1$; (ii) $-x+3/2, -y+1/2, z+3/2$; (iii) $-x+1/2, -y-1/2, -z+3/2$

L va LH⁺ molekularidagi ikki o'lchamli barmoq izi diagrammalari nitrat tuzining strukturasi vodorod bog'lari kuchliroq ekanligini ko'rsatadi (5-rasm). Gistogrammadan ko'rinib turibdiki, L molekulasining protonlanishi va nitrat anionining mavjudligi X - H·O vodorod bog'lari bilan bog'liq bo'lgan O·H/H·O o'zaro ta'sirlarining hisssasi sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, N·C/C·N va C·C o'zaro ta'sirlarining hisssasi [LH]⁺NO₃ strukturasi imidazol halqalari orasidagi "stacking" (taxlanish) ham ortishini ko'rsatadi (6-rasm). [LH]⁺NO₃ strukturasi N·H/H·N o'zaro ta'sirlarining (X-H...N bog'lanishi) hisssasi sezilarli darajada kamayishi L strukturasi vodorod bog'larining proton akseptori sifatida ishtirok etadigan N1 atomining protonlanishi bilan izohlanishi mumkin.



5-Rasm. L va [LH]⁺NO₃ molekularidagi d_{norm} bo'yicha xaritalangan Xirshfeld sirtlari (yuqorida) va ikki o'lchamli barmoq izi diagrammalari (pastda).



6-Rasm. L va [LH]⁺NO₃ tuzilmalaridagi Xirshfeld umumiy sirtiga eng kuchli molekulararo o'zaro ta'sirlarning nisbiy hisssasi (%).

X - H·C vodorod bog'lari bilan bog'liq bo'lgan C·H/H·C o'zaro ta'sirlarining turli hisssasi L strukturasi C - H·C vodorod bog'ining mavjudligi (2-jadval) va [LH]⁺NO₃ strukturasi shunga o'xshash o'zaro ta'sirlarning yo'qligi (3-jadval) bilan mos keladi. Nitrat anionlari [LH]⁺NO₃ strukturasi ko'priq vazifasini bajaradi, bu esa LH⁺ molekularlari orasidagi masofaning oshishiga olib keladi. [LH]⁺NO₃ tuzilishida H·H o'zaro ta'sirlari hisssasining kamayishi kuzatiladi (6-rasm).

Xulosa va takliflar. Sintez qilingan ligand va kompleks tuzning tuzilishi RSA yordamida o'rganilganda neytral L molekulasida gidroksialkil o'rinbosar benzimidazol fragmentiga koplanarliligi, protonlangan L molekulasida esa gidroksialkil o'rinbosar benzimidazol fragmentlariga nisbatan ortogonal burilganligi hamda ap-, -sc konformatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Protonlanish natijasida molekulaning geometriyasida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi, xususan, gidroksialkil o'rinbosarining benzimidazol fragmentiga nisbatan burilish burchagi va gidroksialkil guruhining konformatsiyasi o'zgaradi. Bu o'zgarishlar molekulaning xususiyatlariga, ya'ni boshqa molekular bilan o'zaro ta'sirlashish qobiliyatiga ta'sir qilishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

- Mottillo C. & Fris'c'ic' T. Supramolecular imidazolium frameworks: direct analogues of metal azolate frameworks with charge-inverted node-and-linker structure // Chem. Commun. – 2015. – Iss. 51. – P.8924-8927.
- Bayar I., Khedhiri L., Soudani S., Lefebvre F., Ferretti V. & Ben Nasr C. Crystal structure, quantum mechanical investigation, IR and NMR spectroscopy of two new organic perchlorates: (C₆H₁₈N₃)·(ClO₄)₃H₂O (I) and (C₉H₁₁N₂)·ClO₄(II) // J. Mol. Struct. 2018. – V.1161. –P. 486-496.
- Abou A., Coulibali S., Kakou-Yao R., Jérémie Zoueu T., Jules Tenon A. Crystal structure of 3-(2-hydroxyethyl)-2-methyl-sulfanyl-6-nitro-3H-benzimidazol-1-ium chloride monohydrate // Acta Crystallogr E Crystallogr Commun. – 2016. – V.72. – P. 1356-1359.
- Pilipenko A.T. & Tananaiko M.M. Mixed-ligand and mixed- metal complexes and their application in analytical chemistry. Moscow: Chemistry. 1983.
- Sheldrick G.M. SHELXT– Integrated space-group and crystal-structure determination // Acta Crystallographica. Section A Foundations and Advances. – 2015. – V.71(1). – P.3-8.
- Siemens XP. Molecular Graphics Program. Version 5.03. // Siemens Anal. X-Ray Instrum. Inc., Madison, Wisconsin, USA, 1994.
- Turner M.J., McKinnon J.J., Wolff S.K., Grimwood D.J., Spackman P.R., Jayatilaka D. & Spackman M.A. CrystalExplorer17. University of Western Australia. 2017. <http://Hirshfeldsurface.net>



UDK: 544.4.547.26

Xurshid SAIDOV,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, PhD

E-mail: xmsaidov@gmail.com,

Nurali MUXAMADIYEV,

Samarqand davlat universiteti professori, k.f.d

Dotsent Z.Aminov taqrizi asosida

BA'ZI d-ELEMENTLAR OKSIDLARI ASOSIDA KATALIZATOR SINTEZI

Аннотация

Tadqiqot ishining ob'yekti sifatida d-elementlar oksidlari asosida zol-gel texnologiyasi, solution-combustion synthesis usulida katalizator sintezi amalga oshirilgan. Katalizatorning fazaviy tarkibi rentgen diffraktometriya (XRD), element tarkibi esa rentgen mikrotahlili, past haroratli adsorbsiya - desorbsiya usullaridan foydalanilgan. Katalizatorning tarkibida asosiy tarkibiy qism Ni dan tashqari Mg, Al, Ti, Zr, va Cr komponentlari saqlagan nanodispersli fazaviy tarkibli birikmalar ekanligi o'rganilgan. Olingan katalizatorning solishtirma sirt yuzasi $S=455 \div 510 \text{ m}^2/\text{g}$, umumiy g'ovaklarining $74,3\% \div 60,5\%$ i makrog'ovaklardan, $25,7\% \div 39,5\%$ i esa mezog'ovaklardan iboratligi, to'yinish adsorbsiyalari $5,4 \pm 0,3 \text{ (a}_s, \text{ mol/kg)}$, g'ovaklarning o'rta diametri esa $18,5 \pm 1,7 \text{ nm}$ ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: polioksidli katalizator, solution-combustion synthesis, kompozit, diffraktometriya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, sorbsiya, konversiya, sintez gazi.

СИНТЕЗ КАТАЛИЗАТОРА НА ОСНОВЕ ОКСИДОВ НЕКОТОРЫХ d-ЭЛЕМЕНТОВ

Аннотация

Объектом исследования являлся синтез катализатора на основе оксидов d-элементов с использованием золь-гель технологии и синтеза методом горения-растворов. Фазовый состав катализатора определялся с помощью рентгеновской дифрактометрии (РФА), а элементный состав – с помощью рентгеновского микроанализа и методов низкотемпературной адсорбции-десорбции. Установлено, что в состав катализатора входят нанодисперсные фазовые соединения, содержащие, помимо основного компонента Ni, компоненты Mg, Al, Ti, Zr и Cr. Определена удельная поверхность полученного катализатора $S=455 \div 510 \text{ м}^2/\text{г}$, $74,3\% \div 60,5\%$ от общего числа пор составляют макропоры и $25,7\% \div 39,5\%$ - мезопоры, адсорбция насыщения составляет $5,4 \pm 0,3 \text{ (a}_s, \text{ моль/кг)}$, а средний диаметр пор составляет $18,5 \pm 1,7 \text{ нм}$.

Ключевые слова: полиоксидный катализатор, синтез горения-растворов, композит, дифрактометрия, сканирующая электронная микроскопия, сорбция, конверсия, синтез-газ.

SYNTHESIS OF THE CATALYST BASED ON OXIDES OF SOME d-ELEMENTS

Annotation

The object of the research work was the synthesis of catalyst based on d-element oxides using sol-gel technology, solution-combustion synthesis. The phase composition of the catalyst was determined by X-ray diffractometry (XRD), and the elemental composition was determined by X-ray microanalysis, low-temperature adsorption-desorption methods. It was found that the catalyst composition is a nanodispersed phase composition containing, in addition to Ni, the main component, Mg, Al, Ti, Zr, and Cr components. The specific surface area of the obtained catalyst is $S=455 \div 510 \text{ m}^2/\text{g}$, $74.3\% \div 60.5\%$ of the total pores are macropores, $25.7\% \div 39.5\%$ are mesopores, the saturation adsorption is $5.4 \pm 0.3 \text{ (a}_s, \text{ mol/kg)}$, and the average diameter of the pores is $18.5 \pm 1.7 \text{ nm}$.

Key words: polyoxide catalyst, solution-combustion synthesis, composite, diffractometry, scanning electron microscopy, sorption, conversion, synthesis gas.

Kirish. Tabiiy gaz va qayta tiklanadigan biogazning asosiy komponenti bo'lgan metan past uglerodli iqtisodiyotga o'tish uchun asosiy resurs hisoblanadi [1]. Metan asosida qimmatli kimyoviy mahsulotlarga – sintez gazi, metanol, olefinlar yoki suyuq yoqilg'ilarga aylantirish uchun bir qator fundamental va texnologik muammolar mavjud. CH_4 molekulasining yuqori barqarorligi (C-H bog'lanish energiyasi 434 kJ/mol ga yetadi), funksional guruhlarning yo'qligi va to'liq oksidlanish yoki pirolizning selektiv bo'lmagan reaksiyalariga moyilligi alohida faollik va barqarorlikka ega katalizatorlarni ishlab chiqishni talab qiladi [2]. Bundan tashqari, kokslanishni kamaytirish va u bilan bog'liq metandan foydalanish uchun atrof-muhitga bo'lgan talablarning oshishi, masalan, neft konlarida, katalitik konversiya sohasida innovatsion yechimlarga bo'lgan ehtiyojni ta'kidlaydi [3]. Tabiiy gazni konversiya qilishning barcha jarayonlari, turli xil turdagi katalizatorlardan foydalanish bilan bog'liq. Kataliz sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri esa yangi avlod katalizatorlari va hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan xorijiy analoglarni almashtirish imkonini beruvchi texnologiyalarni ishlab chiqishdir [4].

Shu nuqtai nazardan, polioksid katalizatorlari, jumladan, murakkab metall oksidlari (masalan, perovskitlar, shpinellar), zeolitlar va d-metall oksidlari nanokompozitlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu katalizatorlarning tarkibi va tuzilishini o'zgartirish orqali yuqori faollik va haroratga barqarorligi, ekstremal haroratlarda sodir bo'ladigan jarayonlar uchun juda muhim [5].

Bu usulda metallar va ularning birikmalari boshlang'ich nuqta hisoblanib, normal sharoitda qattiq holatdagi va murakkab tuzilishli moddalar hisoblanadi. Gidrazin karboksilat gitratining elementar yacheykasida yonuvchi elementlarning bo'lishi (H,C),

ularga juda yaqin masofada (angstrom) kislorod atomining bo'lishi yonish jarayonida ultradispers tuzilishli qattiq metall oksidi va juda ko'p miqdordagi gazlar hosil bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Ushbu jarayon quyidagidan iborat:



Bu reaksiyaning o'ziga xos xususiyati ko'p miqdordagi gaz mahsulotlari (22 mol) va (2 mol) temir oksidi hosil bo'lishiga olib keladi. Defferensial issiqlik effekti orqali hisoblashlarni amalga oshirilganda past temperaturada parchalanish reaksiyasi bir necha bosqichlarda sodir bo'lishi endotermik, ekzotermik va umumiy oksidlanish hisobiga issiqlik hosil bo'lishini ko'rish mumkin. Bu yerda metall atomi o'rinda $\text{Me} = \text{Ni}, \text{Zn}, \text{Mg}, \text{Mn}, \text{Co}$ va h.k lar bo'lishi mumkin [6].

Polioksid tizimlarini sintez qilishning zol-gel, gidrotermik sintez, cho'ktirish zamonaviy metodlari kimyoviy faollashtirish morfologiyasi, faol markazlarning tarqalishi va materiallarning teksturasini aniq nazorat qilish imkonini beradi [6]. Masalan, mezog'ovakli, yuqori sirt yuzaga ega, faol markazlarning ko'p bo'lgan tuzilmalarning hosil bo'lishi konversiya reaksiyalarida katalizator sirtida adsorbsiya-desorbsiya jarayonini kuchaytiradi va promotorlarni (Cr, Ti, Zr) kiritilishi katalizatorlarning oksidlanish qobiliyatini yaxshilaydi [7].

Sintez qilingan katalizatorlarning raqobatdosh, selektivliv hamda qayta tiklanadigan katalizatorlar sintezini kengaytirish, konversiya jarayonida energiya sarfini kamaytirishga doir tadqiqotlar olib borish dolzarbligicha qolmoqda. Kompozitli katalizatorlar va nanomateriallar sintezida Zol-gel texnologiyasining yuqori haroratga asoslangan hamda kukun zarrachalarining toza va kristallanish darajasini yuqori bo'lishini ta'minlaydigan eritmada yonish (solution-combustion synthesis) usulida olib borildi. Usulning afzalligi sintez jarayonining qisqa vaqtlarda yuz berishi va ko'p miqdordagi gazlar mahsulotlarining hosil bo'lishi zarrachalarning yiriklashishiga yo'l qo'ymaydi hamda yuqori sirt yuzaga ega bo'lgan nanostrukturali katalizatorlar hosil bo'lishiga olib keladi [8,9].

Ushbu ma'lumotlardan qayd etish mumkinki, nanomateriallar-katalizatorlar, nanosorbentlar, nanokeramika, superkondensatorlar, optik materiallar, yoqilg'i elementlari va biotexnologiyada qo'llaniladigan buyumlar sintezini qamrovini oshiradi [10,11,12].

Ushbu maqola sintez usullari, material tuzilishi va ularning katalitik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikka urg'u berib, metan konversiyasi uchun polioksid katalizatorlarini ishlab chiqishdagi so'nggi yutuqlarni umumlashtiradi. Nanoarxitektura tashuvchilar va gibrid tizimlardan foydalanish kabi innovatsion yondashuvlar hamda ushbu texnologiyalarni sanoatga joriy etish istiqbollariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ish natijalari aylanma iqtisodiyot tamoyillariga mos keladigan energiya tejankor va ekologik toza metanni qayta ishlash jarayonlarini yaratishning ilmiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.


Tadqiqot metodologiyasi. Sintez jarayonida quyidagi reaktivlardan foydalanildi: $\text{Ni}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, $\text{Ti}(\text{NO}_3)_4$, $\text{Cr}(\text{NO}_3)_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $\text{Al}(\text{NO}_3)_3 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$, $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$, $\text{C}_2\text{H}_5\text{NO}_2$, HNO_3 va polioksidli kompozitli katalizatorlar olindi: $\text{NiO} \cdot \text{MgO} \cdot \text{TiO}_2 \cdot \text{Cr}_2\text{O}_3 / \text{Al}_2\text{O}_3$.

Solution-combustion synthesis usulida kompozit katalizatorlar sintezi quyidagicha amalga oshirildi: ularning o'zaro ta'sirlashishini hisobga olgan holda xona temperaturasida distillangan suvda turli xil eritmaları tayyorlandi. Kislotali muhit hosil qilish uchun nitrat kislotadan foydalanildi. Tayyorlangan eritmalar alohida kolbalarga qo'yildi va bir-biri bilan yaxshilab aralashtirildi. Elektr isitgich yordamida reaksiyon eritma qaynash nuqtasiga qadar isitildi. Qaynash jarayonida eritmada suvning bug'lanishi sodir bo'ldi hamda eritmaning qaynashi natijasida eritmada quyuq massa hosil bo'lib, gaz hosil qiluvchi mahsulotlar paydo bo'la boshladi. Distillangan suvning bir qismi bug'langan so'ng, eritma gelsimon mahsulotga aylandi. Temperatura gelning yonish temperaturasiga qadar ko'tarilgandan so'ng, gelning o'z-o'zidan yonishi ya'ni, yonish sodir bo'ldi [13,14]. Gelning yonishi natijasida zich bo'lmagan, yuqori g'ovaklikka ega sintez mahsuloti hosil bo'ldi. Olingan sintez mahsuloti bir xil ko'rinishga kelguncha 10 minut davomida maydalagichda maydalandi va kuydirish pechida 800°C haroratda, haroratning oshib borish tartibi 1-2 °C/min da 4 soat davomida kuydirildi va kompozitli mahsulot olindi [15].


Sintez qilingan katalizatorning fizik-kimyoviy xarakteristikalari identifikatsiyasi kompyuter bilan boshqariladigan Panalytical Empyran-rentgen difraktometr (XRD) da rentgen fazaviy tahlili [16], sirt yuza morfologiyasi skanerlovchi elektron mikroskop SEM EVO MA 10 (Carl Zeiss) va element tahlili [17] energiya dispersion rentgen spektrometr bilan jihozlangan (EDS Aztec Energy Advanted X-Act, Oxford Instruments) qurilmasi orqali katalizatorlarning solishtirma sirt yuzasi, g'ovaklarning o'rtacha diametri, g'ovaklarning hajmi, polimolekulyar adsorbsiya orqali monoqavat sig'imi hisoblandi va katalizatorlarning sorbsion izotermalari olindi.

Tahlil va natijalar. Sintez qilingan katalizatorlarning fizik-kimyoviy xarakteristikalari Panalytical Empyran-rentgen difraktometr (Shimadzu XRD) da rentgen fazaviy tahlili o'rganildi. Bu fazaviy tarkiblar bizga katalizatoridagi aktiv markazlarning tarkibini, sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalarni borishini belgilash va kimyoviy jarayonlarni baholash imkonini beradi. SEM-EDS tahlili zarrachalar o'lchami va asosiy tarkibiy qismni aniqlashning ajoyib usuli hisoblanadi. Bu usulda, shuningdek, namunalarning nano-xarakteristikalarini aniqlashning imkonini beruvchi analitik usuldir [17].

Katalizatorning tarkibini bir vaqtning o'zida ikki xil dopant ham xrom va ishqoriy metall bo'lgan magniy oksidi kiritish orqali ham uning fizik-kimyoviy xarakteristikalari tahlil qilindi. Birinchi navbatda rentgen spektrlarining intensivliklarining yuqori emasligini hamda spektrlar sonining ham ko'p emasligini kuzatishimiz mumkin (1 - rasm).



1-rasm. Katalizatorning rentgen difraktogrammasi tahlili




2-rasm. Katalizatorning belgilangan sirt yuzasida element tahlili


Bevosita spektrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, $2\theta = 24.5965$ da dastlabki pik qayd etilgan. Eng yuqori intensivlik $2\theta = 45.0729$ da hosil bo'lgan bo'lib, uning qiymati 2761.80 ga teng. Bundan tashqari yorqinroq intensivliklari yuqori bo'lgan spektrlar $2\theta = 27.4503$ da 2318.06, $2\theta = 36.1320$ da 1220.89, $2\theta = 54.3334$ da 1266.04 ni, $2\theta = 54.8672$ da $2\theta = 669.30$ larni tashkil etdi. Umumiy struktura amorf tuzilishga ega bo'lib, tarkibda kristall bo'lgan NiO, MgO, TiO₂, Cr₂O₃ va Al_{1,67}O₄ lar borligini ko'rish mumkin.

SEMga o'rnatilgan qo'shimcha qurilma Energodispersion rentgen spektrometr (EDS Aztec Energy Advanced X-Act, Oxford Instruments) rentgen mikroanalizi orqali katalizatorning belgilangan sirt yuzasida element tahlili o'tkazildi (2-rasm). Olingan ma'lumotlar asosida shuni qayd etish mumkinki, katalizatorning sirti 26,9 % nikel, 26,1 % kislorod, xrom 19,6 %, titan 17,2 %, 8,1 % alyuminiy va 2,2 % magniydan iborat ekan. Bu bizga katalizator sirtning alohida maydonlaridagi tarkibi dastlabki reagentlarning mol nisbatlariga mos kelishini hamda uning tarkibida boshqa qo'shimchalar mavjud emasligini ko'rsatdi.

Katalizatorning asosiy sirt yuza morfologiyasi SEM orqali tadqiq etilganda, butun yuza g'ovaklardan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin (3-rasm). Katalizatorning sirt yuzadan olingan g'ovaklarning bir-biriga yaqin o'lchamlarga ekanligi, unda g'ovaklanish darajasi juda katta va butun hajm bo'ylab g'ovaklanishni ko'rishimiz mumkin. Bu esa butun hajm bo'ylab sorbsiya jarayonlari sodir bo'lishini, butun hajmda katalitik markazlarning hosil bo'lishiga imkon beradi.



3-rasm. Katalizator sirtining SEM da olingan tasviri



4-rasm. katalizatorlarda benzol va toluol bug'larining adsorbsiya izotermalari

Sintez qilingan katalizatorlarda benzol va toluol bug'lari bo'yicha olingan izotermalar 4-rasmda keltirilgan bo'lib, ular IYUPAK tasnifi bo'yicha V tipga mansub ekanligi aniqlandi. Izotermalardan nisbiy bosim $p/p_0=0,5$ gacha keskin ko'tarilishi makrog'ovaklarning, $p/p_0=0,2 \div 0,5$ oralig'ida esa mezog'ovaklarning to'yinishini ko'rish mumkin.

Shu bilan bir qatorda adsorbsiyalangan benzol va toluol bug'lari kapillyar kondensatsiya hisobiga nisbiy bosim $p/p_0=0,5 \div 0,8$ oralig'ida adsorbsiya va desorbsiya chiziqlari birlashib gisterizis halqalari hosil qilishi aniqlandi. Adsorbsiya izotermalari orqali olingan ma'lumotlar katalizator umumiy g'ovaklarining 74,3% $\div$ 60,5% , makrog'ovaklardan 25,7% $\div$ 39,5% esa mezog'ovaklar ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, olingan ma'lumotlar asosida katalizatorning eng muhim tekstur xarakteristikallari: solishtirma sirti, g'ovaklar o'rtacha diametri to'yinish adsorbsiyalari hisoblab chiqilgan (jadval).

jadval

Katalizatorning benzol bug'lari adsorbsiyasi bo'yicha tekstur xarakteristikallari

Katalizator	S_{BET} , m ² /g	a_m , mol/kg	a_s , mol/kg	D, nm
NiO·TiO ₂ ·Cr ₂ O ₃ ·MgO / Al ₂ O ₃	455 $\pm$ 510	1,2 $\pm$ 0,1	5,4 $\pm$ 0,3	18,5 $\pm$ 1,7

Xulosa va takliflar.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ba'zi d-elementlar oksidlari asosida Zol-Gel texnologiyasining "solition-combusion synthesis" usulida NiO·TiO₂·Cr₂O₃·MgO / Al₂O₃ tarkibli polioksidli kompozit katalizator sintez qilindi.

2. Uning fazaviy va element tarkibi, tekstur, geometrik sorbsion va katalitik xarakteristikallari aniqlandi. Kompozit katalizatorning fazaviy tarkibi reagentlarning konsentratsiyasiga mosligi rentgen difraktometriya va EDS tahlillari orqali isbotlandi.

3. SEM da olingan natijalar esa katalizator sirtida g'ovaklar o'lchamlari sirt yuzasi umumiy g'ovaklarining 74,3% $\div$ 60,5% makrog'ovaklardan, 25,7% $\div$ 39,5% esa mezog'ovaklardan iboratligi, solishtirma sirt yuzasi $S=455 \div 510$ m²/g, to'yinish adsorbsiyalari 5,4 $\pm$ 0,3 (a_s , mol/kg), g'ovaklarning o'rtacha diametri esa 18,5 $\pm$ 1,7 nm ekanligi aniqlangan.

ADABIYOTLAR

- Базаров Б. Биометан из биогаза в качестве моторного топлива //Транспорт. – 2021. – С. 14.
- Ильичев А.Н. Изучение механизма окисления со на медьсодержащих катализаторах методами тпд и икс //Кинетика и катализ. – 2015. – Т. 56. – №. 2. – С. 198-198.
- Козлов М.С., Козлова Е.В. Инновационные технологии переработки попутного нефтяного газа //Endless light in science. – 2023. – С. 228-233.
- Дюбанов М.В., Артемов А.В., Краснобаев Ю.Л. Каталитические стадии плазменной переработки отходов. Паровая конверсия монооксида углерода // Industrial processes and technologies. – 2024. – Т. 4. – №. 2 (12). – С. 67-77.
- Смирнов А.Н. О возможности применения оксидных железо-магнезиальных контактов в реакции водяного газа //Актуальные проблемы современной науки, техники и образования. – 2017. – Т. 2. – С. 66-70.
- Taniguchi, K.T. Hirano, T. Tosho, T. Akiyama. Mechanical Activation of Self-Propagating High-Temperature-Synthesized LaFeO₃ to be Used as Catalyst for Diesel Soot Oxidation // Catalysis Letters, 2009. –Vol. 130.– №3-4. – P. 362-366.].
- Куйбокаров О.Э., Эгамназарова Ф.Д. Способ получения легких олефинов непосредственно из синтез-газа на бифункциональном катализаторе //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 7. – №. 4 (121). – С. 31-35.
- Кириллов В.А. Катализаторы конверсии углеводородных и синтетических топлив для бортовых генераторов синтез-газа //Катализ в промышленности. – 2023. – №. 1. – С. 60-67.

9. Saidov Kh.M and Mukhamadiyev N.K. Int. Conf. on Integrated Innovative Development of Zarafshan Region: Achievement, Challenges and Prospects, 2019. – pp 274-6
10. Dossumov K., Churina D.Kh., Myltykbaeva L.K., Tungatarova S.A. Oxide catalysts for hydrogen production from natural gas-methane in one stage // European Applied Sciences. - 2013. – Vol. 7. – P. 92-94.
11. Lapidus A.L., Zhagfarov, F.G., Sosna, M.Kh., Melnikov, A.P., Elkin, A.B., and Chung, Z. Study of the catalytic process of carbon dioxide conversion of natural gas // Gas chemistry. - 2009. - №. 3 (7). - P. 14-26.
12. Cross A, Roslyakov, S., Manukyan, K.V., Rouvimov, S., Rogachev, A.S., Kovalev, D., and Mukasyan, A. S. In situ preparation of highly stable Ni-based supported catalysts by solution combustion synthesis //The Journal of Physical Chemistry P. – 2014. – T. 118. – №. 45. – P. 26191-26198.
13. Novikov V, Xanthopoulou, G., Knysh, Y and Amosov, A.P. Solution Combustion Synthesis of nanoscale Cu-Cr-O spinels: Mechanism, properties and catalytic activity in CO oxidation //Ceramics International. – 2017. – T. 43. – №. 15. – P. 11733-11742.
14. Saidov Kh.M., SayitkulovSh.M., Mukhamadiev N.K. Synthesis of the catalysts based on oxides of some d-elements// Uzbek chemical journal. – 2019. –№. 4. P. 3-8.
15. Saidov K.M., Mukhamadiev N.K. Synthesis of the catalysts based on oxides of some d-elements //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – T. 1008. – №. 1. – C. 012035.
16. Saidov Kh.M., Sayitkulov Sh.M., Mukhamadiev N.K. Study of the spatial composition of sorbents obtained from various soil samples using X-ray phase diffractometry// Scientific Bulletin - 2016. - №. 1. - B.134-137.
17. Muhamadiev N. Metanning karbonatli konversiyasi kinetikasi va mexanizmi // Ilmiy axborotnoma (143/2). – 2024. – T. 1. – №. 149. – B. 5-12.



UDK: 547.982/83

Asadbek SARABEKOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: asadbeksarabekov@yandex.ru

PhD, katta ilmiy xodim R.Esonov taqrizi asosida

FLAVONOIDS OF THE INTRODUCED HELICHRYSUM MARACANDICUM PLANT ANNOTATION

This article presents information on the chemical composition of *Helichrysum maracandicum*, cultivated in the Bakhmal district of the Jizzakh region of the Republic of Uzbekistan. Based on the data obtained, it was found that the introduced plant *Helichrysum maracandicum* contains flavones, as well as apigenin of a flavan nature, luteolin and naringenin. The structure of all isolated flavonoids was confirmed by UV, IR, NMR ^1H and ^{13}C spectroscopy.

Key words: *Helichrysum* Mill. UV, IR, YaMR, YQX, apigenin, luteolin, naringenin.

ФЛАВОНОИДЫ ИЗ ИНТРОДУЦИРОВАННОГО РАСТЕНИЯ HELICHRYSUM MARACANDICUM Аннотация

В данной статье представлены сведения о химическом составе бессмертника маракандикум, возделываемого в Бахмальском районе Джизакской области Республики Узбекистан. На основании полученных данных установлено, что интродуцированное растение *Helichrysum maracandicum* содержит флавоны, а также апигенин флавановой природы, лутеолин и нарингенин. Строение всех выделенных флавоноидов подтверждено методами УФ, ИК, ЯМР ^1H и ^{13}C спектроскопии.

Ключевые слова: *Helichrysum* Mill. УФ, ИК, YaMR, YQX, апигенин, лутеолин, нарингенин.

INTRODUKSIYA QILINGAN HELICHRYSUM MARACANDICUM O'SIMLIGI FLAVONOIDLARI Аннотасија

Ushbu maqolada *Helichrysum* Mill. turkumiga mansub O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati, Baxmal tumanida madaniylashtirilgan *Helichrysum maracandicum* o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganishga bag'ishlangan ma'lumotlar keltirilgan. Olingan ma'lumotlar asosida introduksiya qilingan *Helichrysum maracandicum* o'simligi tarkibida flavon hamda flavan tabiatli apigenin, luteolin va naringenin flavonoidlari borligi aniqlandi. Ajratib olingan barcha flavonoidlarning tuzilishi UB, IQ, ^1H va ^{13}C YaMR spektroskopiya usullarida isbotlandi.

Kalit so'zlar: *Helichrysum* Mill, UB, IQ, YaMR, YQX, apigenin, luteolin, naringenin.

Kirish. O'simlik moddalarining kimyoviy tuzilishi va biologik faolligini o'rganish bir tomondan bioorganik kimyoni rivojlantirib, unda yangi yo'nalishlar paydo bo'lishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan zamonaviy samarali dorivor vositalarning yaratilishi va tibbiyot amaliyotiga tadbiiq etilishiga asos bo'ladi. Ko'pchilik sintetik dorivor vositalar hamda antibiotiklarning uzoq vaqt qo'llanilishi immunitetning pasayishi, allergiya hamda organizmdagi mikrofloraning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda turli kasalliklarni davolashda qo'llaniluvchi o'simlik moddalaridan tayyorlangan tabiiy dorivor vositalarning o'ziga xos jihati shundaki, ular, sintetik vositalardan farqli o'laroq, organizmga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Farmatsevtika sanoatida dori-darmon olinuvchi dorivor o'simliklar juda ko'p bo'lib, ular yurtimizning ulkan xazinasi hisoblanadi. Yurtimiz xududlarida 4500 dan ortiq o'simlik turi uchraydi, shulardan 600 ga yaqini shifobaxsh o'simliklardir.

O'simliklarning dorivorlik xususiyatlari ular tarkibidagi fiziologik faol moddalarga bog'liq. O'simliklar tarkibida uchrovchi alkaloidlar, kumarinlar, lignanlar, terpenoidlar, steroidlar, uglevodlar, turli fenol moddalar va ularning glikozidlari dorivor moddalar yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Helichrysum Mill. (o'lmaso't) turkumiga mansub o'simliklar flavonoidlarning boy manbalaridan hisoblanadi va ular qadimdan xalq tabobatida keng miqyosda qo'llaniladi. Zamonaviy farmakologik tadqiqotlar *Helichrysum* Mill. turkumiga mansub o'simliklardan olingan ekstraktlar va sof moddalar jigar faoliyatini yaxshilash, yallig'lanishga qarshi, antioksidant, antibakterial, antiviral, o't qopi faoliyatini yaxshilash, sestit va xoletssestitni davolash kabi xususiyatlariga ega ekanligini to'la tasdiqladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: *Helichrysum* Mill. turkumi o'simliklari *Asteraceae* (murakkabguldoshlar) oilasiga mansub bo'lib, yer yuzida 500 dan ortiq turi tarqalgan. O'zbekiston florasida esa mazkur turkumning 4 ta turi – *H. arenarium*, *H. maracandicum*, *H. mussae* va *H. nuratavicum* uchraydi. Ular orasida *Helichrysum maracandicum* keng tarqalgan tur hisoblanib, u Respublika hududida joylashgan deyarli barcha tog' tizmalarida o'sadi [1-5].


Helichrysum maracandicum Popov ex Kirp. (*Samarqand o'lmas o'ti*) ko'p yillik o'simlik bo'lib, bo'yi 15-75 sm, bir nechta vegetativ poyalar (2-10) hosil qiladi. Poyada barglar ketma-ket joylashgan, bargining uchki qismi o'tkirlashgan. Savatchasi limonrang sariq, yarim sharsimon yoki gullagan vaqtda sharsimon, diametri 8-10 mm, tojbarglarining uzunligi 0.6 mm, eni 0.1 mm. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgust oylari urug'i pishib etiladi. *Helichrysum maracandicum* yuqori polimorfik tur bo'lib, shakllarning o'ziga xos xususiyatlari yashash joyiga qarab o'zgaradi. Keng va ingichka bargli, katta va nisbatan kichik savatchali, sertuk va taksiz namunalari uchraydi [6]. Polimorfizm hodisalari tufayli hosil bo'lgan ikkilamchi metabolitlarning sifat va miqdoriy tarkibidagi farqlar kuzatilishi mumkin.

Qozog'iston florasida tarqalgan *H. maracandicum* o'simligi o'tkir va surunkali jigar, o't pufak va o't yo'llarining kasalliklarida qo'llaniladigan saffro haydovchi «Flamin» dori vositasini olish uchun xom ashyo sifatida tavsiya qilingan [6,7].

Tadqiqot metodologiyasi: O'zbekistonda o'suvchi *Helichrysum maracandicum* o'simligining kimyoviy tarkibi tadqiq etilgan, ammo *Helichrysum maracandicum* o'simligining madaniylashtirilgan turning kimyoviy tarkibi o'rganilmagan [8-10]. Yuqiridagi ma'lumotlarga tayangan xolda bu tadqiqotlarni davom ettirgan xolda O'zbekiston Respublikasining Jizzax viloyati, Baxmal tumanida madaniylashtirilgan *Helichrysum maracandicum* o'simligining kimyoviy tarkibi o'rganildi. O'simlik gullari iyun oyi oxirida gullash davrida terildi, quritib maydalandi va 70% li etil spirtida qaytar sovutgich ulangan 5 litrli kolbada 2 soat davomida ekstraksiya qilindi. Ekstraksiya 5 marotaba amalga oshirildi.

Olingan ekstraktlar rotorli bug'latgich uskunasi yordamida quyultirib, quritildi. Spirtli yig'indi birlashtirilib quyultirildi va massasi o'lchandi hamda suvda eritilib, suvda erigan qismi suyuqlik-suyuqlik usulida geksan, xloroform va etilatsetat erituvchilari bilan ketma-ket fraksiyalandi.

Olingan fraksiyalarning tarkibi YuQX usuli yordamida solishtirib tekshirildi. Bunda qutbsiz va moysimon moddalar geksanga, terpenoidlar sinfiga mansub moddalar xloroformga, fenol tabiatli va flavonoidlar etilatsetatga o'tishi aniqlandi. Tarkibida flavonoidlar saqlagan etilatsetatli fraksiya silikagelli kolonkalar, YuQX va qayta kristallash yo'li bilan sof holda ajratib olindi. O'simlik xom ashyosidan flavonoidlar tabiatli moddalar ajratib olish 1-sxemada keltirilgan.



Ekstraktning qismlarga bo'linishidan ko'zlangan asosiy maqsad, erituvchilarning qutbsizdan qutbligga o'zgartirish davomida moddalarning tabiatiga ko'ra ajratib olishni qulaylashtirish va yangi tuzilishga ega bo'lgan birikmalarni ajratib olishdan iborat.

O'simlikdan olingan (14 g) etilatsetatli fraksiya teng miqdorda silikagel bilan aralashtirilib, quritildi va silikagel joylangan kolonkaga o'tkazildi. Yuvuvchi sistema sifatida xloroform : metanol (90:10-80:20) ishlatildi. Olingan 1-4 fraksiyalar birlashtirilib sefadeks LH-20 sorbentda metanol-suv (80:20) sistemada qayta xromatografiya qilinganda sariq rangli apigenin (1), luteolin (2) moddalar ajratildi. Xloroform : metanol (80:20) sistemada ajralgan 41-44 faraksiyalar birlashtirilib qayta xromatografiya qilinganda och sariq rangli naringenin (3) birikmalari individual holda ajratib olindi.

Tahlil va natijalar. Ajratib olingan birikmalarning kimyoviy tuzilishlari ularning spektral ma'lumotlari (UB, IQ, ^1H va ^{13}C YaMR) orqali isbotlandi hamda ularning fizik-kimyoviy doimiyliklari o'rganildi. Ajratib olingan birikalarning bazi bir fizik kimyoviy kattaliklari quyida 1 – jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Introduksiyalangan *Helichrysum maracandicum* o'simligidan ajratib olingan birikmalarining fizik-kimyoviy tavsiflari

№	Birikma nomi	Brutto-formula	M.M.	Ts., °C	*R _f	*Unum, %
1	Apigenin	C ₁₅ H ₁₀ O ₅	270	>300	0,43 ¹	0,020
2	Luteolin	C ₁₅ H ₁₀ O ₆	286	>300	0,47 ¹	0,019
3	Naringenin	C ₁₅ H ₁₂ O ₅	272	149-151	0,59 ²	0,027

*Quruq xom ashyoga nisbatan


*Sistema: 1) Xloroform-metanol-sirka kislotasi-suv (9:3:0,5:0,5).

2) Xloroform-metanol-sirka kislotasi (12:3:0,7).

Olingan natijalarga ko'ra birinchi modda suyuqlanish harorati >300°C bo'lgan sariq rangli kukunsimon modda bo'lib, burutto formulasi C₁₅H₁₀O₅ ga teng. Ushbu moddaning UB spektrida (EtOH, λ_{max} nm): flavonlarning B halqasiga tegishli 343 nm da hamda A halqaga tegishli 270 nm larda yutilish maksimumlari kuzatildi.

Bu moddaning IQ spektrida aromatik halqalardagi OH guruhlarining valent tebranishlariga tegishli 3312 sm⁻¹ da va aromatik halqadagi C-H va C-C larning asimmetrik-simmetrik valent tebranishlariga tegishli 2933-2889 sm⁻¹ da hamda -C=O guruhining valent tebranishiga tegishli 1654 sm⁻¹ da, bundan tashqari C=C guruhlarining deformatsion tebranishlariga tegishli 1608, 1589, 1557, 1501 sm⁻¹ larda signallarning mavjudligi mazkur birikmaning flavonoid tabiatli modda ekanligini ko'rsatdi. Mazkur birikmaning ^1H YaMR spektrida 1 ta protonga tegishli 6.93 m.u. da singlet signalning mavjudligi flavon tabiatli moddaning C halqasiga tegishli 3-uglerod atomida bitta proton borligini ko'rsatdi. 13.78 m.u. dagi keng singlet signal, A halqadagi 5 holatda OH borligini isbotladi. 6.76 va 6.83 m.u. larda ikkita dublet (J = 2.1) signallarning mavjudligi A halqada 6 va 8 uglerod atomlarida 1 tadan protonlari borligini bildirdi. Bundan tashqari 7.22 va 7.94 m.u. larda intensiv ikkita dublet (J=8.8) signallar B halqada 2',6' hamda 3',5' larda bittadan protonlar borligini ko'rsatdi.


^{13}C YaMR spektri taxlillariga ko'ra 183.24 m.u. dagi signal mazkur flavonoidda 4-holatda C=O borligini bildirdi. Bundan tashqari ^{13}C spektrda umumiy 13 ta signalning mavjudligini B halqada 4' da OH ning mavjudligi hamda 2',6' va 3',5' dagi C atomlarining ekvivalent ekanligi bilan tushuntirish mumkin.




1-Rasm. Apigeninning kimyoviy tuzilishi

Mazkur birikmaning YaMR spektr ma'lumotlari standart namuna bilan to'g'ridan-to'g'ri taqqoslanganda 1 birlikma apigenin sifatida identifikatsiya qilindi.

Yuqoridagi kabi qolgan ikki birikmaning kimyoviy tuzilishi UB, IQ, ^1H va ^{13}C YaMR spektroskopiya usullarida taxlil qilinganda bu moddalar ham flavonoid tabiatli luteolin hamda naringenin flavanoidlari ekanligi isbotlandi.



2-Rasm. Luteolinning kimyoviy tuzilishi



3-Rasm. naringeninning kimyoviy tuzilishi

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda O'zbekiston hududida yovvoyi xolda o'suvchi *Helichrysum maracandicum* o'simligi tarkibida uchrovchi apigenin, luteolin hamda naringenin flavonoidlari madaniylashtirilgan *Helichrysum maracandicum* o'simligi tarkibida ham uchrashligi aniqlandi. Olingan bu ma'lumot madaniylashtirilgan *Helichrysum maracandicum* o'simligi asosida ham kelajakda gepatoprotektor xossali dori vositalari va BFQ yaratish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Флора СССР.– М.-Л.: АН СССР, 1959. Т. 25. – С. 404-431.
2. Флора Казахстана.– Алма-Ата: АН КазССР, 1965. 9 т. – С. 386-388.
3. Флора Киргизской ССР.– Фрунзе: АН КиргССР, 1965. Т. 11. – С. 78-81.
4. Флора Таджикской ССР. –Л.: Наука, 1988. Т. 9. – С. 290-294.
5. Флора Узбекистана. –Ташкент: АН УзССР, 1962. Т. 6. – С. 78-81.
6. Хожиматов О.К. Лекарственные растения западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан): Автореф. дисс. док. биол. наук.–Ташкент, 2008. – 35 с.
7. А.С.Баймухамбетова, Л.Т.Сухенко, А.В.Великородов, М.А.Егоров, G.Capodaglio. Химический состав эфирных масел *Helichrysum Arenarium* и *Helichrysum nogaicum*, произрастающих в Астраханской области //Химия растительного сырья 2019.№ 2. С.99-104. DOI: 10.14258/jcprm.2019024209.
8. Sarabekov A.T., Bobakulov Kh.M., Okhundedaev B.S., Maulyanov S.A., Babaev B.N., Shamyaynov I.D., Abdullaev N.D. Terpenoids and flavonoids from *Helichrysum maracandicum* of the flora of Uzbekistan // Chemistry of Natural Compounds. 2022. Vol. 58. №. 5. –P. 929-931 (02.00.00. №1).
9. Sarabekov A.T., Matchanov A., Maulyanov S. *Helichrysum nuratavicum* o'simligi kimyoviy element tarkibi // O'zMU Xabarlari. 2023. № 3/1/1. –Б. 484-487 (02.00.00. №12).
10. Sarabekov A.T., Matchanov A.D., Gafurov M.B., Khamidova G.R., Babaev B.N., Maulyanov S.A., Jabborova D. Element analysis of *Helichrysum maracandicum* collected in different regions of Uzbekistan // Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology. 2021. Vol.22. № 9-10. - P. 53-59.



UDK:547-31/-39; 547.36; 547.37

Aziza TEMIROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
E-mail: temirovaaziza42@gmail.com
Gulmira AZIMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
Muhabbat YULDASHEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d
Habibulla TOJIUHAMEDOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, k.f.n

Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti katta o'qituvchisi, PhD X.To'rayeva taqrizi asosida

ALLYLATION REACTIONS OF CRESOLS WITH ALLYL ALCOHOL IN THE PRESENCE OF NANOCATALYSTS Annotation

The allylation reactions of isomeric cresols with an allylating agent, allyl alcohol, and the influence of the catalyst nature on the reaction progress and yield were studied. The physical constants of allylcresols were determined. The structure was confirmed by IR and NMR spectroscopy data. The influence of solvents and temperature on the reaction progress was studied.

Key words: Isomeric cresols, allyl alcohol, benzene, heterogeneous catalysts, hydroquinone, nanocatalysts, Lewis acids, O- and C-allyl products.

РЕАКЦИИ АЛЛИЛИРОВАНИЯ КРЕЗОЛОВ АЛЛИЛОВЫМ СПИРТОМ В ПРИСУТСТВИИ НАНОКАТАЛИЗАТОРОВ

Аннотация

Изучены реакции аллилирования изомерных крезолов с аллилирующим агентом – аллиловым спиртом, а также влияние природы катализаторов на ход и выход реакции. Определены физические константы аллилкрезолов. Структура подтверждена данными ИК- и ЯМР-спектроскопии. Изучено влияние растворителей и температуры на ход реакции.

Ключевые слова: Изомерные крезолы, аллиловый спирт, бензол, гетерогенные катализаторы, гидрохинон, нанокатализаторы, кислоты Льюиса, O- и C-аллильные продукты.

KREZOLLARNI ALLIL SPIRTI BILAN NANOKATALIZATORLAR ISHTIROKIDA ALLILLASH REAKSIYALARI Annotatsiya

Izomer krezollarni allillovchi agent - allil spirt bilan allillash reaksiyalari, reaksiyaning borishiga va unumiga katalizatorlar tabiatining ta'sirini o'rganildi. Allilkrezoollarning fizik konstantalari aniqlandi. Tuzilishi IQ va YaMR spektroskopiya usulida tasdiqlandi. Reaksiyaning borishiga erituvchilar va harorat ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: Izomer krezollar, allil spirti, benzol, katalizatorlar, gidroksinon, nanokatalizatorlar, Lyus kislotalari, O- va C-allil mahsulotlar.

Kirish. Propenilfenil efirlar, propenilfenollar (odatda allilfenollar) tabiatda o'simliklarning turli organlarida uchraydigan, keng tarqalgan tabiiy fitokimyoviy moddalar bo'lib, ular fungitsid, bakteritsid, insektitsid, o'stiruvchanlik, repellentlik xususiyatlariga ega. Masalan, qalampir munchoq pashsha, chivinlarni haydashda, gvozdika daraxti gullari esa og'izdagi mikroblarni tozalashda, turli hashoratlarga qarshi insektitsid, qishloq xo'jaligida gerbitsid, oziq-ovqat sanoatida antioksidant, atraktantlar (xushbo'y moddalar), bug'doy boshloqlarida uchraydigan qorakuya kasalligiga qarshi fungitsid, shuningdek bakteritsid sifatida keng qo'llaniladi [1]. Almashingan bir va ikki atomli fenollar, naftollar va ularning mono- va dialkil efirlarining propenil hosilalari bo'lgan bir qator preparatlar, xususan gumulon, lupulon, tibbiyotda psixotomimetik vosita kannabigerol kislotasi, tanadagi qand va lipidlar miqdorini pasaytiruvchi agonist PPAR, vitamin K2 tarkibida menaxinon, oziq-ovqat antioksidanti – 4-allilpirokatexin, psoralen dori vositasini olishda xomashyo – 4-allilrezorsin, keng qo'llaniladigan pestitsid (atraktant) – 4-allilveratrol fiziologik faol moddalar hisoblanadi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqori samarali allillangan fenollar va ularning hosilalari haqida ilmiy adabiyotlarda berilgan ma'lumotlar, ushbu birikmalarning keng kimyoviy va biologik faoliyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ular fungitsid, bakteritsid, antioksidant, insektitsid, repellent kabi ko'plab xossalarga ega bo'lib, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Shu sababli, krezollarni allillash reaksiyalarini chuqur o'rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotlar allil guruhlarini fenol molekulariga kiritishning selektiv va samarali usullarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonlarda turli katalizatorlar, ayniqsa metallokomplekslari va zeolitlar qo'llanilgan. Masalan, Mo(II) va Cu(II) komplekslarining fenollarni orto- yoki para-holatda selektiv allillash qobiliyati qayd etilgan. Shuningdek, FeCl₃ kabi Lyuis kislotasi xossasiga ega katalizatorlar past konsentratsiyada ham samarali allillash reaksiyalarini amalga oshira olishi aniqlangan. Zamonaviy yondashuvlar orasida zeolitlar asosida modifikatsiyalangan katalitik tizimlar, xususan H β -30 va ZSM-5 kabi kislota markazlariga ega materiallar yuqori selektivlik va unumdorlik bilan ajralib turadi [3-7]. Bundan tashqari, palladiy, rodiiy va nikelli komplekslar asosida olib borilgan tadqiqotlar allillash reaksiyalarining regioselektivligini oshirishda muhim o'rin egallagan. Ayniqsa, rodiiy

katalizli reaksiyalar orto-almashingan fenollar uchun yuqori selektivlikni ta'minlagan[8]. Nanog'ovakli $\text{TiO}_2 \cdot \text{SiO}_2$ va $\text{TiO}_2 \cdot \text{NiO}_2$ asosida tayyorlangan heterogen katalizatorlar, o'zining katta sirt maydoni va faol markazlar tufayli, fenollarning allillanishida yuqori faollik va samaradorlikni namoyon qilgan [9-10]. Fenollarni allillash jarayonida orto- va para-holatlar o'rtasida selektivlik muammosi keng o'rganilgan. Klayzen qayta guruhlanish reaksiyasi orqali orto-allilfenollar sinteziga erishish mumkinligi ko'rsatilgan. Boshqa yondashuvlarda esa kuchli yoki zaif asosiy/kislotali markazlar mavjudligida reaksiya yo'nalishi moslashtirilgan [11-13]. Ko'plab tadqiqotlar ekologik xavfsizlikka ham e'tibor qaratgan. Masalan, mexanokimyoviy usullardan foydalanish, erituvchilardan voz kechish va katalizatorlarni qayta ishlatish orqali "yashil kimyo" tamoyillariga amal qilingan. Bu esa, ilmiy izlanishlarni nafaqat samarali, balki barqaror va iqtisodiy jihatdan foydali qilishga xizmat qilgan.


Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqotlarni davom ettirgan holda, tajribalarga asosanib isomer krezollarni allillovchi agent-allil spirt bilan $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, nanog'ovakli kristall $\text{TiO}_2 \cdot \text{SiO}_2$ va $\text{TiO}_2 \cdot \text{NiO}_2$ shimdirilgan FeCl_3 katalizatorlari ishtirokida allillash reaksiyalari olib borildi. Krezollar:allil spirti:katalizatorlar ishtirokidagi reaksiyalari o'rganildi. Bunda krezol 0,01mol:allillovchi agent -allil spirti 0,01mol:katalizator 0,001mol, erituvchi sifatida benzol va oz miqdorda gidroksinon solib magnitli aralashgichda 3 soat davomida 70-80°C da reaksiyalar olib borildi. Reaksiyalar dastlab 15 min, 30 min, 1 soat, 2 soat, 3 soat davomida YuQX qilindi (YuQX uchun muqobil sistema geksan:etilasetat:metanol 3:3:1,5) va R_f qiymatlari o'lchandi. So'ngra reaksiyon aralashma vakuumda haydab ajratildi. Bunda dastlabki fraksiya 50-80°S da, undan keyin maxsulot haydab olindi. Reaksiya unumi aniqlandi.

1-jadval


Krezollarni allil spirti bilan reagentlar nisbati krezol:allil spirt: katalizator 0.01:0.01:0.001 nisbatda benzolda olib borilgan reaksiyalari natijalari

T/r	Krezol izomerlari	Reaksiya unumi, %			Rf qiymati	T qayn, °C (vakuumda)
		$\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$	$\text{TiO}_2 \cdot \text{SiO}_2 / \text{FeCl}_3$	$\text{TiO}_2 \cdot \text{NiO}_2 / \text{FeCl}_3$		
1.	o-krezol	80	85	87	0.2 0.6	175
2.	m-krezol	63	65	68	0.3 0.5	135-140
3.	p-krezol	73	75	76	0.4 0.6	145-150


o-Krezolni allil spirt bilan allillash reaksiyasi tenglamasi quyidagicha:



m-Krezolni allil spirt bilan allillash reaksiyasi tenglamasi quyidagicha:



p-Krezolni allil spirt bilan allillash reaksiyasi tenglamasi quyidagicha:




Tahlil va natijalar. Krezol molekulasida ikkita reaksiyon markaz bo'lib, allillash reaksiyalarida O-allil va C-allil mahsulotlar hosil bo'ladi. Bunda dastlab aromatik halqaga bog'langan gidroksil guruhdagi reaksiyon qobiliyati yuqori bo'lgan kislorod atomiga allil guruhining hujumi bilan reaksiya boradi va O-allil mahsulotni hosil qiladi. Keyin aromatik halqada elektrofil almashinish natijasida C-allil mahsulotlar hosil bo'ladi. Gidroksil kuchli elektronodonor o'rinbosar bo'lganligi uchun o'ziga nisbatan orto- va para- holatlarda elektron zichlikni oshiradi va elektrtofil hujumini shu holatlarga yo'naltiradi. Metil guruh esa kuchsiz elektronodonor o'rinbosar bo'lganligi uchun u ham elektrtofilning hujumini o'ziga nisbatan orto- va para- holatlarga yo'naltiradi.


Aromatik halqadagi gidroksil guruh kuchli elektronodonor o'rinbosar bo'lganligi uning aromatik halqaga ta'siri kuchli bo'ladi va gidroksilga nisbatan orto- va para- holatlarda allil mahsulotlarning unumi yuqori bo'ladi. Reaksiyalar 3 xil katalizatorlar $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ va $\text{TiO}_2 \cdot \text{SiO}_2 / \text{FeCl}_3$, $\text{TiO}_2 \cdot \text{NiO}_2 / \text{FeCl}_3$ ishtirokida o'rganilganda, reaksiya unumining oshishi va isomer mahsulotlarning nisbatining turlicha bo'lishi kuzatildi. Ma'lumki, fenollarni alkylash reaksiyasi elektrofil almashinish mexanizmidan boradi va bunda elektron zichlik yuqori bo'lgan kislorod atomiga reaksiya borishi yuqorida ta'kidlab o'tgandik. Vaqt o'tishi bilan hosil bo'lgan O-allil mahsulotning katalizator ta'sida Klayzen qayta guruhlanishi natijasida C-allil mahsulotni hosil qiladi [14].

Bunda katalizator sifatida $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ishlatilganda, molekulararo qayta guruhlanishning bo'lishi va para-C-allil mahsulotning hosil bo'lishiga erishiladi.

Reaksiya mexanizmi quyidagicha:



Agar $\text{TiO}_2 \cdot \text{SiO}_2 / \text{FeCl}_3$, $\text{TiO}_2 \cdot \text{NiO}_2 / \text{FeCl}_3$ katalizator sifatida qo'llanilsa, bunda temir atomi $\text{TiO}_2 \cdot \text{SiO}_2$ yoki $\text{TiO}_2 \cdot \text{NiO}_2$ nanog'ovakli kristalning g'ovaklarida metal oksidlar tarkibidagi kislorod atomlari bilan donor-akseptor bog' orqali bog'lanib joylashishi natijasida sirt yuzasi va hajmi kattaroq bo'lishi hisobiga $\text{TiO}_2 \cdot \text{SiO}_2 / \text{FeCl}_3$, $\text{TiO}_2 \cdot \text{NiO}_2 / \text{FeCl}_3$ katalizatorlar ishtirokida ichkimolekulyar qayta guruhlanish sodir bo'ladi va orto-C-allil mahsulotlarning hosil bo'lishi yuqori bo'ladi [62]




Katalizator sifatida $\text{TiO}_2 \cdot \text{SiO}_2 / \text{FeCl}_3$ va $\text{TiO}_2 \cdot \text{NiO}_2 / \text{FeCl}_3$ qo'llanilganda unumlarining nisbatan farq qilishini nanog'ovaklarning kremniy tutganga qaraganda nikel atomi tutganining kengligi hisobiga temir ionining ko'proq joylasha olishi va ikki xil metal atomlari bo'lganda metal atomi bilan bog'langan kislorod atomlarining elektronodonor xossasi yuqori bo'lishi, temir ionlarini kuchliroq va ko'proq bog'lashi bilan asoslash mumkin.


Solishtirish maqsadida reaksiyalar allilovchi agent allil bromid bilan ham olib borildi. Bunda unumning allil spirt bilan olinganga nisbatan kam bo'lishini reaksiya natijasida ajralib chiqqan vodorod bromid reaksiya aralashmadan ajratilmasdan, mahsulotlarni haydash usuli bilan ajratib olish qo'llanilganda uning kislotali katalizator sifatida qo'shbo'g'ning qisman polimerlanishi hisobiga smolalanish bo'lganligi bilan izohlash mumkin

Izomer krezollarni allillash reaksiyalarida nanog'ovakli kristallarga shimdirilgan Lyus kislotasining qo'llanilishi avvalo katalizatorni reaksiya muhitidan ajratishda qulayligi va 2-almashingan izomerlarni yuqori unum bilan sintez qilish imkoniyatini beradi.

Ichki qayta guruhlanish mexanizmi (p-metilfenilallil efirining qayta guruhlanishi misolida)




Sintez qilingan birikmalarni tuzulishini o'rganish. Sintez qilingan birikmalarning tuzulishi IQ spektroskopiya usuli yordamida tahlil qilindi.




1-rasm. 1-Allil-o-krezolning IQ spektri

677-750 cm^{-1} sohada $=\text{C}-\text{H}$ deformatsion tebranishlari, 1592 cm^{-1} sohada $\text{C}=\text{C}$ valent tebranishlari, 3034 cm^{-1} sohada $\text{C}=\text{H}$ valent tebranishlari, 3345 cm^{-1} sohada $\text{O}-\text{H}$ valent tebranishlari, 750,90 cm^{-1} sohada 1,2,3- almashinish kuzatildi.



2-rasm:2-Allil-m-krezolning IQ spektri


675-773 cm^{-1} sohada $=\text{C}-\text{H}$ deformatsion tebranishlari, 1589 cm^{-1} sohada $\text{C}=\text{C}$ valent tebranishlari, 2922 cm^{-1} sohada $-\text{C}-\text{H}$ valent tebranishlari, 3329 cm^{-1} sohada $\text{O}-\text{H}$ valent tebranishlari, 773,41 cm^{-1} sohada 1,2,3-almashgan kuzatildi.



Allil guruhining $=\text{C}-\text{H}$ deformatsion tebraishlari 678-813,24 cm^{-1} sohada, 1598 cm^{-1} sohada $\text{C}=\text{C}$ valent tebranishlari, 3033 cm^{-1} sohada $=\text{C}-\text{H}$ valent tebranishlari, 3300 cm^{-1} sohada $\text{O}-\text{H}$ valent tebranishlari, 813 cm^{-1} sohada 1,2,4-almashgan kuzatildi.

3-rasm.2-Allil-p-krezolning IQ spektri

Reaksiya natijasida hosil bo'lgan O-allil mahsulotlardan m-metilallilfenil efirining ^1H va ^{13}C YaMR spektrlari o'rganildi.



Xulosa. Ilmiy tadqiqot ishida nanog'ovakli kristal ($\text{TiO}_2\cdot\text{SiO}_2$ va $\text{TiO}_2\cdot\text{NiO}_2$) ga FeCl_3 shimdirildi va olingan moddaning katalitik xossalari isomer krezollarni allillash reaksiyalarida o'rganildi va shu sharoitda reaksiya borishi aniqlandi.

Isomer krezollarni allillash reaksiyalari 3 xil katalizator ishtirokida o'rganildi va nanog'ovakli kristal ($\text{TiO}_2\cdot\text{SiO}_2$ va $\text{TiO}_2\cdot\text{NiO}_2$) ga shimdirilgan FeCl_3 katalitik sistemasi allillash reaksiyalari uchun qulay katalizator ekanligi, katalizatorlarning katalitik xususiyati $\text{FeCl}_3\cdot 6\text{H}_2\text{O} < \text{TiO}_2\cdot\text{SiO}_2/\text{FeCl}_3 < \text{TiO}_2\cdot\text{NiO}_2/\text{FeCl}_3$ qatorida mos ravishda mahsulot unumlarining ortib borishi aniqlandi.

Isomer krezollarni allillovchi agentlar bilan allillash reaksiyalarida reagentlar krezol:allillovchi agent (allil spirti, allil bromid): nanokatalizator 0,01:0,01:0,001 mol nisbatda olib borish maqbul sharoit deb topildi. Olingan moddaning tuzilishi fizik tadqiqot usullari yordamida o'rganildi.

ADABIYOTLAR

1. Natori, S. Nakanishi, K., Goto, T., Ito, S., Natori, S., Nozoe, S. In Natural Products Chemistry // Eds. Kodansha Scientific: Tokyo. -1975. -Vol. 2. -P.131.
2. Jacobs A. M., Winters A. C., Albiniak P. A. Reactivity insights from the allylation of substituted phenols with 2-allyloxy-1-methylpyridinium triflate //Tetrahedron Letters. – 2023. – T. 114. – C. 154293.2. PPOR, Vol. 22, No. 3, 2021, pp. 371-374
3. Aghayev A. A. et al. Alkylation of cresols with methanol on the modified zinc-ferrite catalyst //Processes of Petrochemistry and Oil Refining. –2021. – T. 22. – №. 3
4. Teodorescu F., Enache A., Sandulescu M. Selective alkylation of m-cresol with isopropyl alcohol under solvent-free conditions //Arkivoc. – 2017. – T. 5. – C. 58-66.
5. Anitha M., Kotikalapudi R., Swamy K. C. K. FeCl_3 catalysed regioselective allylation of phenolic substrates with (α -hydroxy) allylphosphonates //Journal of Chemical Sciences. – 2015. – T. 127. – C. 1465-1475.
6. Wang K. et al. Highly selective synthesis of para-cresol by conversion of anisole on ZSM-5 zeolites //Microporous and mesoporous materials.–2014. –T. 185. – C. 61-65.
7. Breilly D. et al. Sustainability and efficiency assessment of lignin derived phenolic synthons' allylation: in solution versus ball-milling. – 2022.
8. Mordacque O. M. A. Selective alkylation of phenols using solid catalysts : дис. – University of York, 2003.

9. Azimova G.Z., Yuldasheva M.R., Tadjimuhamedov Kh.S. Influence of a nanostructural catalyst in the synthesis of allylnaphthols // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. –2020. –№.5-6. –P. 32-36
10. Gulmira Azimova, Mukhabbat Yuldasheva, Khabibullo Tadjimuhamedov Influence of a nanostructural catalyst in the allylation reactions of anisole and nerolin. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences 2024, №9-10, 3-7
11. Sanford E. M., Lis C. C., McPherson N. R. The preparation of allyl phenyl ether and 2-allylphenol using the Williamson ether synthesis and Claisen rearrangement //Journal of chemical education. – 2009. – T. 86. – №. 12. – C. 1422.
12. Martín Castro A. M. Claisen rearrangement over the past nine decades //Chemical reviews. – 2004. – T. 104. – №. 6. – C. 2939-3002.
13. Berski S., Durlak P. The mechanism of Claisen rearrangement of allyl phenyl ether from the perspective of topological analysis of the ELF //New Journal of Chemistry. – 2016. – T. 40. – №. 10. – C. 8717-8726.
14. G.Z. Azimova. Fenollar va naftollarni allillash, allil mahsulotlarining xossalari Avtoreferat. PhD DISS. 2020



UDK:543

Akobir TOSHOV,
O'zMU Kimyo fakulteti Noorganik kimyo kafedrası o'qituvchisi
E-mail: akobir_toshov@mail.ru
Surayyo RAZZOQOVA,
O'zMU Kimyo fakulteti Noorganik kimyo kafedrası dotsenti, PhD
Sojida SADULLAYEVA,
O'zMU Kimyo fakulteti Noorganik kimyo kafedrası doktoranti
Yodgor RO'ZIMOV,
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti
Shahnoza KADIROVA,
O'zMU Kimyo fakulteti Noorganik kimyo kafedrası professori, k.f.d

O'zRFA kata ilmiy xodim., PhD M.Ibragimova taqrizi asosida

CRYSTAL AND MOLECULAR STRUCTURE OF THE COMPLEX COMPOUND OF 2-AMINO BENZOXAZOLE WITH COBALT AND COPPER (II) ACETATE

Annotation

The rapid development of the chemistry of unsaturated nitrogen-containing heterocyclic compounds, such as benzoxazole, is associated with their high pharmacological and fungicidal activities. It is known from the literature that the practical importance of such compounds is primarily associated with the nature of the substituents in the heterocycle. In the main case, the molecular structure of 2-aminobenzoxazole was optimized on the Gaussian 09 platform of the B3LYP program with the 6-311G (d,p) basis set, which in turn is a hybrid of the three-parameter commutative Beckes functional with the Li-Yang-Parr correlation functional. The vibrational frequencies of 2-aminobenzoxazole were calculated at the B3LYP level. The potential energy distribution (PED) was calculated using the VEDA 4 (Vibrational Energy Distribution Analysis) program. The method for calculating scale coefficients is the same as that recommended by Scott and Radom.

Key words: Crystallographic, benzoxazole, tetrahedron, structure, complex, angle, elemental analysis, ligand.

КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ И МОЛЕКУЛЯРНАЯ СТРУКТУРА КОМПЛЕКСНОГО СОЕДИНЕНИЯ 2-АМИНОБЕНЗОКСАЗОЛА С АЦЕТАТОМ КОБАЛЬТА И МЕДИ (II)

Аннотация

Бурное развитие химии ненасыщенных азотсодержащих гетероциклических соединений, таких как бензоксазол, обусловлено их высокой фармакологической и фунгицидной активностью. Из литературы известно, что практическое значение таких соединений в первую очередь связано с природой заместителя в гетероцикле. В основном состоянии молекулярная структура 2-аминобензоксазола была оптимизирована на платформе Gaussian 09 программы B3LYP с базисным набором 6-311G (d,p), который в свою очередь является гибридом трехпараметрического коммутативного функционала Бекеса с корреляционным функционалом Ли-Янга-Парра. Частоты колебаний 2-аминобензоксазола были рассчитаны на уровне B3LYP. (PED) Распределение потенциальной энергии рассчитывалось с использованием программы VEDA 4 (Анализ распределения колебательной энергии). Метод расчета масштабных коэффициентов тот же, что рекомендован Скоттом и Радомом.

Ключевые слова: Кристаллографический, бензоксазол, тетраэдр, структура, комплекс, угол, элементный анализ, лиганд.

2-AMINO BENZOKSAZOLNING KOBALT VA MIS (II) ATSETAT BILAN HOSIL QILGAN KOMPLEKS BIRIKMANING KRISTAL VA MOLEKULAR TUZULISHI


Annotatsiya

Benzoksazol singari to'yinmagan azot saqlovchi geterohalqali birikmalar kimyosining jadal cur'atlar bilan rivojlanishi ularning yuqori farmakologik va fungitsidli faolliklari bilan bog'liqdir. Adabiyotlardan ma'lumki, bunday birikmalarning amaliy ahamiyati birinchi navbatda geterohalqadagi o'rinbosapr tabiati bilan bog'liq. Asosiy holatda 2-aminobenzoksazol molekulyar strukturalari 6-311G (d,p) bazas to'plamiga ega B3LYP dasturining Gaussian 09 platformasida optimallashtirildi, bu o'z navbatida Li-Yang-Parr korrelyasion funksionaliga ega uch parametrl almashinuvchan Bekes funksionali gibridi hisoblanadi. 2-aminobenzoksazolning tebranuvchi chastotalari B3LYP darajasida hisoblandi. (PED) Potensial energiyani taqsimlanishini VEDA 4 (Vibrational Energy Distribution Analysis) (Tebranuvchi energiyani taqsimlanish analizi) dasturi yordamida hisoblandi. Masshtabli koeffisientlarni hisoblash usuli Skot hamda Radom tomonidan tavsiya etilgan usul bilan bir xil.

Kalit so'zlar: Kristallografik, benzoksazol, tetraedr, struktura, kompleks, burchak, element tahlil, ligand.

Kirish. 3d-metallarning benzoksazol hosilalari bilan kompleks birikmalarining tuzilishi va xossalarini o'rganish uchun biz yangi bis(asetato)-bis (2-aminobenzoksazol kobalt (II)) kompleksini sintez qilindi. Element tahlil ma'lumotlariga ko'ra, birikma tarkibi $\text{CoL}_2(\text{CH}_3\text{COO})_2$ formulasiga to'g'ri keladi, L-2-aminobenzoksazol.

Asosiy qism. Sintez qilingan kompleksning tarkibi va tuzilishi element tahlil natijalari RSA asosida tasdiqlandi (Rasm 1).



1-rasm. Molekulaning tuzilishi (a) va uning kristalli tuzilishi (B)

Kristallografik ma'lumotlar: $C_{18}H_{18}Co_1N_4O_6$, $M = 445$ g/mol, monoklinik singoniyali shaffof jigarrang kristallar, fazoviy guruh $P_{na/21}$ (№9), $a = 8.9725(2)$, $b = 9.2578(2)$, $c = 23.7971(5)$ Å, $\alpha = 90^\circ$, $\beta = 100.021(2)^\circ$, $\gamma = 90^\circ$, $V = 1946.56(7)$ Å³, $Z = 8$, $D_{cal} = 1.535$ g/sm³. Kristal o'lchamlari: $0.36 \times 0.24 \times 0.17$ mm³ (Jadval 1)

Kompleksning kristall tuzilishi (1-rasm) kompleks tarkibida ikkita atsetat atsetoligandlari bilan ion bog' bilan bog'langan, ikkita ligand molekulasini bilan koordinatsion bog' bilan bog'langan, markazda bitta Co atomi borligi aniqlandi.

1-jadval

[CoL₂(CH₃COO)₂] strukturasi uchun RSA tajribasining asosiy kristallografik parametrlari va xarakteristiklari

Tuzilishi	[CoL ₂ (CH ₃ COO) ₂]
Molekulyar formulasi	Co ₁ C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₆
M_r , r/mol ⁻¹	471.46
Singoniya	Моноклин
Fazoviy guruh	$P_{na/21}$
Z	8
a, b, c, Å	a=8.9725(2), b=9.2578(2), c=23.7971(5)
α , β , γ (°)	$\alpha = 90^\circ$, $\beta = 100.021(2)^\circ$, $\gamma = 90^\circ$
V, Å ³	1946.56(7)
ρ , r/cm ³	1.535
Kristal o'lchamlari (mm)	0.36x0.24x0.17
T, K	293
O'lchov oralig'i	2.56-28.33
Ceklash h, k, l	-14/14, -34/36, -10/10
T_{min} , T_{max}	0.636, 0.799
μ exp (mm ⁻¹) (MoK α)	1.385
Jami mulohazalar	37602
Mustaqil aks ettirish	4605
qaytarilishlar soni c $I > 2\sigma(I)$	4513
R_{int}	0.0233
Qayta tiklanadigan parametrlar	238
Kuzatilgan qaytarilishlar [$I^2 \geq 2\sigma(I^2)$]	9925
R_1 , wR ₂ ($I > 2\sigma(I)$)	0.0276, 0.0754
Moslashganlik sifati	1.061
$\Delta\rho_{max}$, $\Delta\rho_{min}$ (e Å ⁻³)	0.615, -0.471

[CoL₂(CH₃COO)₂] kristallida buzilgan tetraedrning uchlarida Co(II) ioniga 2-aminobenzoksazol halqalarining ikkita azot atomini va atsetat atsidoligandlarining ikkita kislorod atomini koordinatsiyalovchi molekulyar tuzilishga ega. Bog' uzunligi Co¹-O⁵ (2.007(3) Å) va Co¹-O³ (2.014(2) Å) bir-biridan farq qiladi. Bunga sabab, N2-H ... O³ tipidagi ichki molekulyar vodorod bog' lari mavjudligi (IMVB) tufayli, ularda atsetat guruhining kordinatsiyalangan kislorod atomlari va ekzotsiklik amino guruhlarining vodorod atomlari orasida tortilish kuzatiladi.

Bunday IMVB larning mavjudligi tetraedrning bog'lanish burchaklarining qisqarishiga 97.82(1)° (O³-Co¹-N¹) va 98.54(1)° (O⁵-Co¹-N³), nazariy burchaklarga yaqin bo'lgan O⁵-Co¹-N¹ (106.36(1)°) va O³-Co¹-N³ (105.47(1)°), va burchaklari kattalashgan N²-Co¹-N² (101.36(2)°) va O⁴-Co¹-O⁵ (88.72(1)°), O³-Co¹-O⁴ (61.31(1)°) holatlarga olib keladi.

2-jadval

Strukturadagi vodorod bog'larining geometriyasi [CoL₂(CH₃COO)₂]

Bog' D-H...A	Atomning operatsiyasi A	Masofa, Å			Burchak AHD,
		D...A	D...H	H...A	
MAVB					
N ² -H ^{2A} ...O ³		2.829(5)	0.82(6)	2.05(6)	146.8
N ⁴ -H ^{4A} ...O ⁵		2.795(5)	0.880	2.018	146.01
IMVB					
N ⁴ -H ^{4A} ...O ¹²	x-0.5; 1.5-y; z-0.5	2.791(5)	0.97(5)	1.83(5)	164.16
N ³ -H ³ ...O ²	x; 1-y; 0.5+z	2.800(5)	0.880	1.981	158.6

3-jadval

Tuzilishdagi bog'lanish uzunligi va bog'lanish burchaklari [CoL₂(CH₃COO)₂]

Bog'	d, Å	Bog'	d, Å	Bog'	d, Å
Co1-N2	2.026(4)	N1'-C2'	1.288(7)	C4-O2	1.236(5)
Co1-N2'	2.041(4)	N2'-C1'	1.321(5)	C1'-S1'	1.738(5)
Co1-O1	1.997(3)	N3'-C1'	1.325(7)	C2'-S1'	1.748(4)
Co1-O1'	1.969(2)	C1-S1	1.746(4)	C2'-S2'	1.743(6)
N1-N2	1.404(5)	C2-S1	1.753(5)	C3'-S2'	1.801(5)
N1-C2	1.279(6)	C2-S2	1.745(5)	C4'-C5'	1.522(7)
N2-C1	1.314(5)	C3-S2	1.796(6)	C4'-O1'	1.273(7)
N3-C1	1.333(7)	C4-C5	1.502(8)	C4'-O2'	1.234(6)
N1'-N2'	1.396(6)	C4-O1	1.280(6)		
Burchak	ω, grad	Burchak	ω, grad	Burchak	ω, grad
N2-Co1-N2'	117.2(2)	N1'-N2'-C1'	113.6(4)	N1'-C2'-S1'	115.2(4)
N2-Co1-O1	99.3(1)	N2-C1-N3	125.9(4)	N1'-C2'-S2'	127.7(4)
N2-Co1-O1'	108.6(1)	N2-C1-S1	112.8(3)	S1'-C2'-S2'	117.1(3)
N2'-Co1-O1	107.9(1)	N3-C1-S1	121.2(4)	C5'-C4'-O1'	115.4(4)
N2'-Co1-O1'	99.1(1)	N1-C2-S1	115.5(4)	C5'-C4'-O2'	120.8(5)
O1-Co1-O1'	126.0(1)	N1-C2-S2	126.2(4)	O1'-C4'-O2'	123.8(4)
N2-N1-C2	111.4(4)	S1-C2-S2	118.2(3)	C1-S1-C2	86.5(2)
Co1-N2-N1	117.0(3)	C5-C4-O1	116.8(4)	C2-S2-C3	99.7(3)


Co1-N2-C1	127.9(3)	C5-C4-O2	121.1(4)	C1'-S1'-C2'	86.8(2)
N1-N2-C1	113.7(4)	O1-C4-O2	122.1(4)	C2'-S2'-C3'	101.4(3)
N2-N1'-C2'	111.5(4)	N2'-C1'-N3'	125.6(5)	Co1-O1-C4	107.4(3)
Co1-N2'-N1'	121.3(3)	N2'-C1'-S1'	112.9(3)	Co1-O1'-C4'	113.1(3)
Co1-N2'-C1'	125.0(3)	N3'-C1'-S1'	121.5(4)		

[CoL₂(CH₃COO)₂] kristalli strukturasida yuqoridagi IMVB lardan tashqari, L aminoguruhlarining vodorodi va atsido ligandning karbonil guruhining kislorodi orasidagi paydo bo'ladigan molekulalararo vodorod bog'lari (MAVB) ham vujudga keladi. Har bir [CoL₂(CH₃COO)₂] molekulyar kompleksi bunday MAVB orqali to'rtta qo'shni molekula bilan bog'lanib, tetraedrik shakldagi singoniyani hosil qiladi.

[CuL₂(CH₃COO)₂] kompleksining kristal va molekulyar tuzilishi

Yangi bis(asetato)-bis(2-aminobenzoksazol)kobalt(II) kompleksi sintez qilindi. Element tahlil ma'lumotlariga ko'ra, birikma tarkibi CuL₂(CH₃COO)₂ formulasiga to'g'ri keladi, L-2-aminobenzoksazol.

Sintez qilingan kompleksning tarkibi va tuzilishi element tahlil natijalari RSA asosida tasdiqlandi (Rasm 3).



3-rasm. Molekulaning tuzilishi (a) va uning kristalli tuzilishi (B)

Kristallografik ma'lumotlar: C₁₈H₁₈Cu₁N₄O₆, M = 450 g/mol, monoklinik singoniyali yashil kristallar, fazoviy guruh P1_{21/c1}, a = 8.9724(2), b = 9.25781(19), c = 23.7971(5) Å, α = 90°, β = 100.021(2)°, γ = 90°, V = 1976 Å³, Z = 8, D_{cal} = 1.535 g/sm³. Kristal o'lchamlari: 0.36 × 0.24 × 0.17 mm³ (Jadval 4)

Kompleksning kristall tuzilishi (4-rasm) kompleks tarkibida ikkita atsetat atsetoligandlari bilan ion bog' bilan bog'langan, ikkita ligand molekulasini bilan koordinatsion bog' bilan bog'langan, markazda bitta Cu atomi borligi aniqlandi.

4-jadval

[CuL₂(CH₃COO)₂] strukturasini uchun RSA tajribasining asosiy kristallografik parametrlari va xarakteristiklari

Tuzilishi	[CuL ₂ (CH ₃ COO) ₂]
Molekulyar formulasi	Cu ₁ C ₁₈ H ₁₈ N ₄ O ₆
M _r , g/mol ⁻¹	450
Singoniya	Моноклиник
Fazoviy guruh	P1 _{21/c1}
Z	8
a, b, c, Å	a = 8.9724(2), b = 9.25781(19), c = 23.7971(5)
α, β, γ (°)	α = 90°, β = 100.021(2)°, γ = 90°
V, Å ³	1976(7)
ρ, g/cm ³	1.535
Kristal o'lchamlari (mm)	0.36 × 0.24 × 0.1
T, K	293
O'lchov oralig'i	2.56–28.33
Cheklash h, k, l	-14/14, -34/36, -10/10
T _{min} , T _{max}	0.636, 0.799
μ _{exp} (mm ⁻¹) (MoKα)	1.385
Jami mulohazalar	37602
Mustaqil aks ettirish	4605
qaytarilishlar soni c I > 2σ(I)	4513
R _{int}	0.0233
Qayta tiklanadigan parametrlar	238
Kuzatilgan qaytarilishlar [F ² ≥ 2σ(F ²)]	9925
R ₁ , wR ₂ (I > 2σ(I))	0.0276, 0.0754
Moslashganlik sifati	1.061
Δρ _{max} , Δρ _{min} (e Å ⁻³)	0.615, -0.471

[CuL₂(CH₃COO)₂] kristallida buzilgan tetraedrning uchlarida Cu(II) ioniga 2-aminobenzoksazol halqalarining ikkita azot atomini va atsetat atsidoligandlarining ikkita kislorod atomini koordinatsiyalovchi molekulyar tuzilishga ega. Bog' uzunligi Co^I-O⁶ (2.647(3) Å) va Co^I-O⁴ (2.453(2) Å) bir-biridan farq qiladi. Bunga sabab, N₂-H ... O⁶ va N₄-H ... O⁴ tipidagi ichki molekulyar vodorod bog'lari mavjudligi (IMVB) tufayli, ularda atsetat guruhining kordinatsiyalangan kislorod atomlari va ekzotsiklik amino guruhlarining vodorod atomlari orasida tortilish kuzatiladi (5-jadval).

Bunday IMVB larning mavjudligi tetraedrning bog'lanish burchaklarining qisqarishiga 98.69(1)° (O⁶-Co^I-N¹) va 99.72(1)° (O⁴-Co^I-N³), nazariy burchaklarga yaqin bo'lgan O⁴-Co^I-N¹ (102.51(1)°) va O⁶-Co^I-N³ (111.97(1)°), va burchaklari kattalashgan N¹-Co^I-N³ (91.57(2)°) va O⁵-Co^I-O³ (91.49(1)°), O³-Co^I-O⁴ (58.55(1)°) holatlarga olib keladi (jadval 5).

5-jadval

Strukturadagi vodorod bog'larining geometriyasi [CuL₂(CH₃COO)₂]

Bog'	Atomning operatsiyasi A	Masofa, Å	D...H	H...A	Burchak AHD,
D-H...A		D...A			
MAVB					
N ² -H ^{2A} ...O ⁶		2.829(5)	0.82(6)	2.05(6)	174.47
N ⁴ -H ^{4A} ...O ⁴		2.795(5)	0.880	2.018	159.69
IMVB					
N ² -H ^{2B} ...O ⁶	x-0.5; 1.5-y; z-0.5	2.791(5)	0.97(5)	1.83(5)	164.55
N ⁴ -H ^{4B} ...O ⁵	x; 1-y; 0.5+z	2.800(5)	0.880	1.981	171.05

6-jadval

[CuL₂(CH₃COO)₂] kristalli strukturasi yuqoridagi IMVB lardan tashqari, L aminoguruhlarining vodorodi va atsido ligandning karbonil guruhining kislorodi orasidagi paydo bo'ladigan molekulararo vodorod bog'lari (MAVB) ham vujudga keladi. Har bir [CuL₂(CH₃COO)₂] molekulyar kompleksi bunday MAVB orqali to'rtta qo'shni molekula bilan bog'lanib, tetraedrik shakldagi singoniyani hosil qiladi.

Xulosa. Sintez qilingan kompleks birikmalarda metall atomlari Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn ligand 2-aminobenzoksazol molekuladagi azot atomi opqali koordinatsiyaga uchrashi ko'psatildi. Kompleks birikmalarning geometrik tuzilishi tetraedrik shaklda ekanligi aniqlandi. RSA yordamida [CoL₂(CH₃COO)₂], va [CuL₂(CH₃COO)₂] birikmalari uchun kristal tuzilishlari aniqlandi va markaziy atomlarning koordinasion sonlari to'rtga teng bo'lib qiyshaygan tetraedrik tuzilishni namoyon qilishi tasdiqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Assefa Z., Yaita T., Haire R.G., Tachimori S. Intramolecular energy transfer in actinide complexes of 6-methyl-2-(2-pyridyl)-benzimidazole (biz): comparison between Cm³⁺ and Tb³⁺ systems // J. Solid State Chem. - New York, 2005. -№2(178). - P.505-510.
2. V. Paredes-García, S. Gaune, M. Saldías, M.T. Garland, R. Baggio, A. Vega, M. Salah El Fallah, A. Escuer, E. Le Fur, D. Venegas-Yazigi, E. Spodine. Solvatomorphs of dimeric transition metal complexes based on the V₄O₁₂ cyclic anion as building block: Crystalline packing and magnetic properties. Inorganica Chimica Acta. 2008. Vol. 361. -P. 3681-3689.
3. F.H. Allen. The Cambridge Structural Database: a quarter of a million crystal structures and rising // Acta Crystallogr. Sect. B. 2002. Vol. 58. -P. 380.
4. L. Bartošová, Z. Padeřlková, E. Rakovsky', P. Schwendt. Synthesis and crystal structure of two copper(II) complexes with coordinated decavanadate ion. Polyhedron. 2012. Vol. 31. -P.565-569.
5. J.L. Ferreira da Silva, M.F. Minas da Piedade, M.T. Synthesis and crystal structure of two copper(II) complexes with coordinated decavanadate ion. Duarte // Inorg. Chim. Acta. 2003. Vol. 356. -P. 222.
6. Hai-Yang Guo, Ting-Ting Zhang, Po-Han Lin, Xiao-Zhang, Xiao-Bing Cui, Qi-Sheng Huo and Ji-Qing Xu. Preparation, structure and characterization of a series of vanadates // The Royal Society of Chemistry. 2016. DOI: 10.1039/c6ce02205g.
7. Xiao-Meng Lin, Xiao-Dong Feng, Yang Wang, Yong-Heng Xing, Li-Xian Sun, SiYue Wei, Zhan Shi. Polyoxidovanadate complexes: Synthesis, structures and catalytic oxidative bromination of phenol red // Journal of Coordination Chemistry. Published on Taylor & Francis. DOI: <http://dx.doi.org/10.1080/00958972.2016.1247445>.



UDK: 541.49+547.794.3

Gulnaz KHOJABAEVA,
PhD student of the National University of Uzbekistan
E-mail: gulnazkhojabaeva@gmail.com
Aziza EREJEPOVA,
Master student of the National University of Uzbekistan
Batirbay TORAMBETOV,
PhD, Associate Professor of National University of Uzbekistan
Shakhnoza KADIROVA,
Doctor of chemical sciences, professor of National University of Uzbekistan

On the basis of the review of Candidate of chemical sciences, associate professor Azizov O.T.

IN SILICO PROGNOZIROVANIYE BIOLOGICHESKOY AKTIVNOSTI 2-AMINO-5-ETILTIO-1,3,4-TIADIAZOLA S ISPOL'ZOVANIEM VEB-RECURSA PASS ONLINE

Аннотация

В настоящем исследовании представлена теоретическая оценка потенциальной биологической активности 2-амино-5-этилтио-1,3,4-тиадиазола, выполненная с использованием предсказательного программного обеспечения PASS Online. Анализ показал, что данное соединение обладает способностью модулировать ионный транспорт, ингибировать активность ферментов, проявляет антибактериальные свойства, а также оказывает другие терапевтически значимые эффекты. Полученные результаты представляют собой теоретическую основу для определения возможных направлений применения данного соединения.

Ключевые слова: PASS Online, биологическая активность, значение вероятности, 2-амино-5-этилтио-1,3,4-тиадиазол, терапевтическое значение, ингибитор.

2-AMINO-5-ETILTIO-1,3,4-TIADIAZOLNING BIOLOGIK FAOLLIGINI PASS ONLAYN VEB-RESURSI ORQALI IN SILICO BASHORAT QILISH

Аннотация

Ushbu tadqiqot PASSOnline bashoratli dasturi yordamida o'tkazilgan 2-амино-5-этилтио-1,3,4-тиадиазолning potentsial biologik faolligini nazariy baholashni taqdim etadi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, birikma ion tashish modulyatsiyasi, ferment ingibitor faolligi, antibakterial xususiyatlar va boshqa terapevtik ahamiyatga ega ta'sirlarni namoyish etadi. Ushbu natijalar ushbu birikmaning potentsial qo'llanilish sohaslarini aniqlash uchun nazariy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: PASSOnline dasturi, biologik faollik, ehtimollik qiymati, 2-амино-5-этилтио-1,3,4-тиадиазол, terapevtik ta'sir, ingibitor.

IN SILICO PREDICTION OF THE BIOLOGICAL ACTIVITY OF 2-AMINO-5-ETHYLTHIO-1,3,4-THIADIAZOLE USING PASS ONLINE WEB RESOURCE

Annotation

This study presents a theoretical evaluation of the potential biological activities of 2-amino-5-ethylthio-1,3,4-thiadiazole, conducted using the PASSOnline predictive software. The analysis revealed that the compound exhibits ion transport modulation, enzyme inhibitory activity, antibacterial properties, and other therapeutically significant effects. These results provide a theoretical foundation for identifying potential application areas of this compound.

Key words: PASS Online, biological activity, probability value, 2-amino-5-ethylthio-1,3,4-thiadiazole, therapeutic implication, inhibitor.

